Olloyorov Quvondiq

Madiyorova Volida

# XORAZM XALQ DOSTONLARIDAGI ATOQLI OTLAR LUG‘ATI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**Quvondiq Olloyorov**
**Volida Madiyorova**

# Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug‘ati

**Toshkent - 2017**

UO'K 94(076.5)
KBK 63.3(58)33

**Olloyorov, Quvondiq; Madiyorova, Volida**

Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug'ati / Q.Olloyorov, V.Madiyorova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Urganch davlat universiteti. –Toshkent, 2017-yil. 88 bet.

Ushbu lug'atda Xorazm dostonlari tilida qo'llanilgan atoqli otlar to'plangan bo'lib, ular dostonlardagi o'rni va ayrim izohlari bilan birga berilgan. Ushbu lug'at Xorazm dostonlaridagi atoqli otlarning ko'lami va mavzuiy guruhlarini belgilashda muhim o'rin tutadi.

Qo'lingizdagi nashr mazkur sohaga aloqador keng ilmiy jamoatchilikka hamda o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini e'zozlovchi kitobxonlar va qiziquvchilar ommasiga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:** Zaribboy Do'simov, filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

**Taqrizchilar:** Sarvar Ro'zimboyev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Abdulla O'razboyev, filogiya fanlari nomzodi, Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy kotibi.

Mazkur lug'at Urganch davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2017-yil 2-noyabrdagi navbatdan tashqari yig'ilishi qaroriga binoan nashrga tavsiya qilingan.

**ISBN 978-9943-4659-7-8**

©**"Adabiyot uchqunlari" nashriyoti**
© Toshkent, 2017-yil

# SO‘ZBOSHI

Nutqda qo‘llanilayotgan birliklar orasida onomastik birliklarning o‘rni beqiyosdir. Nomlarning turli jihatlarini tahlil qilish, o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazish bugungi kun tilshunoslari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Nomlar – u joy nomi yoki kishi ismi; daryo yoki tog‘lar nomi; cho‘l yoki hayvon nomi, umuman, qanday vazifadagi ko‘rinishi bo‘lishidan qat’iy nazar har bir millatning o‘ziga xosligini yaqqol namoyon etib turuvchi lisoniy vositadir.

Nomlarning jamiyatimiz hayotida ana shunday muhim o‘rni mavjudligini keyingi paytda mamlakatimiz miqyosida joy nomlaridan xalqimiz tarixi, madaniyati va qadriyatlariga aloqador bo‘lmagan nomlarni qayta ko‘rib chiqilishi bo‘yicha olib borilayotgan harakatlar ham tasdiqlashi mumkin.

Bugungi kunda xalqimiz farovonligi yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarda, xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda[1]. Unda ko‘zda tutilgan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik masalalarida onomastikaning muhim o‘rni mavjud.

Xo‘sh, millatimiz o‘tmishi, yashash tarzi, urf-odatlari-yu qadriyatlari, qardosh xalqlar va qo‘shni o‘lkalar bilan munosabatlar aks etib turuvchi nomlarni qayerdan izlash mumkin? Xalq dostonlari ana shunday mnabalardan biridir. Albatta, dostonlar leksikasi xalq shevalari, xususan, aytuvchining shevasi bilan izohlanadi, biroq, shu shevaning o‘zida o‘sha xalq tilining qadimiy ildizlari, ularning urf-odatlari-yu e’tiqodlari, shu o‘lkalarda ro‘y bergan tarixiy jarayonlarning izlari ham aks etgan bo‘ladi. Bundan tashqari, onomastik birliklar, ko‘p hollarda, shevalar orasida kam farqlanuvchi elementlardan hisoblanadi.

Xalq dostonlari leksikasidagi turli lisoniy birliklar o‘zining qadimgi shakllarini saqlashi bilan birga, zamonaviy til birliklarini ham aks ettirishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatdan olib qaraganda, Xorazm hududiy regionida tarqalgan dostonlar tili va undagi onomastik birliklar bugungi o‘zbek tilining nomshunoslik yo‘nalishlari tarixi va taraqqiyotini o‘rganish uchun juda zarurligini rad etish qiyin.

Qo‘lingizdagi ushbu lug‘at Xorazm regionida ko‘p yillar davomida kuylanib, keng xalq ommasi orasida ma’lum va mashhur bo‘lgan dostonlar

[1] Mirziyoyev Sh.M. Harakatlar strategiyasi to’g‘risidagi Farmonga sharh. –Toshkent shahri, 2017-yil, 7-fevral.

matnida uchraydigan atoqli otlarni jamlashga qaratilgan bir urinishning natijasi sifatida yuzaga kelgan nashrdir.

Xorazm dostonlari matnida uchraydigan nomlarni to‘plash ishi ularni bir yerga jamlamasdan turib amalga oshishi qiyin edi. Bu ishning yuzaga kelishiga yetakchi o‘zbek folklorshunoslaridan professor Safarboy Ro‘zimboyevning mas’ul muharrirligida mazkur dostonlar to‘planib nashrdan chiqarilishi hamda o‘zbek nomshunosligi sohasining yetakchi olimlaridan professor Zaribboy Do‘simovning ilmiy mulohaza va ko‘rsatmalari mustahkam zamin hozirladi.

Endilikda Xorazm dostonlari tilida qo‘llanilgan atoqli otlar bo‘yicha umumiy fikrlar bildirishni istagan o‘rganuvchi yoki tadqiqotchi dostonlar sahifalarini bir-bir ochib, ularni izlab o‘tirishiga hojat yo‘q. Qo‘lingizdagi ushbu lug‘at yordamida hohlagan bir nomning qo‘llanilgan o‘rni va shakli uchun yo‘llanmani topib olishingiz mumkin. Kengroq ma’lumot uchun esa, o‘sha yerda ko‘rsatigan manbaga murojaat qilish lozim bo‘ladi.

Ushbu lig‘at Xorazm regionida tarqalgan atoqli otlar to‘g‘risida nafaqat umumiy tasavvur berishi, balki ularni boshqa hududlarda tarqalgan nomlar bilan umumiy va farqli jihatlarini qiyoslashga ham imkon yaratadi. Xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan nomlarning ayrimlari badiiylashgan va arxaiklashgan ko‘rinishga ega bo‘lishidan tashqari, ko‘pchiligi bugungi kunda ham o‘z faolligini yo‘qotmay kelayotgan nomlardir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu lug‘atda xalqimizning yashash tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida aks ettirib turuvchi ko‘plagan nomlar o‘rin olgan. Ularni o‘qib ko‘rib, joy nomlari, kishi nomlari, suv havzalari bilan bog‘liq nomlar, hayvon nomlari va boshqa nomshunoslikning ko‘plagan tarmoqlariga oid nomlar to‘g‘risida mulohaza yuritish sizga havola.

**Mualliflardan**

## Xorazm dostonlaridagi atoqli otlar so‘zligi.

**Abbos** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 101-b)

*...Hazrat Ali, Abbos yohud Alg‘iyos,*
*O‘zingsan sirdoshim yo ibn Abbos...*

**Abdulla**(qalandar) (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi n, 31-b)

*...Abdulla qalandar bu so‘zni aytib tamom qilg‘onnan keyin, qalandarlar eshaklarina minib, yo-hu dab yo‘l tutavardilar...*

**Abdulla** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 49-b)

*...Abdulla degan bir yigitni qirq kishi birla buyurdi...*

**Abdulqodir** (G-2 “Oygulqizning vafoti” dostoni, kishi nomi, 292-b)

*...Bir pilla podshoning Abdulqodir degan o‘n ikki maqomning ustozi qo‘lida sozi, og‘zida so‘zi, shu yerdan o‘ta berdi...*

**Abu Bakr**[2] (G-2 355-b, O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 100-b)

*...Haqning do‘sti bo‘lgan ul Shohimardon,*
*Abu Bakr – Siddiq, Umar ham Usmon...*

**Abulqosim Qurayshi** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 281-b)

*...Shohi Olim ikki dunyoda xudo yoring saning,*
*Ul Abulqosim Qurayshi bo‘lsa g‘amxoring saning...*

**Abu Muslim** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi 312-b) (G-2 *“Hasanxon” kishi nomi 97-b)*

*Abu muslim otli Sohibqironlar,*
*Shahid bo‘lg‘on Xorazmda eranlar...*

**Avaz** (Avazjon, Avazxon, Bol Avaz) (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, kishi nomi 105-b, 100-b, 99-b)

*...Otni jilovini dutor qilib, Avazjona qarab, qani endi to‘y shoyini tutaberinglar, ol man getdim...(105-b)*

*...Kunlardan bir kun Go‘ro‘g‘li Avazxonni uylantirish taraddudiga tushdi. Shunda safar ko‘sa aytdi: Avazxon uchun Turkiston viloyatindagi Lahkashohning qizidan munosibi yo‘qtur, dedi...(G-1. 100-b)*

**Avaz badrak** (G-2 Avazning Xunxor tomonidan atalishi 304-b)

**Avg‘on** (G-2 “Hasanxon” dostoni, joy va xalq nomi, 102-b//Afg‘oniston)

*...Urganchdan, Samarqanddan, Shoshdan,*
*Buxorodan, Avg‘ondan, Jo‘shdan,*

---

[2] Irisov A. Chahoryorlar. –Toshkent: Fan, 1993. – B.6. (chahoryorlardan birining nomi. To’liq nomi Abu Bakr as-Siddiq.)

*Chambil qarab qizilboshdan,*
*Kelar karvonlari bo'lar...*

**Adiga** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 199-b )
*...birdan bolalar "Adiga-Adiga" der erdilar, shovqun ko'tarardilar. Shundan so'ng Rahimberdijonning oti "Adiga" bo'ldi"...*

**Ajdargir** ( O-2 "Shahriyor" dostoni, kishi nomi, 348-b)
*...ondin so'ng podsho Ajdargirning qizi Guliston parini yetti kecha-kunduz to'y-tomosha qilib oldi...*

**Azbarxo'ja** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 40-b) she'riy misralarda Azbar tarzida ham qo'llanilgan.
*...Gulnihol der: yondi jonim,*
*Falak bosdi ustixonim,*
*Azbarxo'ja mehribonim,*
*Yuragimda dog'lar qoldi…*

**Azroil** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, farishta nomi, 115-b)
*...Azroil boshima kelib aziz jonim olur bo'lsa,*
*Aziz jonim yer ostig'a solg'uncha do'nmanam sandin...*

**Ayyori Munhiy** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, kishi nomi, 153-b)
*...Ushbu vaqtda Ayyori Munhiy degan hozir erdi...*

**Alakay mahram** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 237-b)
*...Ersa Alakay mahram Adigaga bir so'z aydi:*
*...Alakay der, mani aylama zabar, Man*
*bir polvon, yo'q o'zima barobar...*

**Albandjon** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 139-b)
*...aning bir o'g'li bor erdi, otig'a Albandjon der erdilar...*

**Ali**[3] (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam dostoni, kishi nomi, 101-b) payg'ambarimizning kuyovi (dostonlar tilida "Sheri xudo", "Shohimardon", "Pirim Ali" kabi nomlar bilan yuritilgan.
*...Haqning do'sti bo'lgan ul Shohimardon,*
*Abu Bakr, Siddiq, Umar ham Usmon...*

**Ali bayrami** (G-2 "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni, sayl va joy nomi 414-b //Bayramali) *...Alining bayrami degan sayl qilar edilar. Shuytib, u do'nglikning ismi Ali bayrami – Bayramali deb atalgan edi...*

**Alibek** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 86-b)
*...Aytibon o'z holini oldingda yig'lar Oyjamol,*
*Alibek otlig' guli navbahordin ayrilg'oli...*

**Alibek sotquchi** (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni,

[3] Irisov A. Chahoryorlar. –Toshkent: Fan, 1993. – B.48. (chahoryorlardan birining nomi. To'liq nomi Ali ibn Abu Tolib)

kishi nomi, 231-b) ...*Shunda Alibek sotquchi Ahmad sardorning hurmatiga otdan tushib, Ahmad sardorga qarab, ahvol so'rab, bir so'z dedi...*

**Alixon** (G-2 "Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi" dostoni, kishi nomi, 171-b)...*Xunxor Alixon degan sardorini besh ming kishiga bosh qilib, ilg'or josuslik uchun Badbaxt tog'idan avval oshirdi...*

**Alixo'ja eshon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 27-b) ...*Yusufbek Alixo'ja eshonga, Ahmadbek Shayx Sharof eshonga qo'l berdi...*

**Alg'iyos** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam", dostoni, kishi nomi, 101-b)
*...Hazrat Ali, Abbos yohud Alg'iyos,*
*O'zingsan sirdoshim yo ibn Abbos.*

**Amloq** (G-2 "Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi" dostoni, kishi nomi, 178-b) ...*Amloq degan ayyorni bu ishga boshliq qilib, Go'ro'g'lini bir balo qilib bartaraf qilasan deb tayinlab, Xunxorshoh o'z lashkarlari bilan Badbaxt tog'idan oshib qocha berdi...*

**Amud** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, dev nomi, 121-b)*...anda Hashtiruh dev boyakbor devning orqasidin havog'a chiqib, Amud urdi ikki dev urushg'a mashg'ul bo'ldi...*

**Anvarshoh** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, kishi nomi, 321-b) *...Shahri Shamshodning podshohining otig'a Anvarshoh der erdilar...*

**Andijon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 113-b)
*...Lashkarim kelar har yondin,*
*Shomi sharif, Andijondin...*
*Andijonu Marg'ilondin,*
*Qirq ming uyli Qo'qon kelur...*

**Anjum pari** (O-2 "Shahriyor" dostoni, kishi nomi, 361-b*) ...andin so'ng bu mohro'yning otini Anjum pari qo'ydilar...*

**Anqo** (G-2 "Xiromon dali" dostoni, afsonaviy qush nomi, 382-b) *...Ul tangridir jismi yo'g'u zoti bor, Anqo qushdir o'zi yo'g'u oti bor...*

**Anqos pari** (G-2 "Avaz o'g'lonning Rumga qochishi" dostoni, pari nomi, 258-b)
*...Mening ismim Anqos pari ,*

*O'zim qizlarning sarvari...*
**Arabiston** (G-1"Arab Rayhon" dostoni, joy nomi, 74-b*)...Safar ko'sani chaqirib aytdiki, ammo Safar og'a, o'tirishimiz bo'lmas, erta bilan Arabistona Rayhon Arabdan qasdi-qorimizni olisha getamiz...*
**Arab Rayxon** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 31-b) (var: Rayhon Arab) *...Shu galishda bular do'g'ri Arab Rayhonning yurtini ustinnan chiqtilar...*
**Araz** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, daryo nomi, 38-b) *...Yuragi shuv atib, u yon-bu yonni qarasa, toy Araz daryosining org'i tomonida o'tlab yuribdi...*
**Arzirum** (G-1 "Qirq minglar' dostoni, tog' nomi, 190-b)
*...Arzi Rum tog'inda savash tushganda,*
*Er yigitning yuraklari jo'shganda.*
*Qilichdan qirmizi qonlar oqqanda,*
*Muxannaslar xor-zor bo'lar sultonim...*
**Arslon** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 189-b)
*...Shoh Mahmudning Arslon degan vaziri bor erdi...*
**Arslonboy** (G-1 "Xirmondali" dostoni, kishi nomi, 273-b)
*...Uning odina deb od berar ekanlar...*
**Arg'uvon** (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni, tog' nomi, 226-b)*...Yomonjar degani Arg'uvon tog'ining yo'lida...*
**Asadalixon** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, kishi nomi, 95-b)
*...Ul shahar podshohining oti Asadalixon erkan...*
**Asil**(jon) (O-2 "Asil va Karam" dostoni, kishi nomi, 255-b. Aslida uning oti *Nargisjon bo'lib, asiljon uning yana bir nomi sifatida yuritiladi)*
*...Qarshim olib turgan yoqa dugmali,*
*Yubor kelsin tarlonimni Asil yor...*
**Asom** (G-2 "Hasanxon" dostoni, kishi nomi, 92-b)
*...Men eshitdim Shodmon, Asom ketibdi,*
*U hikmatli yoyga talab etibdi...*
**Aspi Jahongir** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, ot nomi, 401-b)
*...Otim mani Aspi Jahon,*
*Ustima minding bu zamon,*
*Tobe bo'ldi bu diri jon,*
*Qo'rqmqy mqni nechuk minding...*
**Asqar Mahmud** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 18-b)
*Sizlar emish Hakim ota bulbuli,*

*Asqar Mahmud, Sulton Xubbi, Ervali...*

**Asqartog‘** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, tog‘ nomi, 18-b) *...Necha manzil shabgir tortib, yo‘l yurib, Asqar tog‘ning bag‘riga yetishdi...*

**Aflotun** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 70-b. bu yerda podsho ma’nosida)

*...Man munda yakkalik jabrini chekdim,*
*Aflotun podshoha mangzar navkarim...*

**Afrosiyob** (O-4 “Xirmondali” dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 145-b) *...Qoraxonning lashkari birla andog‘ urushdilarkim, Rustam Mozandaronda, Afrosiyob daryoi Nil va Zarafshonda andog‘ urush qilg‘on ermaslar...*

**Ashurbek** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 13-b) *...Yusufbek qirq yigitni yonina saylab olib, alarga Ashurbek degan yigitni bosh etib, dushman birla g‘azab qilur erdilar...*

**Ashur mirshab** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, kishi nomi, 257-b*)...Ashur mirshab hamma gapni biladi, Borsang, besh olti kun mehmon qiladi...*

**Ayub//Ayyub** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, payg‘ambar nomi, 100-b)

*...Zindonda bo‘libdur xo‘blar bila xo‘b,*
*Haqning balosiga sabr etgan Ayub...*

**Aqcha** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi laqabi, 26-b//var: *Aqja, Oqcha; asl ismi Gulnihol) ...Shohsanamning Gulnihol degan bir kanizi bor erdi.Laqabini Aqcha der edilar...*

**Ahmadbek** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi, 16-b) *...Ahmadbek qo‘rqqanidan rozi bo‘lib, turkman yurtiga sardor etib tayinlandi...*

**Ahmad Mirzo** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 11-b)

*...Bobo vazir, sening o‘g‘ling,*
*Oti Ahmad Mirzo bo‘lsin,*
*To‘kilsin dol gardaniga,*
*Kokillari barno bo‘lsin...*

**Ahmad sardor** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi 221-b*)...Shunda Ahmad sardor soqolini tarab, mo‘ylovini burab, Go‘ro‘g‘li sultonga qarab, barcha oqsoqol va beklarning tilidan...aytdi...*



**Ahriman** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, yovuzlik ramzi bo‘lgan dev nomi, 37-b. Mazkur nom “Avesto”da ham mavjud)

*...Ovchilar qasdi gul ovi,*
*Yonidadir chaqmoq qovi,*
*Tiru kamand alar dovi,*
*Ko'ngulga Ahriman keldi...*

**Badaxshon** (G-2 "Bozirgon" dostoni, joy nomi, 392-b)

*...o'ris yurtlarigacha borib, qaytishida Urganch, Buxoro, Samarqand, Toshkentlar bilan aylanib, Balx-u Badaxshon, Xunxor shaharlaridan o'tib, qaytib Zobilistonga yetibdi..., yoki: (O-3 "Layli va Majnun" dostoni, 228-bet)*

*...ul Eramning bog'ida bo'stondin ayrilmisham, Ham Badaxshon la'li guhar kondin ayrilmisham.*

**Badbaxt** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, cho'l va tog' nomi 18-b)

*...Badbaxtning tog'lari baland qiyama,*
*O'laman deb mard so'zidan toyama...*

**Badnoh** (**Badgoh**) ( O-2 "Xiromon pari" dostoni, cho'l nomi, 329-331 b)

*...jonbozi tevaning ustiga minib, Badgoh cho'lidin chiqib badar qochdi...(331-b); ...Munavvarjon qalandar bo'lib, Badnoh cho'linda o'n to'rt kun yo'l yurdi...(329-b)*

**Badiuljamol** (G-2 "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni, pari nomi, 423-b)

*...Oynayi jahon shu Badiuljamol parining qizi Malikayi Qa'riya parining qo'lida edi...*

**Badrustam** (G-1 "Arab tang'an" dostoni, kishi nomi 149-b)

*...Shunda Badrustam degani aytti: bizlardi qo'zg'oljak yerimiz yo'q, sen ketaber...*

**Bayramali** (G-2 "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni, joy nomi, 414-b)

*...Alining bayrami degan sayl qilar edilar. Shuytib, u do'nglikning ismi Ali bayrami – Bayramali deb atalgan edi...*

**Bakr** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, joy nomi, 26-b// var: Bakr Diyor 80-b, Diyorbakr 12-b) ...Alqissa G'arib viloyati Bakrga keldi...26-b.

*...G'arib aytur: suymam o'zga nigorni,*
*Yetti yil tark ettim Bakr Diyorni...(80-b)*

**Balo** (G-2 "Balogardon" dostoni, dev nomi, 273-b. var://Balodev)

*...Aslim so'rsang Ko'hi Qofdan kelaman,*
*Chambilga atalgan Balo bo'laman...*

**Balogardon** (G-2 doston va kishi nomi, Avazning bir nomi; 269, 273-b)
*G'ayratim mavj urib, toshib-to'laman,*
*Balo yegich Balogardon bo'laman... 273-b*
**Balotov** (G-2 "Nuralining yoshligi" dostoni, tog' nomi, 297-b)
*...Jonvor G'irko'k Balotovga yo'l tortdi,*
*Shodmonning bul ishdan kulfati ortdi...*
**Balx** (G-2 "Sarvinoz" dostoni, joy nomi, 189-b)
*...Asli Toshkentlikman, Balx shahriga kelib sindim...*
**Barlos** (G-2 "Sarvinoz" dostoni, urug' nomi, 189-b)
*...sen bizga toza og'ayni chiqib qolding, Barlos nima, Jaloyir nima, Lochin nima – baribir...*
**Basra** (G-1 "Qirq minglar" dostoni, joy nomi, 165-b)
*...Otlaning, beklarim, sardan kechaylik,*
*Ham Bag'doddan, ham Basradan kelgan bor...*
**Basrashoh** (G-1 "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni, kishi nomi, 450-b)
*...Oxir nafasingda Basra shoh kabi,*
*Shayton iymoningni olsa naylarsan?*
**Bastom** (G-1 "Xirmondali" dostoni, joy nomi, 278-b)
*...Bu so'zni eshitib, Og'a Yunus pari aytdiki, ey Go'ro'g'li sardor, sanga bir nasihatim bor, avval san o'zingni 40 gun boqqiga qo'y, so'ng Bastom yurtiga bor...*
**Bag'dod** (G-1 "Qirq minglar" dostoni, joy nomi, 165-b)
*...Otlaning, beklarim, sardan kechaylik,*
*Ham Bag'doddan, ham Basradan kelgan bor...*
**Bahovuddin** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, pir, avliyo shaxs nomi, 172-b)
*...Abu Bakr, Siddiq ul Umar, Usmon,*
*Bahovuddin sarmast buzurg ko'rindi...172-b;*
*Bahovuddin mehri kulol,*
*Sheri darg'a yo'ldoshimdur...(183-b)*
**Bahrom** (G-2 "Sumbulsoch beka" dostoni, yulduz nomi, kosmonim. 321-b)
*...Malikam oftobga mengzay o'zingni,*
*Yolg'on emas, Bahrom desam ko'zingni...*
**Bahrom**(vazir) (G-1 "Avaz uylangan" dostoni, kishi nomi, talmeh emas 100-b) *...Bahromin, vazirin, begu xonini,*
*Birin qo'ymay, barin olib keltiring ...*
**Bibijon** (G-1 "Arab Rayhon" dostoni, kishi nomi, 80-b)
*...Maslahatim shuki, buni yakka-yagona go'zal qizi bor, odina Bibijon dab od baradilar...*

**Bibizahro** ( O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 119-b)

*...Ko‘zim jodu, husnim ra’no,*
*So‘rsang odim Bibizahro...*

**Bibi Maryam** (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, ayol nomi, Isoning onasi 360-b)

*...O‘rislarning e’tiqodicha, go‘yo shu vaqtlari Maryam tog‘iga hazrati Bibi Maryam kelib yuradi...*

**Bibiniyoz** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 93-b) var://Niyoz; *Bibiniyoz degan bir ayol asir bo‘lub, Urganch yurtidin Misr yurtig‘a tushib erdi...*

**Bibi Oysha** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi,189-b )

*...Kelib qo‘lim oling yo Bibi Hadicha,*
*Yo Fotima-Zuhra, yo Bibi Oysha...*

**Bibitarlixon** (var: Tarlixon, Tarli; O-2 “Oshiq Alband” dostoni, pari nomi, 139-b) *...bu bog‘ Bibitarlixon parining bog‘i erdi...(139-b); ...Tarlixon der: yorim yo‘ymag‘il mannan, Olloh omonatin olmog‘il mannan...(143-b)*

**Bibi Hadicha** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 189-b )

*...Kelib qo‘lim oling yo Bibi Hadicha,*
*Yo Fotima-Zuhra, yo Bibi Oysha...*

**Bilol** (G-1 “Xirmondali” dostoni, kishi nomi, 296-b. var: Hazrat Bilol. Dostonlarda farishta sifatida ham tilga olinadi)

*...Haq yo‘l barsa bayon etay iqboling,*
*So‘nggi galgan hazrat Bilol bo‘ladi...*

**Bilol** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 183-b; birinchi bo‘lib Muhammad s.a.v.ga ergashgan kishi; habash, birinchi bo‘lib azon aytgan kishi)

*...Avval azon aytgan Bilol,*
*Haqning o‘zinda ixtiyor...*

**Bitta-Bitta** (G-2 “SHoqalandar” dostoni, kishi nomi, 339-b)

*...Go‘ro‘g‘li sulton bu kelgan yigitlardan ahvol so‘rasa, sochi o‘sib qoshiga tushgani jinnitob Bitta-Bitta degan o‘ris ekan...*

**Bobobek** ( O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 10-b) var: Bobo vazir; *...Isfahon shahrinda Bo‘zo‘g‘lon degan bir podshoh bor erdi. Aning Og‘abek va Bobobek degan ikki sarkardasi bor erdi...*
*...Bobo vazir, sening o‘g‘ling, Oti Ahmad Mirzo bo‘lsin...11-b*

**Boboniyoz** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 80-b)

*...Boboniyoz degan bir shotir bor erdi. Ul ham Bog‘doddin Halabga kelib erdi...*

**Boboxon** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi 79-b)

*...Bir kun karvon yo‘liqdi, karvonning ichinda Boboxon degan Shohsanamning shotiri bor erdi...*

**Bobo Qalandar** (G-2 “Hasanxon” dostoni, kishi nomi 338-b)*...Nishopurga shu bugunoq yetib borsin deb, Bobo Qalandardan o‘rgangan bir a’molini ishlatib Go‘ro‘g‘li sulton borayotgan yo‘lning tanobini tortib...Chambilga qaytib ketdi...*

**Bozirgon** (G-1 “Bozirgon” dostoni, kishi nomi, 354-b) *...Ammo Seiston viloyatinda Salsolni o‘g‘li Bozirgon dagan do‘rapdi...*

**Bol Avaz** (G-2 “Zulfizar” dostoni, kishi nomi, 204-b. Avazning yana bir nomi)*...Shunda Bol Avaz G‘irko‘kning tablaxonasiga kirdi...*

**Bolibek** (G-1 “Kampir” dostoni, kishi nomi, 209-b) ...Nishopurning Bolibek dagan podshosi bor adi...*(Mazkur nom O-4 126- betda boshqa shaxs nomi sifatida keltiriladi:...Go‘ro‘g‘libekning qahri kelib, darg‘azab bo‘lub, Olibek, Bolibek, Sarsangbek, Safar ko‘sa va qirq yigitini yonig‘a olib keta berdi...)*

**Boli Hisor** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, tog‘ nomi, 69-b) *...besh oy deganda Boli Hisor tog‘iga chiqdilar...*

**Boloyim** (G-2 “Avazxon” dostoni, kishi nomi 130-b)*...yarmini bozorlik deb Guloyimga, yana bir yarmini kiyim-kechaklik deb Boloyimga ber...*

**Bolomon** (O-3“Yusuf va Ahmad” dostoni, tog‘ nomi, 41-b//Polomon) *...Bu so‘zni aytib borur erdilar, Bolomon tog‘i elas-elas bo‘lub ko‘runa berdi...; ...o‘n kun deganda Polomon tog‘iga chiqdilar...122-b*

**Bolqon** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, joy nomi, 175-b)
*...Ot solib kezgan har yonda*
*Iroqda, Shomda, Bolqonda...*
*(Mazkur nom O-4 68-betda ham qo‘llangan:*
*...Bir o‘ti o‘tibon shahri Yamang‘a,*
*Birisi boribon Bolqona chopdi...)*

**Bonu**(**kaniz**) (O-2 “Xiromon pari” dostoni, kishi nomi, 318-b*)...Ammo qizlarning ichinda ikki kaniz bor erdi, birining oti Bonu, yana birining oti Lizon erdi...*
*(O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, 21-b)* ...Ammo Bonu degan bir kaniz bor erdi...

**Botipon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, ot nomi, 31-b. Aslida “bodpo”

forsiy birikmasidan hosil qilingan bo‘lishi mumkin) *...Go‘zalshoh saroyinda bir oylik yo‘lni uch kunda oladigan Botipon degan bir bedov ot bor erdi...*

**Botirzoda** (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, kishi nomi, Sangsor boboning Go‘ro‘g‘liga qo‘ygan oti 106-b) *...Sangsor bobo: Botirzoda, bu qayerdan bo‘lasiz, Chordog‘li Chandibel viloyatinnan dedi Go‘ro‘g‘li...*

**Boyazid** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, kishi nomi, 187-b. //Sulton Boyazid) *...Ey do‘stim sen meni toza sulton Boyazidday avliyo qilib yubordingku...*

**Bulbuligo‘yo** (O-2 “Shahriyor” dostoni, qush nomi, 368-b. Dostonda pari qiyofasiga ham kiradi)*...momo aydi, Bulbuligo‘yo degan bir qush bor...*

**Buldur qassob** (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, kishi nomi, 112-b. Avazning haqiqiy otasi)*...Yusuf shohning yurtinnan Buldur qassobning o‘g‘li Avazxonni keltirganman… (G-2 turkumida “Bulduruq qassob” deb yuritiladi, 122-b)*

**Bulg‘or** (G-2 “Hasanxon” dostoni, joy nomi, 102-b)

*Bulg‘or, O‘ris, No‘g‘aylikdan,*
*Mang‘ishlovlik, Saroyliqdan,*
*Uch oylik yo‘l Oltoylikdan,*
*Kelgan odamlari bo‘lar...*

**Burgut sulton** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 158-b)

*...Po‘li qozoqning sultoni,*
*Burgut sulton hotam kelsun...*

**Buroq** (G-2 “Rayhon arab” dostoni, afsonaviy ot nomi, 63-b. Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. merojga minib chiqqan uchar ot)

*...Arabning otidir chaqmoqday ildam,*
*Qochsa qutulolmas hatto Buroq ham...*

**Butal** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi, 55-b)*...Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal,ey, qaysi birini aytay, bari zo‘r birday...*

**Buxor** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, joy nomi, 114-b // var: Buxoro (G-2 *“Hasanxon” dostoni, joy nomi 102-b)*

*...Bahovaddin balogardon,*
*Dini islom Buxor kelur...*

**Bek Go'ro'g'li** (G-1 "Arab Rayhon" dostoni, kishi nomi 98-b // Go'ro'g'li)
*...Bek Go'ro'g'li orin oldi,*
*G'anim ko'nglina dog' soldi,...*

**Bekpo'lat posho** (G-2 "Avaz o'g'lonning Rumga qochishi" dostoni, kishi nomi, 266-b*) Go'ro'g'lining ko'zini bir ochirib qo'yay, deb Bekpo'lat poshoga bir lak qo'shin berib,Avaz o'g'longa qo'shib Chambilga jo'natdi...*

**Bek Ravshan** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 17-b)
*...Eshitmaydi bular qilgan zorimni,*
*Bek Ravshan der yetirmisham korimni…*

**Bektosh arab** (G-2 "Avazxon" dostoni, kishi nomi, 135-b)
*...Shuytib, Bektosh arab Harishohning qizi Gulqizoyga uylanib, vazirlik qilib yurgan...*

**Bektosh vazir** ( G-2 "Gulqizoy" dostoni, kishi nomi, 149-b)
*...o'z yo'liga ketmoqchi bo'lib turganida, Bektosh vazir ... Go'ro'g'li sulton bilan ko'rishibdi...*

**Besutun** (**Behistun**) (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, tog' nomi, 41-b. Talmeh*)...Besutun tog'ini ming qazdi Farhod,*
*Shirin go'rsin Farhod tomoshosini...*
**Besha** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, tog' nomi 127-b)
*...kunlardan bir kun Besha tog'iga bordilar.*
**Behro** (O-1 "Edigo" dostoni, joy nomi, 170-b*)... Behro,Chinmochin, Xitoy-Xo'tandin boj olur erdi...*
**Bo'zdumon** (G-1 "Arab tang'an" dostoni, ot nomi, 149-b*)*
*...Bularning barini Safar og'a Bo'zdumona yuklab, Avazjona ayttiki, sen ketaber, Bo'zdumonning tuyog'i irkilib qizadi...*
**Bo'zo'g'lon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 10-b)
*...rivoyat qilurlarkim, Isfahon shahrinda Bo'zo'g'lon degan bir podshoh bor erdi...*
**Bo'ston** (G-1 "Avazxon" dostoni, kishi nomi, 429-b)
*...Yoxti jahon manga zindon,*
*Baxti qaro-otim Bo'ston*
**Vayongon** (G-1 "Avaz uylangan" dostoni, joy nomi, 112-b*)…takali turkman*

*elinda, Vayongondan, Yusufshohning yurtinnan Buldur qassobning o'g'li Avazxonni keltirganman...*

**Vazir** (O-4 "Oshiq G'arib va Hilola pari" dostoni, kitobiy variant. joy nomi, 69-b,) ...*Bir yoni Gurlan, Vazir, Urganch-u Xivani kezib,*
*Chorjo'y ham Qorako'l, shahri Buxoroni kezib...*

**Vais(jon)** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, kishi nomi, 213-b //Vaisyoz) *...yigitlarning orasinda bir Vaisjon degan jo'rasi bor erdi...*

**Vais Sulton** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, kishi nomi, 237-b) ...*Ey podshohi olam, Vais Sultoni bokaram, muning dodig'a yetmak kerakdur ...*

**Vali do'nik** (G-1 "Go'ro'g'lining Darbandga ketishi" dostoni, kishi nomi, 438-b)...*Safar ko'sa boshchi bo'lib, Vali do'nik, Seytak qirqma yigitlarding yarmisini olib bir yoqqa chiqdi...*

**Vafobek** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 135-b) *...Anda ul yigit aydi: "Maning otim Vafobek turur"...*

**Vahshat** (O-1 "Malikai Zavriyo" dostoni, joy nomi, 292-b) *...bir oylik yo'lni 14 kunda o'tib, Vahshat degan bir maydona yaqin bordilar...*

**Vomiq** (G-2 "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni, kishi nomi, talmeh, 411-b)
*...Oxirida hijron bag'rim qoralab,*
*Vomiq ham Uzrodan ayrilmadimu?*

**Voysulqora** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, avliyo shaxs nomi, 172-b, 203-b; G-2 191-b// var: Sulton Uvays//Sulton Vayis; to'liq nomi Sulton Uvays *Qoraynin, uning ustozi Norimjonbobo)*
*...O'ng yonimda turdi ulVaysulqora,*
*Kuloh kiygan ul Norimjon ko'rindi... (172-b)*
*...Uch yuz oltmish avliyolarning manzili,*
*Sulton Uvays birla Norimjon vali...(203-b)*

**Vohidul Qahhor** (O-1 "Malikai Zavriyo" dostoni, olloh sifati, 266-b)
*...Shohi Qaytus bo'l xaridor,*
*Do'zaxa bo'lma sazovor,*
*Qahr etar Vohidul Qahhor,*
*Bir parining hayrodidur...*

**Gajdumbek** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 16-b) *...Gajdumbek bilan Hasanbekni ozod qilib, yurtidagi bir to'da ozod qilingan turkmanlarga Gajdumbekni boshliq qildi...*

**Gambik cho'pon** (G-2 "Avazxon" dostoni, kishi nomi 124-b)
*Gambik cho'pon: "Bu chakmanni bilasanmi yigirma ikki tangaga olganman, senga berib bo'pman bu chakmanni...", – dedi...*

**Ganja** (O-2 "Asil va Karam" dostoni, kishi nomi, 261-b, Karamga nisbatan ishlatiladi)

*...Yig'lama jon qizim, fig'on aylama,*
*Ziyod o'g'li Ganjasini ustina...*

**Ganjimbek** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 17-b Jig'olibekning to'ng'ich o'g'li) *...Ulli o'g'lini Ganjimbek, o'rtanjisini Mo'minbek, kichkinasini Odibek dab od beraduvin adilar...*

**Ganji Qorabog'** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, joy nomi, 139-b; G-2 339-b) *...rivoyat qilurlarkim, Ganji Qorabog'da bir podsho bor erdi. Otig'a Shamsiqamar podsho der erdilar...*

**Gardiston** (G-2 "Yosqila" dostoni, joy nomi, 366-b) *...G'irko'k bilan Gardistonning nargi yog'idagi tog'ning oshuviga, ya'ni u arabning bergi chetiga borib tush...*

**Garmali** (G-2 "Yunus bilan Misqol" dostoni, urug' nomi, 78-b) *...Do'rman, Jaloyir, Garmali va Sarilashib ketgan taka urug'larining yig'indisi edi...*

**Garmiyon** (O-4 "Avazning keltirilishi" dostoni, kitobiy variant, joy nomi, 292-b) *...Go'ro'g'libek bir necha muddat yo'l yurib, Garmiyon shahrining maydonig'a bordi...*

**Govdaroz dev** (G-2 "Govdaroz dev" dostoni, dev nomi, 159-, 160-b) *Yarim odam, yarim dev (otasi dev – onasi odam) ...Ana shu dev bilan novcha qizdan Govdaroz dev tug'ildi...*

**Gul** (O-3 "Gul va Sanobar" dostoni, kishi nomi, 233-b)
*...Farrux shohni qizi, otimiz Guldir,*
*G'aming birla shaydo bo'lg'on bulbuldur...*

**Gulandom** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 31-b)
*...Arzimni eshitgil, arabning shohi,*
*Gulandomdek sevar yorni ko'rmadim...*

**Gulanor** (G-2 "Oygulqizning vafoti" dostoni, kishi nomi, 286-b)
*...Oygulqiz Nuralidan so'ng Gulanorni tuqqan edi...*

**Gulasal pari** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi 23-b)
*...Eralixonning bir qizi bor erdi, otig'a Gulasal pari der erdilar...*

**Guldona** (G-2 "Qirq yigit bilan qirq qiz" dostoni, kishi nomi, 110-b)

*...qirq qiz ham aslahalarini kiya berdi. Kattasining oti Guldona, undan keyingisining oti Xoldona, undan keyingisining oti Tursuntosh, undan keyingisining oti Yalpoqbosh, kichkinasining oti Qalamqosh edi.*

**Guljamila** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, kishi nomi, 107-b)
*...kichik zaifasidin bo'lg'on o'g'ilning otini Hamro qo'ydilar va qizining otini Guljamila qo'ydilar...*

**Guljamol** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 22-b. Bu nom Go'ro'g'li turkum dostonlarida ham qo'llanilgan)
*...Bir yor uchun ko'p xunoba yutarsan,*
*Endi mani – Guljamolni netarsan...*

**Guljamol** (G-2 "Sumbulsoch beka" dostoni, kishi nomi, 316-b) *...Maston kampir ichida Guljamolni shu yigitga berib, kuchkuyov qilib olsam...*

**Guljahon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 75-b)*...Endi xabarn*i *Hamza qizilboshdin oling, ul Guljahon degan xotini birla o'turub erdi...*

**Guljon** (G-1 "Avazxon" dostoni, kishi nomi, 423-b)
*...Bir mardning qizimiz, odimiz Guljon,*
*Tongla o'lar qirq yigit va Avazxon...*

**Gulzor**(kaniz) (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 194-b)
*...So'najonning Gulzor degan bir kanizi bor erdi...*

**Guliasror** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 152-b//Gulijon 170-b)
*...bu so'zlar bu yerda tursin, so'zni Guliasrordan eshiting...(152-b)*
*...Ketsang, Ollo yoring, xo'sh ey Gulijon,*
*Biza bu qismatlar Ollodin bo'ldi...(170-b)*

**Gulisurx** (G-2 "Govdaroz dev" dostoni, sayl nomi, 167-b) *...Xo'jatog'nin*g *boshida katta qozonlarda osh qaynatib, Gulisurx sayrini qildirib...*

**Gulixiromon** (G-1 "Xirmondali" dostoni, kishi nomi, 273-b)
*...Odini Gulixiromon deb qo'yg'an...*

**Gulnahor** (O-4 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, og'zaki variant, kishi nomi, 17-b) *...G'aribjonning bog'bona yetim bo'lib yurganini bilib, Aqcha Gulnahorni chaqirib, besh kalima so'z aytar bo'ldi...*

**Gulnihol** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi 26-b.

Turkmancha variantda “Gulnahal”, laqabi – Aqcha (Aqja, Oqcha kabi variantlari ham uchraydi)
*...Shohsanamning Gulnihol degan bir kanizi bor erdi. Laqabini Aqcha derlar...*

**Gulnozoy** (Gulnoz) (G-2 “Gulqizoy” dostoni, kishi nomi, 135-b)
*...Harishohning Gulqiz degan bir sohibjamol, o‘zi barkamol qizi bor erdi...*

**Guloyim** (G-2 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 123-b)
*...bir sabab bilan Guloyim degan qiz shu Bulduruq qassobga tushgan...*

**Gulsavson** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, pari nomi, 175-b.//Savson pari. Halifai Jahongirning qizi, ham inson ham pari xususiyatlarga ega)
*...Gulsavson der: bizni aylading hayron,*
*Buzilg‘on ko‘nglimni san etding vayron...*

**Gulsarvi** (O-1“Edigo” dostoni, kishi nomi, 243-b)
*...ey kanizaklar, bu na g‘avg‘o turur, deb, Gulsarvi degan bir kanizakning bu ishlardan xabari bor erdi...*

**Gulsutun** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, joy nomi, oykonim, 275-b)
*...Bu qal’a otina Gulsutun derlar,*
*Sochinglar ko‘shkina mushki anbarlar...*

**Gulsutun** (O-2 “Shahriyor” dostoni, kishi nomi, 343-b.// Gulsutli)
*...ul qizlarning biriga Gulsutun pari, yana biriga Gulchehra pari va yana biriga Guliston pari der erdilar...*

**Gulrux** (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, kishi nomi, 99,101-b.// Gulruxpari, Gulruxsor, Gulruxjon)
*...Lahkashoh shikordan qaytib kelsa, Gulruxsor pari yo‘q…uning qizi Gulruxjonni Go‘ro‘g‘li qancha miynat bilan, qancha ayyorlik bilan, qancha josuslik bilan olib qochib ketdi...*
*...Gulruxparining Sangsor bobo degan darvozabon qorovuli bor edi...*
*...O‘rdasinnan Gulrux otli qizini,*
*To‘ylar, tomosholar qilib keltiring...*

**Gulchaman** (O-4 “Oshiq Najab” dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 95-b)
*...Shunda Muloyimxon Gulchaman degan cho‘risini og‘asidan xabarlashishg‘a yubardi...*

**Gulchehra** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 147-b)...shunda *Bibitarlixon chakkasidagi gulni olib Gulchehra degan kanizga berdi…*

**Gulshan** (G-1 “Xirmondali” dostoni, kishi nomi, 310-b) ...usta Bodomning *Gulshan dagan qizi bilan yana ikki semiz qiz bog‘ saylina galavardi...*

**Gulshirin** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, kishi nomi, 143-b)
*...Og‘a Yunus: hey Gulshirin, tur chirog‘im, dedi...*

**Gulsho** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, kishi nomi, 411-b)
*...Lubnon degan tog‘da uy ro‘zg‘or qilib,*
*Varqa ham Gulshodan ayrilmadimu?*

**Gulshod** (O-4 “Avaz gatirgan” dostoni, og‘zaki variant, kishi nomi, 244-b) (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, kishi nomi, 411-b)
*...Layli deyib Majnun cho‘llarni kezdi,*
*Shirin deyib Farhod tog‘larni qazdi,*
*Zuhrajon Tohirdan umidin uzdi,*
*Varqa Gulshodidin ayrilmadimu...*

**Gulqand** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi 210-b); (Gulqandga yana Sayod ham aytilgan 235-b)
*...Miskin Sharif sig‘inurman Mavlona,*
*Ro‘zi qilsa Gulqandjona ketarsan...*

**Gulqiz**(oy) (G-2 “Gulqizoy” dostoni, kishi nomi, 144-b)
*...O‘zing ko‘rgan Bektosh arab xotini,*
*Gulnoz bo‘lar shu Gulqizning opasi...*

**Gulhadicha** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi 27-b)
*...Andin so‘ng Nodirshohning Gulhadicha degan bir qizi bor erdi, oni Ahmadbekka odog‘li qildilar...*

**Gumbazi uzro** (O-4 “Xirmondali” dostoni, og‘zaki variant, joy nomi, 264-b)
*...Kunlardan bir kun o‘g‘il talabiga tushub, Gumbazi uzro degan yerga borib, xudodan o‘g‘il tilab yotdi...*

**Gurgon** (G-2 “Rayhon arab” dostoni, daryo nomi, 71-b)
*...Ungacha Go‘ro‘g‘libek Gurgon daryosigacha yetay deb qolgan edi...*
*(O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, daryo nomi, 130-b)*
*...Har darasining bir bulog‘i bor erdi, hammmasining etagi jam bo‘lub qo‘shilur erdi, Gurgon degan daryo bo‘lub ketur erdi...*

**Gurjiston** (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, joy nomi, 100-b)
*...Avazxon uchun Gurjiston viloyatindagi Lahkashohning qizidan munosibi yo‘qtur...*
**Gurlan** (O-4 “Oshiq G‘arib va Hilola pari” dostoni, joy nomi, 69-b)
*...Bir yoni Gurlan, Vazir, Urganchu Xivani kezib,*
*Chorjo‘y ham Qorako‘l, shahri Buxoroni kezib...*
**Go‘zalshoh** (G-1 “Bozirgon” dostoni, kishi nomi, 354-b)...
*Go‘ro‘g‘li Avazni ustinda Xunxorshohni dog‘itg‘on voqtinda uning ta’riflari Isfahon shahrindagi Go‘zalshoh dagan podshog‘a tushganadi...*
**Go‘ro‘g‘li** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi, 17- va boshqa betlar//Ko‘ro‘g‘li//Go‘ro‘g‘libek//Go‘ro‘g‘li sulton)
*...Go‘ro‘g‘lining bunyod bo‘lib, dunyo yuzini go‘rish tarixi shundan iborat...*
**Davlat** (G-2 “Zulfizar” dostoni, kishi nomi, 212-b)
*...Bandilarning ichida Davlat degan bir yigit bor...*
**Davron** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi 243-b) *...Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G‘avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo‘shtemir, Toshtemir degan yel o‘pka, tentak olishtoblari bor edi...*
**Dayrobod** (G-2 “Yunus bilan Misqol pari” dostoni, daryo nomi 80-b. *Bizningcha, aslida Daryoobod bo‘lishi k-k) ...oxiri Dayrobodga enib, Dayrobod suvini yoqalab ...shu so‘zlarni aytib ketayapti...*
**Dali matal** (G-1 “Qirq  minglar” dostoni, kishi nomi, 165-b. 40 yigitning biri)
*... Dali Matal bilmas lashkar sonini,*
*Asirga oldilar Avazxoningni...*
**Dali mehtar** (G-1 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 414-b.
Og‘zaki variantlarda “Dali matal” tarzida uchraydi.
*...Toymos begim balli Rustam bo‘lmadi,*
*Dali Mehtar, Hamdam vazir kelmadi…*
**Dali Xiromon** (G-1 “Xirmondali” dostoni, kishi nomi, 273-b.//Xirmondali //Dalixirmon//Xiromon pari)
*...Ular aytdilarki, ho‘, Dalixiromon, bizlarning qurramizga yigit tushmadi, bir qurrado‘z kampir tushdi...*
**Dalliboy** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi, 55-b) *...Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal,ey, qaysi birini aytay, bari zo‘r birday...*

**Darband** ( G-1 “Bozirgon” dostoni, joy nomi, 357-b. Ozabayjondagi joy nomi bo‘lishi kerak)

*...Sardor bo‘lib yo‘l boshladim,*
*Darbanddan ilg‘or toshladim,*
*Mindim arab ot ushladim,*
*Surdim armonim qolmadi...*

**Daryoyi sho‘r** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, daryo nomi 261-b) *...Bu Daryoi Sho‘rning bo‘lak bir shoxobchasi edi...*

**Darg‘on** (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 36-b)

*...Kimsalar podsho, kimsalar vazir,*
*Ayo bobo Darg‘on, yo Shayxi Kabir...*

**Dastagul** (O-4 “Oshiq G‘arib va Hilola pari” dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 47-b) *Hilola parining bir kanizi bor erdi, ziyoda suxanvar erdi.Otig‘a Dastagul der erdilar...*

**Daqqiyunus** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi nomi, 343-b. *Daqqiyunusning eski, qadimiy degan ma’nosi ham mavjud)* *...Daqqiyunusdan qolgan daqqi kampir G‘irko‘kning avzoyini ko‘rib, ko‘p shumlikni o‘ylab...*

**Dildam** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, ariq nomi, gidronim, 67-b) *...viloyatning o‘rtasinda Dildam degan katta bir arig‘ bor erdi...*

**Diyorbakir** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, joy nomi, 12-b. //var:Bakr 26-b, Bakr Diyor 80-b. Aslida bu nom tarkibidagi “Bakr” qismi atoqli ot bo‘lib, old qismdagi “diyor” komponenti nom tarkibiga singishib ketgan)

*...rivoyat qilurlarkim Diyorbakr degan bir viloyat bor erdi...*

**Dilorom** (G-1 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 428-b) ...Xunxorshohning *ikki qizi bor, biriga Dilorom ikkinchisiga Sarvijon deb ot berdilar...*

**Dilkusho** (O-1“Royi Chin” dostoni, ko‘shk nomi, oykonim, 149-b)

*...Qa’riya aydi: “Otam mango bog‘i maydon tarafda ko‘shki Dilkusho bino qilsun...”*

**Dovud** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, payg‘ambar nomi, 132-b)

*... Nomdor Dovud sozi bilan,*
*Qirq besh baxshi o‘g‘lon yursin...*

**Donoguloy** (G-2 kishi nomi, 257-b. //var: Donogul 252-b, Dono 254-b)

*...ichkariga kirib, xotini Donogulga qarab, uyga mehmon keldi, deb shu so'zni aytdi...*

**Dorobshoh** (O-2 "Shahriyor" dostoni, kishi nomi, 343-b) *...bir podshoh bor erdi.Otig'a Dorobshoh der erdilar.*

**Doro** (G-1 "Bozirgon" dostoni, tarixiy shaxs nomi, 384-b)
*...Oysulton aytadur bebaqo dunyo,*
*Qani mashhur bo'lgan Iskandar, Doro?..*

**Dog'iston** (G-2 "Zulfizar" dostoni, joy nomi, 202-b) *...Chambilda Go'ro'g'li sultonning ovozasi olamga ketgan, dong'i Dog'istonga yetgan...*

**Devsafid** (G-2 "Sumbulsoch beka" dostoni, dev nomi, 314-b) ...U rabot *Devsafidning makoni edi, o'zi Sumbulsoch bekaga oshiq edi...*

**Do'rmon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 158-b)
*...Xabar bersa bukun mundin,*
*Lashkar kelur shahri Do'rmon...*
*(G-2 "Yunus bilan Misqol pari" dostoni, urug' nomi 78-b)*
*...Do'rman, Jaloyir, Garmali va Sarilashib ketgan taka urug'larining yig'indisi edi...*

**Do'saman** (G-2 "Avazxon" dostoni, kishi nomi, 139-b) ...Bektosh arab *pastki qo'rg'onga tushganda, Do'saman kelib qolib, Avazxonni so'rabdi...*

**Yo'mit** //Yovmit// Yovmut (G-1 "Go'ro'g'lining uylanishi" dostoni, 42-b. G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, urug' nomi 16-b)
*Go'ro'g'libek qurdi suhbat-sozlari*
*qo'linda g'arqildar o'rdak-g'ozlari*
*To'yga kelgan taka, yo'mit qizlari*
*Muborak ayanglar nozlim to'yini...*

**Yozim barzangi** (G-1 "Safar mahram" dostoni, kishi nomi, 337-b) *...Yozim barzangi dagan bir pahlavon, qizni san qochirding, dab usta Bodomni bandi qilibdi...*

**Yomonjar** (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni, joy nomi, 225-b) *...qirq yigitlarga qarab, bo'lmasa, Yomonjarga yuringlar, – deb bir necha joydan timsol keltirib, shu so'zni aytdi...*

**Yomongʻishlov** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, joy nomi, 54-b. Mazkur nom tarkibidagi “yo” qismi balki, bogʻlovchidir. Unda joy nomi Mangʻishlov boʻlib chiqadi. Ammo nashrda “Yomongʻishlov” tarzida berilgan)

*...Oshibdirsan Xoʻjatovning belidan,*
*Keldingmi Yomongʻishlovning elidan...*

**Yortiboy** (G-2 “Gulqizoy” dostoni, kishi nomi, 144-b)

*...Ogʻa Yunus pari Goʻroʻgʻli sultonga qarab: “Tunov kuni Yortiboy oqsoqolning gapini eshitdingmi?”...*

**Yosqila** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi va doston nomi, 345-b)

*...ikki kuyovi, ikki qizi, oʻgʻli Navozishali ham Yosqila bilan olti eshak, bir otli boʻlib, Marvga qarab koʻchib ketdi...*

**Yoqub alayhissalom** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, paygʻambar nomi 221-b, var: “Ya’qub” 100-b)

...Yoqub alayhissalom aydi: andogʻ boʻlsa yoʻling boʻlsin...

**Jabbor** (G-2, 302-b); (G-1 “Goʻroʻgʻlining tugʻilishi” dostoni, olloh sifatlaridan, 27-b)

*...Arzimni eshit , yo Jabbor,*
*Bu gʻamlardan qutqar mani...*

**Jabroil** (G-1 “Xirmondali” dostoni, farishta nomi, 292-b)

*...Koʻkdan engan besh narsaning,*
*Toʻrt kitobning biri qur’on,*
*Ustindagi Jabroildir,*
*Avval boshi bismillodir...*

**Javpazak** (G-2 “Gulqizoy” dostoni, daraxt nomi, 153-b)

*Bu soʻzlarni aytib bergan ot boylar,*
*Turkman elda satta muloyin xoʻylar,*
*Javpazakday qaddi raso xushroʻylar,*
*Aslo elning qizlariga oʻxshamas.*

**Jazira** (O-2 “Oshiq Gʻarib va Shohsanam” dostoni, joy nomi, 25-b)

*Kofirlara oʻqin otgʻan,*
*Jazirada vatan tutqon,*
*Bahaqqi eranu chiltan,*
*Oʻzung yetkur yora mani...*

**Jayhun** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, daryo nomi, 270-b)

*...toʻrt kun yoʻl yurib, daryoi Jayhunning kanorigʻa bordi…*
(G-1 “Yunus pari” dostoni, daryo nomi, 59-b)

*...Ishq yo'lida Jayhun kabi oqayin,*
*Ishq o'tina mani hayron ayladi...*

**Jayhun pari** (O-2 "Asil va Karam" dostoni, pari nomi, 397-b)
*...san qizim Jayhun parini nikohingga olishing lozim erur...*

**Jaloyir** (G-2 "Yunus bilan Misqol pari" dostoni, urug' nomi, 78-b)
*...Do'rman, Jaloyir, Garmali va Sarilashib ketgan taka urug'larining yig'indisi edi...*

**Jalton** (G-2 "Zulfizar" dostoni, turkmancha variantda, Qaltaman" o'g'rilarning piri, 214-b) *...Sening ilojing oson ediku, lekin bobong hazrati Jaltongning arvohini hurmat qildim...*

**Jamshid** (G-2 "Zulfizar" dostoni, kishi nomi, 206-b)
*...Jamshid, Faridunman Zolu Rustamzar,*
*Yurtni olgan shoh Iskandar qolmadi...*

**Janggal** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, o'simlik nomi, 22-b)
*hech topmasa ko'pir teyinda o'tirib ot hurkizar, eshaklarni quyruqina janggal boylab, tomosha go'rsatar…adi*

**Jangalimozandaron** (G-2 "Govdaroz dev" dostoni, joy nomi, 160-b)
*...Govdarozning bir o'zi Jangalimozandaronning yovvoyi ho'kizlarini yeb yurgani uchun Govdaroz deb atalib yurar edi...*

**Jahonnamo** (O-2 "Shahriyor" dostoni, 376-b, qal'a nomi, oykonim)
*...qal'aning oti Jahonnamo turur. Holo bu qal'ada devlar bordur...* (nashrda "Jahonnoma"deb yozilgan)

**Jahon podsho** (G-1 "Yunus pari" dostoni, shaxs nomi, 58-b)
*...Sani jufting Ko'hi Qof tog'inda makon tutgan Jahon podshoning qizi Og'a Yunus pari bo'ladi...*

**Ja'far podsho** (G-1 "Kampir" dostoni, kishi nomi, 230-b)
*...Shunda Go'ro'g'li Ja'far podshoga otining bahosini aytib, bir noma aytgan adi...*

**Ja'farqul** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, kishi nomi, 312-b)
*...ey Zevarjon, bu Ja'farqul sozkor ekan dedi...*

**Jirjis** (O-2 " Shahriyor" dostoni, payg'ambar nomi, 384-b)
*...Bir madad qil mango hazrati Idris,*
*Yetmish yo'la o'lib tirilgan Jirjis ...*

**Jig'olibek** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 17-b)
...Qadim zamonda takali turkmanning Chamlibel viloyatinda Jig'olibek *degan bek o'tdi...*

**Jovshon** (G-2 "Shoqalandar" dostoni, o'simlik nomi, 337-b. Xalq tilida

"Yovshon", "Yo'vshon" shakllari mavjud)

*Jovshon boshi oppoq qirov,*
*Panasinda qarsoq bor-ov,*
*Yoronlarim ko'zi ko'r-ov,*
*Qalandar sultonga mangzar.*

**Jomiy** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, taxallus, 216-b, Navoiyning ustozi) *...Kechalar yoz etar nasihat shomi,*
*Navoiyning piri mavlono Jomiy...*

**Jon** (**pari**) (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, kishi nomi, 91-b) *...ersa Jon pari kelib, Hamroni boshindagi kallapo'shni oldi...*

**Jondorpuch** (G-2 "Qirq yigit bilan qirq qiz" dostoni, kishi nomi, 108-b) *...Qirq qizning Jondorpuch degan enasi bor, shuni menga olib bersang bo'lgani...*

**Jonodil** (G-2 "Avaz o'g'lonning Rumga qochishi" dostoni, er kishi nomi, 255-b) *...Ashur mirshab atrofga alanglab, ehtiyotlik bilan Jonodilni hovlisiga olib kirdi...*

**Jonshod** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, kishi nomi, 236-b) *...ikkita kanizi bor erdi. Birina Jonshod yana birina Mehrigul deb erdilar...*

**Jumhur** (O-1 "Royi Chin" dostoni, bog' nomi, 158-b) *...cho'bin kafshni oyoqig'a kiyib, niyat bog'i – Jumhur deb sarvi soyag'a tortildi...*

**Jo'vud** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 158-b)

*...Rum-u Bog'dot Farangiston,*
*Hindu Jo'vud Arabiston...*

**Jo'sh** (G-2 "Hasanxon" dostoni, joy nomi, 102-b)

…Urganchdan, Samarqanddan, Shoshdan,
Buxorodan, Avg'ondan, Jo'shdan, Chambil
qarab qizilboshdan,
Kelar karvonlari bo'lar...

**Zabur** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, muqaddas kitob nomi, 101-b) ...Zaburni xatm etgan Hazrati Dovud,
Rahm aylagil holi-zorima maning...

**Zayd** (O-3 "Layli va Majnun" dostoni, kishi nomi, 190-b) *...bularni Zayd degan xalfasi bor erdi. Ul ham Zaynab degan bir qiz birlan muhabbatg'a ko'ngil bergan erdi...*

**Zaydin arab** (G-2 "Rayhon arab" dostoni, kishi nomi, 65-b, var: Zaydinoy; 71-b) *...Men Zaydin arabni kirga olib chiqqanimni tutundan bil...*

**Zaynab** (G-1 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 423-b)

*...Man nochorman, hech ish kelmas qo‘limdan,*
*Qon yig‘larman Zaynab jodu alindan...*

**Zaynab** (O-3 “Layli va Majnun” dostoni, kishi nomi, 190-b) *...bularni Zayd degan xalfasi bor erdi. Ul ham Zaynab degan bir qiz birlan muhabbatg‘a ko‘ngil bergan erdi...*

**Zaynab momo** (O-2 “Xiromon pari” dostoni, kishi nomi, 301-b) *...ammo shaharda bir momo bor erdi, otig‘a Zaynab momo der erdilar...*

**Zaynal kampir** (G-1 “Bozirgon” dostoni, kishi nomi, 370-b)

*...Zaynal kampir derlar mani odima,*
*Qo‘ymag‘il dushmanni ko‘ngil shodina...*

**Zamon og‘abegi** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi, 222-b) *...Go‘ro‘g‘li sulton turkmanning to‘qson to‘qqiz biyini qirq yigitlari bilan – takadan og‘abegi Zamonni...chaqirdi...*

**Zangibobo** (O-1 “Edigo” dostoni, avliyo nomi, 180-b)

*...Sulton Vayis pirim, yo Zangibobo,*
*Madad aylang man g‘ariba ushbu kun...*

**Zangi Zargar** (G-2, kishi nomi, 210-b) *...o‘zi bir yumalab Zangi Zargar suratiga kirib, Avazxonning kelar yo‘linda...tura berdi...*

**Zarafshon** (G-1 “Yunus pari” dostoni, suv havzasi nomi, 58-b)

*...Do‘ni Zarafshon sochoqli,*
*Eshik, ayvoni o‘choqli,*
*Uzun bo‘yli, keng qujoqli,*
*Jonon kerakdir yigita...*

**Zargar** (G-2 “Hasanxon” dostoni, kishi nomi, 99-b, var:Usta Zargar)

*...Usta Zargar ko‘p haddingdan oshibsan,*
*Noshukurlik aylab to‘lib-toshibsan...*

**Zarnigor** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, joyga nisbatan ishlatilgan, 275-b) *...Emdi bu shaharning binosina mo‘tand bo‘linglar va lekin binosi, shahri Zarnigordin ziyoda bo‘lsin...*

**Zarrin** (O-2 “Shahriyor” dostoni, 384-b, joy nomi, var: Shahrizar, qal’ayi Zarrin (zar – sariq, oltin// sariq shahar, oltin shahar) *...Shahriyor Zarrin shahrining darvozasig‘a yetishdi...*

**Zarchaman** (Sarchaman) (G-2 “Gulqizoy” dostoni, bog‘ nomi, 156-b) *...Go‘ro‘g‘li chorbog‘ining qarshisidagi Zarchamanga kelib yerga tushib, yer bilan yo‘rg‘alab kela berdi...*

**Zarchashma** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, buloq nomi, 420-b)

*...Chambildan chiqib, Zarchamanga olib bordilar. Go‘ro‘g‘li sulton qarasa, Zarchashmaning suvlari qumga tartibsiz oqib singgan...*

**Zahhok** (O-2 “Shahriyor” dostoni, 395-b, kishi nomi, bu nom Firdavsiyning “Shohnoma”sida ham bor) *...maning otimni Zahhok derlar...*

**Ziyodxon**( O-2 “Asil va Karam” dostoni, kishi nomi, 254-b)
*...Ganjiqorabog‘da Ziyodxon degan bir podsho bor erdi...*

**Zikriyo** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, payg‘ambar nomi, 100-b) var: Zakariyo;
*...Boshg‘a arra qo‘yg‘on hazrat Zikriyo,*
*Rahm aylagil holi-zorima maning...*

**Zulayho** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, kishi nomi (talmeh) 411-b)
*...Qirq bir yillik ishqni qirq gunda*
*tortib, Yusuf Zulayhodan ayrilmadimu?..*

**Zuljalol** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam”dostoni, olloh sifati, 31-b)
*...Yaratgan Zuljalol yetgil dodima,*
*Yorning guli keldi, o‘zi kelmadi...*

**Zulumot** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, joy nomi, 263-b)
*...Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, Zulumot shahrinda bir podshoh bor erdi...*

**Zulfizar** (G-2 “Zulfizar” dostoni, kishi nomi, (Olmagulning laqabi) 201-b)
*...Zulfi tilla rangida toblab, zarrin bo‘lib turgani uchun hamma uni Zulfizar deb atar edi...*

**Zulfiqor** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, Alining qilichi nomi, 130-b)
*...Dushman yuzi bo‘lar qora,*
*Boshini osarman dora,*
*Buyurarman Zulfiqora,*
*Kalla kesib qon aylarman...*

**Zuhra** (O-1 “Royi Chin” dostoni, yulduz nomi, kosmonim, 161-b)
*...Uzro ila Vomiq haqiqat oshiq,*
*Shams-u Qamar, Zuhra, Mushtariy sodiq...*

**Zuhra** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 189-b)
*...Kelib qo‘lim oling yo Bibi Hadicha,*
*Yo Fotima-Zuhra, yo Bibi Oysha...*

**Zobiliston** (G-2 “Bozirgon” dostoni, joy nomi, 392-b)
*Buxoro, Samarqand, Toshkentlar bilan aylanib, Balxu Badaxshon, Xunxor shaharlaridan o‘tib, qaytib Zobilistonga yetibdi...*

**Zol** (G-2 “Zulfizar” dostoni, kishi nomi, Rustami Dostonning otasi,206-b, “Shohnoma”qahramoni)

*...Jamshid, Faridunman Zolu Rustamzar,*
*Yurtni olgan shoh Iskandar qolmadi...*

**Zebish** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, jodugar nomi, 196-b) *Har ehtimolga ko‘ra, Zebish jodugarni Sarvinozning bog‘iga josus qilib yuboray...*

**Zebo** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 297-b)
*...qizlarning ichinda bir qiz bor erdi, otig‘a Zebo der erdilar...*

**Zevarjon** (O-2 “Xiromon pari” dostoni, er kishi nomi, 298-b.//Zevar, 305-b, Zevarsulton-298-b) *...vazirning o‘g‘lonining oti Zevarjon bo‘lsin*

**Zevar**(shoh) (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 295-b)
*...Bu yigitga Zevar podshoning qizi nasib bo‘lg‘ondir, deb g‘oyib bo‘ldilar...*

**Ibn Salom** (O-1 “Royi Chin” dostoni, kishi nomi, 163-b)
*...Laylijonni Ibn Salom degan bekbachchaga berdilar...*
(O-3 “Layli va Majnun“dostoni, kishi nomi, 205-b)
*...Ibn Salom otlig‘ bir bekzoda bor erdi..*

**Ibrohim** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, payg‘ambar nomi, 411-b)
*...Necha yillar totuvliqman bir bo‘lib,*
*Ibrohim Sorodan ayrilmadimu?!*

**Ibni Hojib** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi’ dostoni, kishi nomi, antroponim 25-b, var: Ibn Hojib)
*...Xorazmda Ibni Hojib,*
*Rahm ayla holima maning...*

**Idris** (O-2 “Shahriyor” dostoni, 384-b, payg‘ambar nomi)
*...Bir madad qil mango hazrati Idris,*
*Yetmish yo‘la o‘lib tirilgan Jirjis...*

**Imom A’zam** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, avliyo nomi, 222-b)
*...Ko‘nglima o‘t tushar harna so‘z desam...*
*Dinning chirog‘idur yo Imom A’zam...*

**Imom Rizo** (O-2 “Asil va Karam” dostoni, kishi nomi, 291-b)
*...Seyislar chekdi azoni,*
*Raqiblar tortsin jazoni,*
*Mahsharda Imom Rizoni,*
*Ko‘ribam so‘ngra o‘lsaydim...*

**Imom Husayn** (O-4 “Bozirgon” dostoni, kitobiy variant, 139-bet, kishi nomi) *...Behisht turur shahid o‘lganning joyi,*
*Imom Husayn bo‘lur aning hamroyi...*

**Iram** bog‘i (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, bog‘ nomi, 79-b.//Eram shaklida ham faol qo‘llaniladi) *...Endi bilsang, Og‘a Yunus parining makoni Iram bog‘ida, Misqol parining makoni Ko‘hi Qofda...*

**Iroq** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, joy nomi, toponim, 21-b)

*...Eron, Iroq birla Rum, Farangiston,*
*Ohimni eshitib, armon ayladi...*

**Iskandar** (G-1 “Bozirgon” dostoni, 384-b, kishi nomi; “Arab tang‘an” 137-b, var: Iskandarsho) *...Avazjon, o‘g‘lim, hazrati Iskandarshoda meningday yurtni odil so‘ramag‘andi...*yoki,

*...Oysulton aytadur bebaqo dunyo,*
*Qani mashhur bo‘lgan Iskandar, Doro?..*384-b

**Ismoil** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, payg‘ambar nomi, 49-b)

*...Ismoildek o‘zni qurbon qilmasa,*
*Aning oshig‘lig‘i e’tibor o‘lmas... 49-b*
*...Bexabar vahiy keltran Jabroil,*
*Ibrohim Xalilning o‘g‘li Ismoil... 100-b*

**Ismomud** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, avliyo nomi, 217-b)

*...Yorimsiz Hazrati Dovud,*
*Zakota galgan Ismomud...*

**Iso** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, var: Hazrati Iso 100-b; ruschada Isus(Xristos); Bibi Maryamning oy nuridan tug‘ilgan o‘g‘li)

*...Bormu oshiqlarda gunoh,*
*O‘qilurmi tilda sano,*
*Hurmatli yetti qat samo,*
*Iso maning yo‘ldoshimdur...*(Oshiq Alband 183-b)
*...Haqning bir rasuli Hazrati Muso,*
*Oy nuridan bo‘lgan Hazrati Iso...* 100-b

(G-1 “Arab Rayhon” dostoni, 92-b)

*...Go‘ro‘g‘li der, pirim Iso,*
*Hazrat Ali ham Murtazo...*

**Isfahon**//**Ispahon** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining dunyoga kelishi” dostoni, joy nomi, 44-b; G-2 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, 80-b) *...San Ispahon shahrina borib, shu yurtni qilichinnan, yoyinnan olib galishing garak, dadi...*

**Isroil** (O-1 “Royi Chin” dostoni, farishta nomi sifatida tilga olingan, 156-b)

*...Nuh, Nabi Jirjis, Ibrohim Xalil,*

*Ismoilu Ishoq, Ya'qub, Jabroil,*
*Isrofil, Isroil, malak Makoil,*
*Ka'bam Madinamni ziyorat etsam...*

**Isrofil** (G-2 "Ro'zaxon" dostoni, farishta nomi, 355-b)
*...Haqning surin tutib yurgan Isrofil,*
*Bulutning tanobin tutgan Mikoil...*

**Isfa** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, tog' nomi, 128-b, var: "Isfar"; ayrim o'rinlarda "Isqa" shaklida beriladi, bu arab yozuvining o'qilishi bilan bog'liq bo'lishi kerak) *...ikki arslon gasht qilib, yetti dog'din o'tib Isfa dog'ig'a yettilar...*128-b.

*...Ahmadbekni ayyor qul aqlini olib, qirq yigiti birlan Isfar tog'ining etagida Arpa bulog'iga siyno surib...Go'zalshohning huzurig'a yetib keldilar...*36-b.

**Istambul** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi' dostoni, joy nomi, 52-b.//Istanbul, Stambul) *...Rumda, Istambulda nomus qolg'ondur,*
*Yuring indi or olmoqqa getali...*

**Is'hoq** (O-1 "Royi Chin" dostoni, payg'ambar nomi, 147-b)
*...Ibrohim, Ismoil, Is'hoq,*
*Ya'qub, Nabi, Yusuf barhaq,*
*Yo Dovud Sulaymon mushtoq,*
*Sango topshirdim yolg'izim...*

**Yo'limboy** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 151-b)
*...birining otig'a Yo'limboy, yana birining otig'a Elomon, yana birining otig'a Shohsuvor der edilar...*

**Kavsar** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, hovuz; buloq; ariq kabi ma'nolarda keluvchi gidronim, 43-b)
*...Kavsar soqiysidan sharob ichdilar,*
*Ichgan shohbozlara Sulton dadilar...*

**Kajangsho** (G-1 "Qirq minglar dostoni" shaxs nomi, 169-b.//Kajang botir)
*...Kajang shoha kulib boqsa zamona, Baxt-u iqbol bizga balli galibdur...* yoki: *...Kajang botir ichinnan qo'rqsa ham qo'rqmag'ana solib, galishinda, aldinnan bir xachir minib, eynina kapcha otg'on dapangnin odam galavardi*

**Kalomullo** (G-1 "Yunus pari" dostoni, muqaddas kitob nomi, 66-b. Qur'oni Karim)
*...Chamlibeldan ot chopdirsam,*
*Labing sharobinnan ichsam,*
*To o'lguncha sannan kechsam,*

*Kalomullodin ont o'lsin...*

**Kamandayyor** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, kishi nomi, 324-b) *...Shamshod shahrida bir ayyor bor erdi. Bu noinsofning odina Kamandayyor der edilar...*

**Kamoljon** (O-1 "Sayyod va Hamro"dostoni, ayol kishi nomi, 50-b ) *...xabar olib ko'rsalar, Gurjiston podshohining qizi Kamoljon erkan...*

**Karam dali** (G-1 "Qirq minglar" dostoni, kishi nomi, 177-b. Xunxorning sarkardasi) *...Avazxon shu borishina Xunxorshohning Karam dali dagan sarkardasining to'pini ustinnan chiqdi...*

**Karam**(jon) (O-2 "Asil va Karam" dostoni, kishi laqabi, 255-b. //Karam o'g'lon; asl ismi Muhammadjon; ayrim o'rinlarda Karimjon deb ham yuritilgan) *...Alg'araz shu yerda Muhammadjonning oti Karamjon qoldi...*

**Karam o'g'lon** (G-1 "Xirmondali" dostoni, kishi nomi, 296-b Oshig' Oydin pirning so'fisi) *...uch yildan bari so'filik atib yurgan Karam o'g'lon dagan bir so'fi bor edi...*

**Karbalo** (G-1 "Qirq minglar" dostoni, dasht nomi, 170-b)
...Qutqarurman xon Avazni,
Karbalo cho'llarim bordur...

**Karimberdi** (G-2 "Xiromon dali" dostoni, kishi nomi, 383-b)*...Endi ikki og'iz so'zni Shom mulkidagi Karimberdijonnan eshitsangiz...*

**Kattabog'** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, bog' nomi, 42-b) *...Ammo Sayodxonning ikki bog'i bor erdi. Birina "Kattabog'" va birina "Gulshanbog'" der erdilar...*

**Ka'ba** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, Olloh uyi nomi, 32-b. // Ka'batulloh *...Man chiqmisham Ka'ba deyib piyoda,*
*Barcha qulni Haq yetirsin muroda...*

**Ka'non** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, joy nomi, 221-b) *...Bir necha kun yo'l yurib, Ka'non shahriga borib, hazrati Yusufning ravzayi shariflarig'a borib, ziyorat qilib, oradan bir necha muddatlar o'tdi...*

**Kozim sulton** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 170-b)
*...Kozim sulton o'g'li erur bozirgon,*
*Qabila boshidur ul yigit pahlavon...*

**Kosaman//**Kasaman (G-2 "Avazxon" dostoni, kishi nomi, 133-b. Do'samanning ukasi) *...Xunxorshoh bu voqeadan xabardor bo'lib, darrov Kosaman sardoriga buyurib...*

**Koshon** (G-2 “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostoni, joy nomi, 106-b)...Ana endi *Go‘ro‘g‘libek: “Men Koshon viloyatiga boraman...”, – deb so‘zlab turgan ekan ...*

**Kunxon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 18 -b)
*...Oti Oyxon Eralixon qardoshi,*
*Kunxonning inisi ham emakdoshi...*

**Kurd** (G-2 “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostoni, xalq nomi, 150-b)
*...Hech nima teng kelmas yurak dardiga,*
*Men oshnaman Tojik, Afg‘on, Kurdiga...*

**Kenagas** (O-4 “Erhasan” dostoni, og‘zaki variant, joy nomi, 187-b) *...Xaridor bo‘lur bu ota Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Kenagas, Yetti iqlimning xiroji bir tukiga arzimas...*

**Kenjaboy ko‘sa** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 170-b. laqabi “Shumtuyoq”) *...bir ayyori ko‘sa erdi. Otina Kenjaboy ko‘sa, laqabiga Shumtuyoq der erdilar...*

**Ko‘kgul** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 198-b ) *...Ammo, Ko‘kgul degan bola tamomi o‘g‘lonlarning ushoqlarini utdi...*

**Ko‘klang** (G- 2 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, urug‘ nomi 16-b) *...Undan keyin Taka, Yovmit, Ersari, Ko‘klang turkmanlarining oqsoqollari bir joyga yig‘ilib...*

**Ko‘ktemir** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, ot nomi, 30-b)
*...Ishongin Ko‘ktemir otning kuchiga,*
*Yurishin ko‘zlagin tog‘ning uchiga...*

**Ko‘kcha** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 80-b) *...Ul ham Bag‘doddin Ko‘kchaning qiziga oshiq bo‘lub, anda turolmay Halabga kelib erdi...*

**Ko‘kcha baxshi** (G-1 “Xirmondali” dostoni, kishi nomi, 303-b) *...Arslonboy aytdi: Ko‘kcha baxshi degan bir baxshi bor, shuni olib qaytaman dadi...*

**Ko‘lbar** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, kishi nomi va laqabi; 251-b) *...Surxayil xolamni Ko‘lbar bobomga,*
*Xohlasa keltirib berayin dedim...*

**Ko‘ro‘g‘li sulton** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, kishi nomi, 123-b. //Ko‘ro‘g‘li, Ko‘ro‘g‘li sunni *)...Shul vaqtinda Ko‘ro‘g‘li sulton, ey Xandon botir menga to‘g‘ringni ayt, bo‘lmasa mening ichim yoriladi...* yoki, *...Alg‘araz, Ko‘ro‘g‘li bir nechcha joylardan bosib*

*olganini bosib olib, keltirib, ishlarini pitirib, ichkari kirib yotaberdi...*
yoki,
*...Ko'ro'g'li  sunni degan zang'ar bor...*

**Ko'sa** (G-1 "Qirq minglar"dostoni, kishi laqabi, 183-b. Bu nom, asosan, Safar Mahramga nisbatan qo'llaniladi)
*...Galavar hoy Seytak, ko'sa,*
*Quloq solg'il ushbu sasa,*
*Yigitlarim o'xshab masa,*
*Savashar maydon ichinda...*

**Ko'fa** (O-4 "Oshiq Najab" dostoni, kitobiy variant, joy nomi, 92-b)
*...Mundin avval hech bir shahar yo'q erdi,*
*Avval boshda Ko'fa shahrin soldilar...*

**Ko'chabog'** (G-2 "Avaz o'g'lonning Rumga qochishi" dostoni, joy nomi 207-b) *...G'irko'kning jilovini burib,*
*Ko'chabog' oralab yurib borayotir...*

**Ko'histon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 114-b)
*...Xabar borur Hindustona,*
*Cherik tushar Ko'histona...*

**Ko'hi Qof** (G-1 "Yunus pari" dostoni, afsonaviy tog' nomi 58-b) *...Sani jufting Ko'hi Qof tog'inda makon tutgan Jahon podshoning qizi...*

**Lazon kaniz** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 111-b) *...bir kuni Lazon degan kanizak G'aribg'a hazil-mazax qilib erdi...*

**Layli** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi (talmeh)16-b)
*...Mani Layli-Majnun etib,*
*Qiziqlik bozora solding...*

**Lakasho** (G-1 "Avaz uylangan", "Arab tang'an" dostonlari, kishi nomi, 124,123,100,99-betlar. // Lahka, Lakashoh, Lahkashoh) *...Laka shohni qizini olib kelib to'y-tomosha qilib, vaqti xushchiliq bilan ana bu to'yni tarqatdi...123-b; ...Qadimgi ayyomida, o'tganki zamoninda Lahkashoh degan o'tdi...99-b; ...Lakasho seni netib edi, Yusufsho seni netib edi...124-b; ...Og'a beklar, keting Lahka podshog'a,*
*Bedov ot oldina olib keltiring...100-b.*

**Langar ota** (G-2 "Ro'zaxon" dostoni, joy nomi, 354-b) *...qo'rg'onlarining ichida o'zbekning Langar ota makonlari shekilli mevali daraxtlari, oz-moz ekinzorlari bo'lar edi...*

**Lang vazir** (O-4 "Avaz gatirgan" dostoni, og'zaki var. kishi nomi, 249-b)

*...Bular choy-chilimini ichavarsin, endi xabarni kimdan ol, Lang vazirdan ol...*

**Lapshar bobo** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi nomi, 321-b)

*...Mamadalibekdan ming tillani sanab olib, qo‘yniga solib, uyiga qaytib, choli Lapshar boboning oldiga...to‘qqiz yuz tillasini to‘kib...dedi.*

**Lizon kaniz** (O-2 “Xiromon pari’ dostoni, kishi nomi, 318-b)

*...Ammo qizlarning ichinda ikki kaniz bor erdi, birining oti Bonu, yana birining oti Lizon erdi...*

**Lola** (O-2 “Asil va Karam” dostoni, erkak kishi nomi, 260-b)

*...Ammo Karamjonning bir hamrohi bor erdi, oti Lola erdi...259-b);*
*...Kel o‘zingni Lolajonga yor ayla,*
*Kel man sani olay Karam olmiydi...*260-b

**Lolagul** (O-3 “Gul va Sanobar” dostoni, kishi nomi, 252-b. //Gul

*...Paridur kiygani ekan qirmizi,*
*Oti Lolaguldur, shoh Farrux qizi...*

**Lochin** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, o‘zbek urug‘laridan biri nomi, 189-b)

*...sen bizga toza og‘ayni chiqib qolding, Barlos nima, Jaloyir nima, Lochin nima – baribir...*

**Lubnon** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, tog‘ nomi, 411-b)

*...Lubnon degan tog‘da uy-ro‘zg‘or qilib,*
*Varqa ham Gulshodan ayrilmadimu?*

**Lut** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, payg‘ambar nomi, 451-b)

*...Bu dunyo ko‘zlarim yoshini sochdi,*
*Shahri Lut bir kecha osmonga uchdi...*

**Lut** (O-4 “Xirmondali” dostoni, og‘zaki variant, joy nomi, 108-b)

*...tushida bir voqeani ko‘rdi. Voqeasinda Lut shahrinda Mansur degan bir podsho bor edi...*

**Luqmon** (G-2 187-b; O-2 “Oshiq Alband” dostoni, 182-b. “Hazrati Luqmon” shaklida keng qo‘llaniladi. Ba’zan Ibn Sinoni shu timsolga tenglashtiradilar)

*...Dardga davo etgan Hazrati Luqmon,*
*Dod etarman parizodning alinnan...*

**La’lixon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 63-b)

*...Qaldirg‘och oyim yig‘lab, La’lixon oyim onasining yoniga borib, zor-zor yig‘lab...bu javobni aydi...*

**Mavaran** (G-2 “Xiromon dali” dostoni, kishi nomi, 380-b) *...Go‘ro‘g‘li sulton Mavaranni chorbog‘dan olma, anjir olib kelishga buyurdi...*

**Mavlo** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, olloh sifatlaridan, 38-b.

Xalq orasida “mavlon” shaklida ishlatiladi)

...Bir himmat yetdi Mavlondan,
*Qanot bog‘lab uchdi G‘irot...*

**Mavron** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi 243-b) *...Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G‘avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo‘shtemir, Toshtemir degan yel o‘pka, tentak olishtoblari bor edi...*

**Madina** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, shahar nomi, 27-b. Arab tilida “shahar”degan ma’noni bildiradi. Dostonlarda va xalq orasida payg‘ambar qurdirgan shahar ma’nosida ishlatiladi)

...Madinada ul Imomi xos,
*Bu g‘amlardan qutqar mani...*

**Madinatul Qa’riya** (O-1 “Royi Chin” dostoni, afsonaviy joy nomi, 137-b) *...Ul aydi: yer ostinda bir shahar bor turur, anga Madinatul Qa’riya derlar...*

**Majnun** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 16-b )

*...Mani Layli-Majnun etib,*
*Qiziqlik bozora solding...*

**Majnundali** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 112-b) *...birini odini Mirgazdali der erdilar va yana birining odini Majnundali der erdilar...*

**Majnunko‘k** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, ot nomi 90-b) *...Cho‘ponlar toyni Majnunko‘k der edi...*

**Mazzam momo** (G-2 “Xiromon dali” dostoni, kishi nomi 371-b) *...Bir Mazzam momo degan bor. Sizning maqsadingizning ilojini bilsa, o‘sha biladi...*

**Mayram**//**Maryam** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 220-b Iso payg‘ambarning onasi. Bu so‘zning talaffuzida tovushlar o‘rni almashgan. Bu holat o‘zbek tilida mavjud, masalan: tuproq//turpoq; daryo//dayro; Mayram//Maryam...)

*Tur tog‘inda kezgan Muso,*
*Mayram o‘g‘li hazrat Iso...*

**Makka** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, joy nomi, 188-b)

*G‘anim bo‘lib galgan arab,*
*Makkasina qarab qochdi...*
(G-2 “Sarvinoz” dostoni, shahar nomi 187-b)
*...Bir qadamda bosasan Makkaman Chambil orasin,*
*Falak topmas darveshlarning qorasin...*

**Malik Qaytus** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 263-b)

*...otig‘a Malik Qaytus der edilar, o‘zi kofir, badmazhab erdi...*

**Malikai Dilorom** (O-1 “Malikai Dilorom” dostoni, kishi nomi, 313-b) *...ul qizning oti Malikai Dilorom erdi...*

**Malikai Zavriyo** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 263-b. //Zavriyojon) *...Ul qizning otini Malikai Zavriyo qo‘ydilar; ...Andin so‘ng Zavriyojonni otasining xizmatig‘a olib keldilar...*

**Malikayi Qa’riya** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, pari nomi, 423-b) *...oynayi jahon shu Badiuljamol parining qizi Malikayi Qa’riya parining qo‘lida edi...*

**Mamadalibek** (G-2 “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostoni, kishi nomi, 171-b) *...Nishopurning hokimi Mamadalibekni Xunxorning farmoni bilan podsho qilib qaytdi...*

**Mamarahim** polvon (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi, 55-b) *...Takaga Og‘abek Zamon, Ko‘klangga Safo o‘g‘li Chaqqon, Ersariga Mamarahim polvon bek bo‘lib...edi.*

**Mamatso‘yin sardor** (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 62-b) *...Andin so‘ng Mamatso‘yin sardorni qirq kishi birlan Sayodxonni izindin yubordi...*

**Manjalaqixon** (G-2 “Bozirgon” dostoni, kishi nomi, 401-b) *...bu ishni marhum Ovsharning qayinbekasi Manjalaqixon bajo qiladi...*

**Manzilaro** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, joy nomi, 258-b) *...bu bog‘im 40 tanobdur, ichinda ikki ko‘shkim bor turur. Biriga Manzilaro derlar birig‘a Mushkinrabot derlar...*

**Mansur xalloj** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, (talmeh) 49-b) *...Mansur kabi analhaq deb o‘lmasa,*
*Ismoildek o‘zin qurbon qilmasa...*

**Mang‘it** (O-1 “Edigo” dostoni, joy va urug‘ nomi, 170-b) *...ul podshoning ayyomida qirq ming uyli Qo‘ng‘irot, qirq ming uyli Qipchoq, qirq ming uyli Mang‘it, qirq ming uyli Uyg‘ur, qirq ming uyli Nayman, qirq ming uyli Qalfoq, qirq ming uyli Nukus, qirq ming uyli Qang‘li, qirq ming uyli Xitoy, qirq ming uyli Chovdir bor erdi...*

**Mang‘ishlov** (G-2 “Hasanxon” dostoni, joy nomi, 102-b)
*...Bulg‘or, O‘ris, No‘g‘aylikdan,*
*Mang‘ishlovlik, Saroyliqdan,*
*...Uch oylik yo‘l Oltoylikdan,*
*Kelgan odamlari bo‘lar...*

**Marayim** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi,

222-b) *...soridan Marayim polvonni, yovmutdan beklar begi Ahmad sardorni Chambil chortog'iga chaqirdi...*

**Marim//**Mamarahim//Mamarayim (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni, kishi nomi, 243-b) *...Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G'avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo'shtemir, Toshtemir degan yel o'pka, tentak olishtoblari bor edi...*

**Mariya kaniz** (G-2 "Ro'zaxon" dostoni, kishi nomi, 362-b) *...Mariya kaniz bilan Nina kaniz Go'ro'g'li sultonni malika Ro'zaxonning oldiga olib chiqdilar...*

**Maryam** (O-2 "Asil va Karam" dostoni, kishi nomi, 268-b. Asiljonning onasi, Bibi Maryam emas)

*...Onasi Maryamdur, Qoramalik otasi,*
*Qiyomatda maning ohim tutasi...* yoki: *...Asilxon parizodning onasi Maryam eshigina chiqib erdi...*283-b

**Maryam** (G-2 "Ro'zaxon" dostoni, tog', Isoning onasi va sayl nomi, 354-b) *...Ro'zaxonni izlasang, o'ris yurtida, Maryam tog'ining etagidagi darvishxona qo'rg'ondan topasan...*

**Marg'ilon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 113-b)

*...Lashkarim kelar har yondin,*
*Shomi sharif Andijondin...*
*...Andijon-u Marg'ilondin,*
*Qirq ming uyli Qo'qon kelur...*

**Masiho** (O-2 "Shahriyor" dostoni, payg'ambar nomi, 409-b.//Iso; Iso Masih)

*...Hazrati Sulaymon shohi ins-u jon,*
*Bibi Maryam ul Masiho yetirdi...*

**Maskav** (O-1 "Edigo" dostoni, joy nomi, 246-b) *...Andin ko'chub, shahri Maskav bordilar...*

**Mashrab** (G-1"Kampir" dostoni, shoir taxallusi, 223-b) *...Bir baqqolning do'konini oldina borib Mashrabni g'azallarinnan, Ozarbayjon nomalarinnan qo'shig'ini qayirib tashivardim...*

**Mashriq** (G-2 "Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi" dostoni, tomon nomi, 174-b)

*...Mag'ribdan Mashriqqa dovrug' solibdur,*
*Dunyoda shohlarning shohi Xunxordur...*

**Mashhad** (G-2 "Sarvinoz" dostoni,joy nomi, 191-b; G-2 "Shoqalandar" dostoni, joy nomi, 328-b)

*...Hu desam Hazrati Mashhadga ketsam,*

*Bizga bu dargohdan pano bormikan*? 191-b. yoki:
*...makonim mozoriston bilan vayrona...Nishopur, Mashhadi Sharif, Karbalo ziyoratgohimdur...328-b.*

**Mashhadi sharif** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, joy nomi, varianti 328-b)
*...makonim mozoriston bilan vayrona...Nishopur, Mashhadisharif, Karbalo ziyoratgohimdur...*328-b.

**Mag‘rib** (G-2 “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostoni, tomon nomi, 174-b)
*...Mag‘ribdan Mashriqqa dovrug‘ solibdur,*
*Dunyoda shohlarning shohi Xunxordur...*

**Mahdiali jodugar** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi nomi, 329-b)
*...Saydali sardorga qabatiga hoji Sumsor, Mahdiali jodugar va yettita sarbozni qalandar suratida olib...kelmak topshirildi...*

**Mahmudjon** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, kishi nomi 132-b. Lakashohning o‘g‘li) *...Laka shohim, bizning birla,*
*Shoh o‘g‘li Mahmudjon yursin...*

**Mikoil** (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, farishta nomi, 355-b. aslida “Makoil”, ruschada Mixail)
*...Haqning surin tutib turgan Isrofil,*
*Bulutning tanobin tutgan Mikoil...*

**Mirali** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi nomi, (Omon jarchi) 346-b)
*...Mirali degan chala jinni kishi to‘ylarda jarchilik qilib, bitta-yarim Go‘ro‘g‘lining so‘zlaridan chala-cho‘lpa aytib yuradigan edi.*

**Mirg‘azdali** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi 112-b)
*...birini odini Mirg‘azdali der erdilar va yana birining odini Majnundali der erdilar...*

**Mirzobek** (O-2 “Xiromon pari” dostoni, kishi nomi, 334-b)
*...Mirzobek derlar otima,*
*Haq yetirsin murodima...*

**Mirzo Mamad** (O-3 “Yusuf va Ahmad” kishi nomi 30-b) *...Shul vaqt bir so‘xtasi sovuq, ko‘zi ko‘k, yuzi zahil bir badrak o‘rnidan turib, podshog‘a qulluq qildi. Aning otig‘a Mirzo Mamad der erdilar...*

**Mirzo Sulton** (O-4 “Avaz gatirgan” dostoni, og‘zaki variant , kishi nomi, 255-b) *...Tabrizning yaqinida Hirot degan bir el bo‘lib, uning Mirzo Sulton degan amiri bor erdi...*

**Mirishkor bog‘bon** (G-2 “Gulqizoy” dostoni, kishi nomi, 147-b)
*...Shaharda bir Mirishkor bog‘bon degan boboy bor...*

**Mirtik** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi 55-b) *Bularning ismlari:Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal,ey, qaysi birini aytay, bari zo‘r birday...*

**Miskin** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi, 207-b.//Miskin Sharif, Miskinjon. *...Podshoning Miskin nomli bir o‘g‘li bo‘lib, bir kuni ul supaning ustida uxlabdir... yoki: ...Anda podsho buyurdikim, Miskin Sharifni olib kelinglar...*

**Miskin G‘arib** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi n, 123-b) aslida G‘arib... *...Miskin G‘arib haqqa banda,*
*Orzu mandin ko‘pdir sanga ...*

**Misr** ( G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, joy n, 236-b) *...shoh Yusuf Misr ko‘chasida hammani shaydo qilganday,...Avaz o‘g‘lon o‘tib borayotir...*

**Misqol** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, pari nomi, 76-b var: Misqoloy, Misqol pari) *...osmon bilan yerning oralig‘ida Yunus pari bilan Misqol parini ko‘rdi...*

**Mozandaron** (G-2 “Govdaroz dev” dostoni, joy nomi, 160-b)
*...Meni izlab kelgan odam tog‘alar,*
*Qadam bosib Mozandaron mulkimga...*

**Morgir** (O-3 “Yusuf va Ahmad” ot nomi 14-b) *...nogahonda bir qabrning ustidin chiqib, Yusufbekning Morgir oti aning ustidin o‘tmadi...*

**Mori** (G-2 “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostoni, joy nomi, 416-b.//Marvi, Marv) *...Shu oraliqda Mori degan joyda turkmanlar o‘zlariga boshqa xon sayladilar...*

**Muakkil** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, kishi nomi, 421-b)
*...Oxir chog‘i eshitmayin dodimni,*
*Bir Muakkildek nochor aylading falak...*

**Muammon** (O-2 “Shahriyor” dostoni, bog‘ nomi, 405-b) *...Anjum pari aspi Jahongirning ustig‘a mindi, yetti kunda bog‘i Muammonga bordi...*

**Mulla Bo‘jon** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, doston aytuvchi kotib 202-b)
*Bechora kotiblar yozg‘an xatlari,*
*Mulla Bo‘jon derlar ismi otlari,*
*Ko‘p ta’rif ayladim parizodlari,*
*Alarni ko‘p takror qilishin ko‘ring.*

**Mullo Rumiy** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi 27-b)

*...Shayx Mansur, Mullo Rumiy,*
*Bu g‘amlardan qutqar mani...*

**Mulla Eshmat** ( O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 181-b. Bu yerda Eshmat atoqli ot) *...anda qizlar aydilar: bizlar mulla Eshmatni topib keltirurmiz...*

**Muloyimxon** (O-4 “Oshiq Najab” dostoni, kitobiy variant, kishi nomi,. 95-b) *...Aning bir barkamol singlisi bor erdi. Otig‘a Muloyimxon der erdilar...*

**Munavvarsulton** (O-2 “Xiromon pari” dostoni, kishi nomi, 298-b) *...farzandining oti Munavvarsulton bo‘lsin...*

**Munkarnakir** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, farishta nomi 115-b)
*...Eltib lahadga solganda,*
*Munkar-nakir kelganda,*
*Saning rabbing kim, deganda,*
*Azbaram do‘nmanam sadnin*

**Murtazo** (G-1 “Arab Rayhon” dostoni, payg‘ambar nomi, 92-b)
*...Go‘ro‘g‘li der, pirim Iso,*
*Hazrat Ali ham Murtazo...*

**Musna** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, ilon nomi, 269-b) *...Andin so‘ng Xizr alayhissalom Musna otlig‘ bir ilon bo‘lib, Qaytus kofirning dargohina kirib, Zavriyoning qo‘lini kesdirur joyina hozir bo‘ldi...*

**Muso** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, payg‘ambar nomi 100-b)
*...Haqning bir rasuli hazrati Muso,*
*Oy nuridan bo‘lg‘an hazrati Iso,*
*Boshg‘a arra qo‘yg‘an hazrat Zikriyo,*
*Rahm aylagil holi zorima maning...*

**Mustafobek** (G-1 “Avazning Vayongonga ketishi” dostoni, kishi n, 204-b. Avazning jangchisi) *...Bu odamni odina Mustafobek dab od baradovin adilar...*

**Mustafo vazir** (G-1 “Kampir” dostoni, kishi nomi, 210-b. Nishopur vaziri) *...Podsho o‘ylanib o‘tirib-o‘tirib, yonina Mustafo vazir dagan qarri vazirini imo bilan chaqirdi...*

**Mustob guppi** (G-2 “Gulqizoy” dostoni, polvon kishi nomi, 152-b) *...Buni ko‘rgan Mustob guppi maydonga chiqib aylanib, Go‘ro‘g‘li sulton bilan ushlashib, kurashib qoldi...*

**Mutal** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi, 55-b) *Bularning ismlari:Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal,ey, qaysi birini aytay, bari zo‘r birday...*

**Muxtor** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, avliyo kishi nomi, 215-b. //Shayx ul Muxtor Vali)

*...Xudoning chin do‘sti Ahmadu Muxtor,*
*Sulton Vais bo‘lsin biza madadkor ...* yoki:
*…Qadam bosib uydan chiqdim mastona,*
*Shayx ul Muxtor Vali ulug‘ ostona…*

**Mushkinrabot** ( O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, joy nomi, 258-b. 301-betda shu nom ko‘shk nomi sifatida kelgan) *...Hoqoni Chin viloyatinda bir shahar bor erdi. Otig‘a Mushkinrabot der erdilar...* yoki: *...bu bog‘im 40 tanobdur,ichinda ikki ko‘shkim bor turur. Biriga Manzilaro derlar birig‘a Mushkinrabot derlar...*

**Mushtariy** (O-1 “Royi Chin” dostoni, yulduz nomi, kosmonim, 161-b )

*...Uzro ila Vomiq haqiqat oshiq,*
*Shamsi,Qamar,Zuhra,Mushtariy sodiq...*

**Mug‘on** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, cho‘l nomi, toponim, 176-b)

...Yetti yil kezarman Mug‘on cho‘linda,
Bosh qo‘yibman So‘na qizning yo‘linda...
*...Haq o‘zing saqlag‘il Mug‘on cho‘linda,*
*Qutqar mani bevafolar alindan...*

**Muhammadjon** (O-2 “Asil va Karam” kishi nomi, 255-b. keyingi o‘rinlarda Karam o‘g‘lon nomi bilan yuritiladigan qahramon. Ayrim o‘rinlarda Karimjon//Karamjon deb ham yuritiladi, 288-b) *...podshoning o‘g‘li bo‘ldi… otini Muhammadjon qo‘ydilar…*

**Muhammad Mustafo** (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, payg‘ambar nomi, 355-b)

*...Yuz yigirma to‘rt ming o‘tgan payg‘ambar,*
*Bariga Muhammad Mustafo sarvar...*

**Muhammad Rizo** (O-2 “Shahriyor” dostoni, doston aytuvchi baxshining nomi, 355-b,)

*...Kel ey Muhammad Rizo sen haqg‘a yong‘il,*
*Ki tonglar ko‘rsatur sango ul diydor...(353-b)* yoki:
*...Kel Muhammad Rizo sen ham toshg‘il,*
*Toshib durlarni san og‘zingdan sochg‘il...(365-b)*

**Muhammad** s.a.v (G-1 “Xirmondali” dostoni, payg‘ambar nomi, 301-b)

*...Yondi shirin jonim yondi,*
*Dinim Muhammad dinidi...*

**Muhammad**(xon) (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 9-b. //Mamatsho//Shomamat//Mamatxon) *...Ammo yana bir kaming bor: Qizilolma shaharida Muhammadxon podshoning qizi Sayodxonni ko‘rdim, bunda sani ko‘rdim...*

**Muhit** (O-1 “Royi Chin” dostoni, daryo nomi, 142-b)
*...Daryoi Muhit derlar,*
*Andin topilur go‘har*
*Ul bilsa kerak dilbar*
*Man anda bayon aylay...*

**Merom** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, kishi nomi, 40 yigitni biri 149-b) *...Ana Merom, Qambarlarda biz ham boramiz deb, otlarini iyarladi...*

**Mehrangiz** (O-3 “Gul va Sanobar” dostoni, kishi nomi, 244-b) ...ul pardaning ichindagi joduli qizni oti Mehrangiz erdi...

**Mehribon**(jon) (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 278-b) *...xon hazratning avvalgi zaifasi bor edi. Otini Mehribonjon der edilar...*

**Mehrigul** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 178-b) *...ularning orosinda Mehrigul degan parizod bor erdi...* (O-2 “Miskin va Gulqand” dostonida ham bu nom kanizak nomi sifatida uchraydi... *Bir kanizak otig‘a Mehrigul der erdilar va yana birining otig‘a Mehrishams der erdilar...*(227-b)

**Mehrishams** (O-2 “Miskin va Gulqand” kishi nomi, 227-b) *...Bir kanizak otig‘a Mehrigul der erdilar va yana birining otig‘a Mehrishams der erdilar...*

**Mo‘minbek** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi, 17-b) *...Jig‘olibekdan uch o‘g‘il do‘radi o‘rtanjasini Mo‘minbek dab od baradovin adilar...*

**Navbahor**(bibi) (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 174-b) *...Ersa xo‘ja qizidin olg‘on Navbahorbibi degan xotini bor erdi...*

**Navoiy** (O-2 “Miskin va Gulqand” shoir taxallusi, 216-b)
*...Bir madad aylangiz pirim Navoiy,*
*Rahm etako‘r holi-zorima maning...*

**Navozishali** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi nomi, 344-b) *...Boboy ikki kuyovi, ikki qizi, o‘g‘li Navozishali ham Yosqila bilan olti eshak bir otli bo‘lib, Marvga qarab ko‘chib ketdi...*

**Navro‘z** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, bayram nomi, 162-b)
*...Navro‘z bo‘ldi fasli bahor,*

*Gullar ochilur lolazor,*
*Bu so'zni aytdi Gulasror,*
*Yor maniki, yo'l saniki...*

**Navro'z** (O-4 "Oshiq Najab" dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 85-b)
*...Bul yo'rg'a minib kelgan odamning oti Navro'z erkan...*

**Navfal** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 210-b)
*...Rum shahrinda sipohsolar bor erdi. Unga Navfal der edilar...*

**Najab**(jon) (O-4 "Oshiq Najab" dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 78-b)
*...Albandning otining orqasina mindurdi, yetti oylik Najabjon ismli chog'ani ikkisini o'rtasina tuttirdi...*

**Nazdodbon** (O-2 "Shahriyor" dostoni, kishi nomi, 345-b)
*...Birining otasi biling Nazdodbon,*
*Kiprigi o'q oning qoshlari kamon...*

**Nazirbek** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 191-b)
*...vazirning o'g'li Nazirbekning qahri kelib, Albandjonni bir tepdi...*

**Nayman** (O-1 "Edigo" dostoni, joy va urug' nomi 170-b) *...ul podshoning ayyomida qirq ming uyli Qo'ng'irot, qirq ming uyli Qipchoq, qirq ming uyli Mang'it, qirq ming uyli Uyg'ur, qirq ming uyli Nayman, qirq ming uyli Qalfoq, qirq ming uyli Nukus, qirq ming uyli Qang'li, qirq ming uyli Xitoy, qirq ming uyli Chovdir bor erdi...*

**Namangon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 114-b)
*...Qirg'iz kelur Namangondin,*
*Qashqar Qaysar degan yerdin...*

**Nargis**(jon) (O-2 "Asil va Karam" dostoni, kishi nomi, 255-b. ayrim o'rinlarda Asil, Asiljon, Asilpari kabi nomlarda ham yuritiladi) *...Bog'da qizlarning orosinda bir nozanin yurur erdi...oti Nargisjon erdi...*

**Nasimiy** (O-2 "Shahriyor" dostoni, shoir taxallusi, 422-b)
*....Nasimiyday go'yo terim so'ydilar,*
*Tayoq olib cho'ldan cho'la quvdilar...*

**Nasriddin Afandi** (G-2"Avaz o'g'lonning Rumga qochishi" dostoni, xalq qahramoni nomi, 263-b) *...yigitnig so'zlarini salmoqlab ko'rsa, xuddi Nasriddin Afandiday sodda...*

**Naqshband** (O-1 "Malikai Zavriyo" dostoni, pir nomi, 269-b)
*...Bu savdolar bilan bo'libman hayron,*
*Shoh Naqshband pirim yo balogardon...*

**Nigor**(jon) (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, kishi nomi, 220-b) *...ikki qizi bor erdi. Birining oti Nishot erdi va yana birining oti Nigor erdi...*

**Nil** (G-1 “Arab Rayhon” dostoni, daryo nomi, 76-b. var: daryoi Nil)
*...Bugun mening holim mushkul,*
*Ko‘zim yoshi daryoi Nil...*
**Nina kaniz** (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, kishi nomi, 362-b)
*...Mariya kaniz bilan Nina kaniz Go‘ro‘g‘li sultonni malika Ro‘zaxonning oldiga olib chiqdilar...*
**Nishopur** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, joy nomi, 188-b)
*...Nishopurdan galgan badlar,*
*O‘z elina yig‘lab qochdi...*
**Nishot**(jon) (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi, 220-b) *...ikki qizi bor erdi. Birining oti Nishot erdi va yana birining oti Nigor erdi...*
**Novgul** (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 83-b)
*...Ersa Novgul degan bir kelin, – sizlarga kam xizmat bo‘ldik, – deb, bir uzuk, bir yovliq chiqarib berdi...*
**Nodirsulton** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 16-b) *...yana birini Nodirsulton der erdilar, ul Mang‘ishloqning hokimi erdi...*
**Norimjon** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, avliyo nomi, 172-b. Sulton Uvays Qorayninning ustozi)
*...O‘ng yonimda turdi ul Vaysulqora,*
*Kuloh kiygan ul Norimjon ko‘rindi...*
**Nukus** (O-1 “Edigo” dostoni, joy va urug‘ nomi, 170-b) *...ul podshoning ayyomida qirq ming uyli Qo‘ng‘irot, qirq ming uyli Qipchoq, qirq ming uyli Mang‘it, qirq ming uyli Uyg‘ur, qirq ming uyli Nayman, qirq ming uyli Qalfoq, qirq ming uyli Nukus, qirq ming uyli Qang‘li, qirq ming uyli Xitoy, qirq ming uyli Chovdir bor erdi...*
**Nuraziz** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi 230-b)
*...ul qizdin bir o‘g‘il bo‘lur, otini Nuraziz qo‘ygil!*
**Nurali** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi, 245-b) *...Ikki yashar Nuralini ko‘tarib,*
*Vo, to‘ram, deb yig‘lab chiqdi Oygulqiz...*
**Nurnoma** (G-1 “Avazning Vayongonga ketishi” dostoni, muqaddas asar nomi, 196-b)
*...Nurnomani o‘par olib qo‘lig‘a,*
*Endi mandin davron o‘tdi, yoronlar.*
**Nuh** (O-2 “ Shahriyor” dostoni, payg‘ambar nomi, 374-b)
*...Qolmadi quvvatim yo Nuhi nabi,*
*Rahm etako‘r holi zorima maning...*

**No‘shiravon** (O-2 “Asil va Karam” dostoni, kishi nomi, mashhur shoh 267-b. var: No‘shiravoni odil//Anushirvon)

...Jamoli shu’lasi olamni yoqdi,
*So‘ngra No‘shiravon taxtina chiqdi...*

**No‘g‘ay** (G-2 “Hasanxon” dostoni, joy nomi, 102-b)

*...Bulg‘or, O‘ris, No‘g‘aylikdan,*
*Mang‘ishlovlik, Saroyliqdan,*
*...Uch oylik yo‘l Oltoylikdan,*
*Kelgan odamlari bo‘lar...*

**Obir mahram** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 205-b)

*...Obir mahram aydi: “Ermon biy borsin”, yana biri aydi: “Sharmon biy borsin”, yana biri aydi: “Oylabiy borsin...*

**Oblo** (G-2 “Nuralining yoshligi” dostoni, Olloh nomi sifatida qo‘llanilgan 300-b) *...Tog‘ni gumburlatar to‘pning ovozi,*
*Oblo bilar kimdir shahid, kim g‘ozi...*

**Ovodon** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 23-b)

*...Ovodon der: yetolmadim muroda,*
*Bolam sani bir Ollog‘a topshirdim...*

**Ovulpatta** (G-2 “Gulqizoy” dostoni, kishi nomi, 147-b)

*...egarning qoshiga bir urib, Ovulpattaga o‘xshagan bir ko‘zama cho‘ltangroq baxshi bo‘lib...keta berdi...*

**Ovshar** (G-2 “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostoni, kishi laqabi, undan bunga ovib ketaveradigan ma’nosida 177-b) *...bir Ovshar laqabli jodugar sarkardasi Xunxordan fotiha olib...kela berdi...*

**Odam** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, payg‘ambar nomi, 27-b. (Odam ato ma’nosida)

*...Hech yo‘qdur dardima davo,*
*Otam – Odam, onam – Hovvo ...*

**Odibek** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi, 17-b)

*...Jig‘olibekdan uch o‘g‘il do‘radi, kichkinasina Odibek dab od baraduvin adilar...*

**Odilshoh** (O-4 “Oshiq G‘arib va Hilola pari” dostoni, kitobiy variant, kishi nomi,39-b) *...Alqissa, G‘aribg‘a qarab, Odilshoh joylarini, manzillarini, so‘rab bo‘lg‘ondin so‘ng, G‘aribjon ham podshog‘a qarab, holini bir-bir bayon qilib turg‘onlari bu turur...*

**Ozarbayjon** (G-1 “Kampir” dostoni, joy nomi, 223-b)
*...Ozarbayjon nomalarinnan qo‘shig‘ini qayirib tashivardim...*
**Oy** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, osmon jismi nomi, 198-b)
*...Oy bilan Quyoshga bo‘lib parvozing,*
*Osmonda havolab uchmoqda nozing...*
**Oygul maston** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, kishi nomi, 253-b) *...shunda Oygul degan maston kampir kelib, Xorshon podshohning ko‘rgan tushini yo‘rib, bir so‘z dedi...*
**Oygulqiz** (G-2 “Gulqizoy” dostoni, kishi nomi, 146-b.//Gulqiz, Gulqizoy)
*...O‘zing ko‘rgan Bektosh arab xotini,*
*Gulnoz bo‘lar shu Gulqizning opasi...* 144-b yoki:
*...Shodlik kuni shodlanamiz, kulamiz,*
*Oygulqiz qizingga sovchi bo‘lamiz...* 146-b...
**Oydin pir** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, avliyo nomi, 174-b. var: Oshiq Oydin pir)
*...Oydin piring yo‘la ayladi ravon,*
*Ko‘nglingda armoning ko‘pdir Albandjon...*
**Oydin Yusuf** (G-2 “Xiromon dali” dostoni, pir nomi, 375-b. Boshqa variantlarda Oshiq Oydin pir) *...Oydin Yusuf pirga qo‘l berib, qirq kun xizmatini qilib,fotihasini olib borsang, ajab ermaski Xiromon dalini yutsang...*
**Oyjamol** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 86-b)
*...Alarning ichinda bir Oyjamol otli qiz bor erdi...*
**Oylabiy** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 205-b)
*...Obir mahram aydi: “Ermon biy borsin”, yana biri aydi: “Sharmon biy borsin”, yana biri aydi: “Oylabiy borsin”...*
**Oypora** (O-4 “Oshiq G‘arib va Hilola pari” dostoni, kitobiy variant, erkak kishi nomi sifatida keltiriladi, 43-b) *...Nogoh ko‘rsa saroyg‘a bir o‘g‘lon kelib turur Ul nochorning oti Oypora erdi. anda so‘rdikim, ey shoh bu og‘lon kim turur? podshoh aydi bu yigit Diyorbakirdan kelgan ermish...*
**Oysanam** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 178-b)
*...Biri manam Oysanam nihol birlan,*
*La’lixon, Musoxon, Oyina-yu Xol birlan,*
*Gulsanamjon yana savsangul birlan,*
*Muruvvat aylangiz sultonlar Oya...*
**Oysulton** (G-1 “Bozirgon” dostoni, kishi nomi, 356-b) *...Bozirgonni bir singlisi bor adi, odina Oysulton dar adilar...*
**Oyxon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 16-b)

*...Yana biriga Oyxon der edilar, ul G'azovotning hokimi erdi...*
**Olibek** (O-4 "Bozirgon" dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 126-bet)
*...Go'ro'g'libekning qahri kelib, darg'azab bo'lub, Olibek, Bolibek, Sarsangbek, Safar ko'sa va qirq yigitini yonig'a olib keta berdi...*
**Olimjon Xorazmiy** (O-1 "Malikai Zavriyo" dostoni, kishi nomi, 280-b.// Shohi Olim 281-b) *...Andin so'ng Olimjon Xorazmiy deb ot qo'ydilar...*
**Olmagul** (G-2 "Zulfizar" dostoni, kishi nomi, 202-b) *...Hashtarxon podshoning qizi Olmagul ana shunday pokiza qizlardan edi...*
**Olmako'z** (G-2 "Gulqizoy" dostoni, hayvon nomi (G'irot) 151-b)
*...Xurosonga o'xshash g'ayri ellarga,*
*Olmako'z otingni sotma jon aka...*
**Oltoy**(liq) (G-2 "Hasanxon" dostoni, joy nomi, 102-b)
*...Bulg'or, O'ris, No'g'aylikdan,*
*Mang'ishlovlik, Saroyliqdan,*
*...Uch oylik yo'l Oltoylikdan,*
*Kelgan odamlari bo'lar...*
**Ominshoh** (O-2 "Shahriyor" dostoni, kishi nomi, 377-b)
*...Ominshohning bu rasmini,*
*Man buzubon tilsimini...*
**Omon arab** (G-1 "Arab tang'an" dostoni, kishi nomi, 129-b)
*...Mening inim bor Omon Arab degan, sho'ngo borib bir ko'ring...*
**Omon jarchi bobo** (G-2 "Gulqizoy" dostoni, kishi nomi, 149-b)
*...shunda Omon jarchi bobo sho'x ola otini o'ynatib, olomonni aylanib, bir so'z deb yuribdi...*
**Oraz**(xon) (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, kishi nomi. 211-b)
*...bu javobni...Orazxon degan yori eshitib Miskin Sharifning izidin kelib, zor-zor yig'lab, bir so'z aydi...*
**Orzu** (O-4 "Avaz gatirgan" dostoni, og'zaki variant , kishi nomi, 244-b)
*...Orzu Qambaridin, kular yuzidin,*
*Yusuf Zulayhodin ayrilmadimu?..*
**Orolxon** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 16-b)
*...Yana biriga Orolxon der erdilar, ul Shovotning hokimi erdi...*
**Orfa** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, buloq nomi, 40-b)
*...Orfa bulog'i degan bir bulog' bor erdi..., ...kofirlara banda bo'lib, Orfa bulog'iga qarab javobni aydi...*
**Osordev** (O-2 "Shahriyor" dostoni, dev nomi, 382-b) *...bir dev bor, otig'a Osordev derlar, oning ustig'a mindirib yuborurman...*
**Otajon bo'lus** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi n 102-b)

*...podshoh unga Otajon bo'lus degan shotirni hamroh qilib yubordi...*

**Otboylar** (G-2 "Gulqizoy" dostoni, Go'ro'g'lining yana bir laqabi, 153-b)

*...Chavandozman mening ismim Otboylar,*
*Xizmatimda bo'lar bir necha boylar...*

**Oshiq Alband** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi va doston nomi, 139-b) *...aning bir o'g'li bor erdi, otig'a Albandjon der erdilar...*

**Oshiqali** (G-2 "Xiromon dali" dostoni, pir nomi, 375-b) *...borib, Oshiqali pirning shogirdi Oydin Yusuf pirga qo'l berib, qirq kun xizmatini qilib, fotihasini olib borsang, ajab ermaski Xiromon dalini yutsang...*

**Oshiq Ahmad** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, kishi nomi 9-b) *...Ozarbayjon viloyatinda ikki kishi bor erdi birini Oshiq Ahmad va yana birini Oshiq Muhammad der erdilar...*

**Oshiq Karam** (G-1 "Xirmondali" dostoni, kishi nomi 297-b)

*...Oshiq Karam derlar maning odima,*
*Sig'inib galmisham pir ustodima...*

**Oshiq Muhammad** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, kishi nomi 9-b) *...Ozarbayjon viloyatinda ikki kishi bor erdi, birini Oshiq Ahmad va yana birini Oshiq Muhammad der erdilar...*

**Oshiq Niyoz** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 173-b)

*...Oshiq Niyoz aytar falak netibdur?*
*Gul mangzim sarg'ayib, rangim yitibdur...*

**Oshig' Oydin pir** (G-1 "Xirmondali" dostoni, avliyo nomi, 278-b) *...u yerda Oshiq Oydin pir degan bor...*

**Oqdev** (G-2 "Balogardon" dostoni, dev nomi, 282-b) *...bulut haybatli katta bir Oqdevni keltirib choqlab, o'zlari Avaz o'g'lonning kelishini kutib, Oqdevning ustiga chiqayotgan edi...*

**Oqil pari** (G-2 "Balogardon" dostoni, pari nomi, 278-b) *...quvalab borib, o'sha Oqil parining sochidan mahkam ushlab qoldi...*

**Oqrabot** (G-2 "Avazxon" dostoni, joy nomi, 141-b) *...gapni qisqaroq qilsak, Oqrabotga ikkinchi kuni kechqurun Go'ro'g'li sulton kirib borib...bir so'z dedi...*

**Oqsuluv** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 239, 245-b. var: Suluv) *...Bo'lmasa Adiga bilan mavosa-mador qilib, Oqsuluv parizod qizini Adigaga mavosa qilmoq kerakdur...*

*yoki:*

*...Kanizingiz bo'ldim man Suluv sizni,*
*Oqsuluv der, To'kashohning hur qizi...*

**Oqchagul** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, kishi nomi, 84-b. //Oqcha kaniz” *...kanizaklarning tilidan Oqchagul degani borib, Yunus pariga qarab, bir so‘z dedi...*

**Og‘abek** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 10-b) *...Isfahon shahrinda Bo‘zo‘g‘lon degan bir podshoh bor erdi. Aning Og‘abek va Bobobek degan ikki sarkardasi bor erdi...*

**Og‘abegi Zamon** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi, 222-b) *...Go‘ro‘g‘li sulton turkmanning to‘qson to‘qqiz biyini qirq yigitlari bilan – takadan og‘abegi Zamonni...chaqirdi...*

**Og‘alibek** (G-2 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi, 16-b) *...Og‘alibek o‘ldirilgandan keyin...elat oqsoqollari yig‘ilib, Jig‘alibek degan bittasini podsho ko‘tardilar...*

**Og‘a Rizo** (G-1 “Kampir” dostoni, kishi nomi, 249-b) *...Go‘ro‘g‘lining otasinnan qolgan bir qarri cho‘pon bor adiki bunga Og‘a Rizo dab od barvadovin adila...*

**Og‘a Yunus pari** //Yunus pari//Yunusjon. G-1 58-betda “Yunus pari” pari nomi sifatida qo‘llanilgan)

*...Jahon podshoning qizi Og‘a Yunus pari bo‘ladi...*

**Palang** (G-2 “Sumbulsoch beka” dostoni, yog‘ochdan yasalgan uchar ot nomi sifatida qo‘llanilgan, 314-b)*...Sumbulsochning darvozasidan bo‘lak yoqdan oshib uchib borish uchun yog‘ochdan Palang ot yo‘nib yotib edi…*

**Papuri Chin** (O-1 “Royi Chin” dostoni, kishi nomi 136-b.//Papur. 141-b)

...Bir podshoh bor erdi. Otini Papuri Chin der edilar...

**Parvardigor** (G- 1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, Olloh sifati ma’nosida, 25 -b)

*...Ey yaratgan Parvardigor, Rahm ayla olima maning...*

**Pari** (O-2 “Shahriyor” dostoni, pari nomi, 395-b)

*...bu qiz maning qizim turur. Oti Pari turur...*

**Pahlavon Mahmud** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi, avliyo 215-b.// Hazrati Polvon – 208-b, Polvon pir – 223-b)

*...Turkistonda yotgan pirim Xo‘ja Ahmad,*
*Sadag‘ang bo‘layin Pahlavon Mahmud...*215-b; yoki:
*...Xorazmda yotg‘on hazrati Polvon,*
*Mushkulim oson et qo‘yma ozora...*223-b

**Piryor** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 283-b.//Polvon pir//Polvon ota//Pahlavon Mahmud//Puryorvali kabi nomlar bilan ham yuritiladi)

*...Ko‘rinmas ko‘zima bu yoqti jahon,*

*Piryor o'g'li yana hazrati Polvon...*

**Piri Zan** (O-2 "Shahriyor" dostoni, kishi nomi o'rnida 422-b qo'llangan, asl ma'nosi "keksa ayol") *...Andin so'ng Shahriyor Gulchehra bilan Piri Zanni aspi Jahongir birla shahri Zarringa olib keldi...*

**Pirim Ali** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, payg'ambar kuyovining nomi//Hazrat Ali, 43-b)

*...Pirim Ali sharobinnan ichirdi,*
*O'lguncha davronni surgil Go'ro'g'li...*

**Pirovun ko'sa** (G-2 "Sarvinoz" dostoni, kishi nomi, 194-b)

*...Vazir Pirovun ko'saning Xunxorga aytgan bu so'zini eshitib...* **Pitnali** (O-1 "Malikai Zavriyo" dostoni, kishi nomi, 289-b)

*...Anda kofirning Pitnali degan bir mahrami bor erdi...*

**Porma vazir** (G-2 "Zulfizar" dostoni, kishi nomi, 220-b)

*...Porma vaziriga: "Agar ajalim yetib o'lib ketsam, o'g'lim Fidoyaxonni podsho ko'tarasan", – deb nasihat qilib...*

**Pormoz vazir** (G-2 "Zulfizar" dostoni, kishi nomi, 202-b)*...Jodugarligini ishga solmoqchi bo'lib, mamlakatni Pormoz degan vaziriga topshirib...*

**Pulsirot** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, ko'prik nomi, 43-b. "Qilko'pir"nomida ham yuritiladi)

*...Eranlar jam bo'lib birdan ko'chdilar,*
*Pulsirot ko'prinnan bir-bir kechdilar...*

**Ravshan** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, Go'ro'g'lining yana bir nomisifatida keltirilgan. Ayrim versiyalarda Go'ro'g'lining otasi nomi sifatida qo'llanilgan, 20-b )

*...Shu sababdan odi ham Ravshan bo'lsin dadi...*

**Ravshan qalandar** (G-1 "Kampir" dostoni, kishi nomi, 220-b) *...ammo Ravshan qalandar gavdanga qaraganda tusung buzuqroq ko'rinadi...*

**Rayhon Arab** (G-1 "Arab Rayxon" dostoni, kishi nomi, 74-b)

*...Go'ro'g'lining Rayhon Arab bilan urishib yengasini qaytarib galish tarixi shunnan iborat...*yoki: *...Rayhon Arab podshog'a solig'ingni aytib, yomon guna qoldiq...*(46-b)

**Rasul** (Rasululloh) (G-1 "Xirmondali" dostoni, Muhammad payg'ambar salallohu alayhi vassalam nomi sifatida qo'llanilgan. Asl ma'nosida Ollohning elchisi, vakilini anglatadi, 296-b)

*...Muborakdur pirim go'rgan ahvoling,*
*Avval galgan Rasulolloh bo'ladir...*

**Rahim** (O-2 " Shahriyor" dostoni, olloh sifati, 359-b)

*...Rahm aylagay o'zi Rahim-u Rahmon,*
*Bilmam bu ish mani ayladi hayron...*

**Rahimberdi**(jon) (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 197-b)

*...Ey yoronlar,bu bachchani xudoy bizlarg'a rahm qilib berdi. Bu bachchaning oti Rahimberdijon bo'lsin...*

**Rahmatulla** (G-2 "Yunus bilan Misqol" dostoni, doston aytuvchi n, 83-b)

*...Rahmatulla bizni ko'rib yuribdi,*
*Ko'rkimizga jilo berib yuribdi....*

**Rahmon** (G-2 "Zulfizar" dostoni, Ollohning sifati, 210-b)

…Yuragini shayton qitiqlab, Rahmon bo'lsa: "Yo'q, shoshma, avval qizni sinab ko'r…"

**Rahmon** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, olloh sifati, 178-b)

*...Oshiq cho'lda bo'lib zori sargardon,*
*Tilarman yorimni qodiri Rahmon...*

**Ra'no** (O-2 " Miskin va Gulqand" dostoni, kishi nomi, 235-b, Gulqandga aytilgan yana bir nom, Ra'no deb ham yuritilgan, 235-b.)

*...Otingni qo'yayin man sani Ra'no,*
*Hurliqojonning yoridur Hamro...*

**Robiya** (O-4 "Erhasan" dostoni, og'zaki variant, kishi nomi, 184-b)

*...shunda Robiya dodi-fig'on qilib, bir she'r aytdi:*
*...Robiya der: sening birla ketayin,*
*Endi dasti domoningni tutayin...*

**Royi Chin** (O-1 "Royi Chin" dostoni, kishi nomi, 136-b) *...vazirning bir o'g'li bor erdi, oni shahzodai Royi Ching'a vazir qilib erdi...*

**Romshohi** (O-1 "Royi Chin" dostoni, kishi nomi, //Romi Soniy, 137-b)

*...Ul aydi: yer ostida bir shahar bor turur, aning bir podshosi bor turur, otini Romshohi derlar...*
*...Madinatul Qa'riya derlar. Podshohini Romi Soniy derlar...*

**Rumiston** (G-1 "Qirq minglar" dostoni, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, joy nomi, //Rum)

*...Qo'rqar arabu Rumiston,*
*Chamlibel ellarim bordur...*(171-b).
*...Eron, Iroq birla Rum, Farangiston,*
*Ohimni eshitib armon ayladi...*(21-b).

**Rustam//**Rustami doston//Sheri Darg'a (G-1 "Arab tang'an" dostoni, kishi nomi, 156-b)

*...Seri Darg'a, Rustam sensan,*

*Jonimmisan, xon Avazim...*

**Rustamsho** (O-2 “Xiromon pari” dostoni, kishi nomi,//Shoh Rustam, 298-b)*...bir podsho bor erdi. Otig‘a Rustamshoh der edilar...*

**Ro‘za** (G-2 “Zulfizar” dostoni, oy nomi, parhez tutiladigan marosim, 203-b) *“Bir gadoy ro‘zachilik bo‘lmasa ham “Yo ramazon” aytib yurgan emish”, – debdi...*

**Ro‘zaxon** (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, kishi nomi, 353, 354-b) *Bitta-bitta: “O‘ris yurtida Ro‘zaxon degan bir singlim bor edi...”,– dedi...*

**Sabzavor** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, joy nomi, 80-b)
*...Men ketarman go‘zal yorga,*
*Nishopuru Sabzavorga...*

**Sabzavor** (O-3 “ Yusuf va Ahmad” dostoni, chashma nomi(gidronim), 13-b) *...necha vaqtlar yo‘l yurib, qirq besh kun deganda Sabzavor otli chashmaning ustidin chiqdilar...*

**Savsan** (O-1 “Royi Chin” dostoni, joy nomi, 146-b)
*...Yuz ohi afg‘onim bor,*
*Yor ko‘yinda jonim bor,*
*Bu sirri nihonim bor,*
*Borsa Savsan, Suman shohi...*

**Savson pari** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, // Gulsavson 175-b, 174-b. Halifai Jahongirning qizi. Bu yerdagi “pari” chiroylilikni ifodalash uchun qo‘llanilgan, bu obraz pari emas)
*...Olg‘il Alband Savson pari salomin,*
*Mani qo‘yding yorim hijron o‘tina...*174-b
*...Gulsavson der: bizni aylading hayron,*
*Buzilg‘on ko‘nglimni san etding vayron...*175-b

**Sayodxon** (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 9-b//“Xonsayod”) *...Qizilolma shaharida Muhammadxon podshoning qizi Sayodxonni ko‘rdim, bunda sani ko‘rdim...*

**Said** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, urug‘ nomi, 445-b)
*...Na Xo‘jadir, na Saiddir, na xondir,*
*Bir kun barisini yutar Go‘ro‘g‘li…*

**Said Muhammad (mohro‘y)** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi va avliyo, 217-b)
*...Yor ketib bo‘sh qoldi saroy,*
*Yorim Said Muhammad mohro‘y...*

**Said Olovuddin** (O-2 " Miskin va Gulqand" dostoni, avliyo nomi, 223-b)
*...Madad bering pirim Said Oloviddin,*
*Mushkulim oson et qo'yma ozora...*
**Said ota** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, avliyo, 182-b)
*...Said ota tutdi qo'limni berda,*
*Yod etarman bevafoning alinnan...*
**Safiullo** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, payg'ambar nomi, 193-b // "Odam ato", "Odami Safiy")
*...Safiullo dunyo uzra endilar,*
*Safiullo mani ozod aylako'r...*
**Saydali (sardor)** (G-2 "Shoqalandar" dostoni, kishi nomi, 329-b)
*...Saydali sardorga qabatiga hoji Sumsor, Mahdiali jodugar va yettita sarbozni qalandar suratida olib kelmak topshirildi...*
**Sayyod (pari)** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, kishi nomi, Gulqandga aytilgan yana bir nom. Ra'no deb ham yuritilgan, 235-b)
*...Hamrojonning yoridur pari Sayyod,*
*Ko'shk ustinda shugun davron surali...*
**Sayfullo (hazrat)** (G-2 "Zulfizar" dostoni, kishi nomi, 214-b) *...Bulg'orlik Sayfullo hazratning nomini faqat uzoqdan eshitib bordilar...*
**Sayfulmuluk** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 64-b) *...Sayfulmuluk yurdi dengizda kezib,*
*Alardin ot qoldi mandin qolmadi...*
**Sayfulmuluk** (O-3 "Gul va Sanobar" dostoni, kishi nomi, 233-b)
*...Sayfulmuluk yurdi necha yil yig'lab,*
*Yorini yodini bag'rina dog'lab...*
**Sakina kaniz** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 152-b)
*...Aning bir mahram kanizi bor erdi, otini Sakina sardor der erdilar...*
**Salbiniyoz** ( O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, kishi nomi, 9-b)
*...Oshiq Ahmadning o'g'lig'a – Hamro, Oshiq Muhammadning qizig'a Salbiniyoz deb nom berdilar...*
**Salsol** (G-1 "Bozirgon" dostoni, kishi nomi, 354-b)
*...Ammo Seiston viloyatinda Salsolni o'g'li Bozirgon degan do'radi...*
**Samarqand** (G-2"Hasanxon" dostoni, joy nomi, 102-b)
*...Joyim Samarqanddan nari,*
*O'sgan joyim Toshkent shahri...*
**Sanam** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 16-b // Shohsanam-13-b//Sanamjon-20-b)
*...Bu so'zdin so'ng Sanam aydi...*
*...Ayro tushdim deyib qayg'u yemagil,*

*Azaldan bir qismat bordur Sanamjon...*

**Sanam** (O-1 “Hurliqo va Hamro” dostoni, kishi nomi, 117-b)

*...oxiri Sanam degan bir kanizagini buyurdi...*

**Sanamjon** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 20-b // Shohsanam 13-b, Sanam 16-b)

...Ayro tushdim deyib qayg‘u yemagil,
Azaldan bir qismat bordur Sanamjon...

**Sandal ot** (O-1 “Edigo” dostoni, ot nomi (zoonim), 206-b)

*...otlarning orasinda bir ot bor erdi. Otga Sandal ot der edilar...*

**Sangar** (G-1 “Avazxon” dostoni, joy nomi, 406-b)

*...Olib kelding qal’a Sangar yurtidin...*

**Sangsor bobo** (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, kishi nomi, 99-b)

*...Gulruxparining Sangsor bobo degan darvozabon qorovuli bor edi...*

**Sanjar baxshi** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, aytuvchi baxshi, 201-b) *...Bu oshiqlar davron surib yota bersinlar, endi so‘zni Sanjar baxshidan eshiting...*

**Sanjar Mozi** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 182-b)

*...Man sango arz etdim yo Sanjar Mozi,*
*Dod etarman parizodning alinnan...*

**Sanobar** (O-3 “Gul va Sanobar” dostoni, erkak kishi nomi, 231-b)

*...Chin shahrinda Xurshidshoh otlig‘ bir podsho bor erdi. Oning Sanobar otlig‘ bir o‘g‘li bor erdi...*

**Saodat**(dev) (O-2 “Shahriyor” dostoni, dev nomi, 395-b)

*...o‘ldirganing Saodat dev turur...*

**Sarvigul** (G-1 “Xandon botir” dostoni, kishi nomi, 319-b)

*...Lashkarboshining Sarvigul degan qizi ko‘rib qoldi...*

**Sarvijon** (G-1 dostoni, kishi nomi, 428-b)

*...ikkinchisiga Sarvijon deb nom berdilar...*

**Sarvinoz** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 184-b // So‘naga nisbatan qo‘llanilgan, 171-b)

*...Istagim Tabrizda So‘na Sarvinoz,*
*Xabar bering sevar yorni ko‘rdingmi?*

S**arvinoz** (G-2 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 135-b)

*...Avazni keltirib berganga qizim Sarvinozni berib, o‘zimga vazir qilib olaman...*

**Sari** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, urug‘ nomi, 57-b)

*...Takami, Yovmitmi, Ko‘klangmi, Sari,*
*Qirq ming uyli bizning turkman ellari...*

**Sari bobo** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, kishi nomi, 78-b)

*...cho‘pon boshini toshga urib, yog‘ochga urib Sari bobo yotgan g‘orga olib bordi...*

**Sari dev** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, dev n, 258-b)

*...Avaz o‘g‘lon...chiqa solib, Sari devga hamla qilib, uning sariq otini isfihoniy xanjari bilan urib, ikki bo‘lib tashladi...*

**Saroy** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, joy nomi, 158-b)

*...Hech qolmasun kulli Saroy,*
*Qo‘ng‘irot, Bog‘ot, Burgutboy,*
*Bahnin, Naymon, Qipchoq, Xitoy,*
*Qishlog‘i bevatan kelsun...*

**Saroy**(liq) (G-2 “Hasanxon” dostoni, joy nomi, 102-b)

*...Bulg‘or, O‘ris, No‘g‘aylikdan,*
*Mang‘ishlovlik, Saroyliqdan,*
*...Uch oylik yo‘l Oltoylikdan,*
*Kelgan odamlari bo‘lar...*

**Sarsangbek** (O-4 “Bozirgon” dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 126-bet // Sorsangsar 143-b)

*...Go‘ro‘g‘libekning qahri kelib, darg‘azab bo‘lub, Olibek, Bolibek, Sarsangbek, Safar ko‘sa va qirq yigitini yonig‘a olib keta berdi...*

**Sarchaman** (**Zarchaman**) (G-1 “Yunus pari” dostoni, bog‘ nomi, 71-b)

*...Go‘ro‘g‘lining Sarchaman odli bir bog‘i bor erdi...*

**Sarhan vazir** (O-2 “Shahriyor” dostoni, kishi nomi, 346-b)

*...Sarhan vazir derlar maning otima,*
*Oh aylasam olam yonar o‘tima...*

**Sarhovuz** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, hovuz nomi, 194-b)

*...So‘najon kanizlari birla bog‘ sayrina ravona bo‘ldilar, Sarhovuz bo‘yig‘a borib, o‘ltirib, kanizlarini yubordi...*

**Sattor** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, olloh sifati, 183-b)

*...Alband aytar: bo‘ldim sabil,*
*Sattor o‘zi bo‘lg‘ay kafil...*

**Safarali ninasoqol** (G-2 “Nuralining yoshligi” dostoni, kishi nomi, 300-b)

*...Qizilboshlarning Safarali ninasoqol degan boshlig‘i bor edi...*

**Safar afg‘on** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 171-b)

*...Lashkarlar arosinda Safar afg‘on degan bir alp bor erdi...*

**Safarboy** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi, 55-b)

*Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal, ey, qaysi birini aytay, bari zo‘r birday...*

**Safar mahram** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi, 54-b Go‘ro‘g‘lining do‘sti, // Safar ko‘sa)

*...indi ikki og‘iz so‘zni Safar mahramdan eshiting...*

**Safi** (O-1 “Hurliqo va Hamro” dostoni, kishi nomi, 121-b // Odam ato, Odami Safiy ma’nosida.

*...Barchaning otasi ul Odam Safiy,*
*Sandin paydo bo‘ldi sonsiz ming vali...*

**Safo** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, kishi nomi, Chaqonning otasi, 174-b)

*…Emreli yurtin sardori,*
*Safo o‘g‘li Choqon kelsin…*

**Safo o‘g‘li Chaqon** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, kishi nomi, 174-b)

*…Emreli yurtin sardori,*
*Safo o‘g‘li Chaqon kelsin…*

**Seiston** (G-1 “Bozirgon” dostoni, joy nomi, 354-b) *...Ammo Seiston viloyatinda Salsolning o‘g‘li Bozirgon degan do‘radi...*

**Seytak** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, kishi nomi, qirq yigitni biri, 183-b)

*...Galavar, hoy, Seytak, Ko‘sa,*
*Quloq solg‘il ushbu sasa...*

**Semurg‘** (G-1 “Tuhmat tashlag‘an” dostoni, afsonaviy qush nomi, 261-b)

*...Bugun minibman belinga,*
*Semurg‘ yali uchgil, G‘irot...*

**Serma** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi, 55-b)

*Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal,ey, qaysi birini aytay, bari zo‘r birday...*

**Sertik** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, kishi nomi, 55-b)

*Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal,ey, qaysi birini aytay, bari zo‘r birday...*

**Setan** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi“dostoni, (uchtan) afsonaviy obraz, 27-b) *Haftan, Setan birla Chiltan,*
*Bu g‘amlardan qutqar mani...*

**Siddiq** (G-2 355-b, O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 100-b, chahoryorlardan biri, to‘liq nomi Abu Bakr as-Siddiq[4]

*...Haqning do‘sti bo‘lgan ul Shohimardon,*
*Abu Bakr, Siddiq, Umar ham Usmon...*

**Siymin** (O-1. “Hurliqo va Hamro” dostoni, bog‘ nomi, 121-b)

[4] Irisov Abdusodiq.Chahoryorlar. –Toshkent. Fan. 1993. –B.6.

*...Hurliqo aydi, ey, Hashtiruh dev,*
*Hamroni Siymin bog'iga olib bor...*

**Siz Bittanga** (G-2 "Shoqalandar" dostoni, laqab ham ism, 339-b)
*...Shuytib odamlar uni Siz Bittanga deb atar yekanlar...*

**Simursa** (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni, kishi nomi, 243-b) *...Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G'avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo'shtemir, Toshtemir degan yel o'pka, tentak olishtoblari bor edi...*

**Solliboy** (G-2 "Chortoqli Chambil" dostoni, kishi nomi, 55-b)
*Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal, ey, qaysi birini aytay, bari zo'r birday...*

**Soro(Sora)** (G-2 "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni, kishi nomi, 411-b, Ibrohim payg'ambarning sevgilisi)
*...Necha yillar totuvliqman bir bo'lib,*
*Ibrohim Sorodan ayrilmadimi?..*

**Soqila** (G-2 "Yosqila" dostoni, kishi nomi, 366-b)
*...Hozir Soqila Gardiston tog'ining nargi betida yashar yekan...*

**Soqi miroxur** (G-2 "Govdaroz dev" dostoni, kishi nomi,164-b, otxona xo'jayini, "amiri"(asarda Miroxo'r tarzida nashr qilingan)
*...shunda Go'ro'g'li sulton Soqi miroxurga qarab, G'irotni Avazxonga abzallab keltirgin, deb bir so'z dedi...*

**Stambul** (Istambul, Istanbul) (G-1 "Arab tang'an" dostoni, joy nomi, 146-b) *...Manmanlik etib, men topdim,*
*Borib Stambulni chopdim...*

**Subhon** (O-2 " Shahriyor" dostoni, Olloh sifati, 352-b)
*...Bir otingdur sani Subhon,*
*Tarahhum aylagil Rahmon...*

**Suvchi kaniz** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 45-b) *...Suvchi degan bir kaniz G'aribning yuzidan ohista kelib, bir bo'sa oldi...*

**Sulaymon** (G-1 "Kampir" dostoni, payg'ambar nomi, 246-b)
*...Taxtga mingan Sulaymonlar,*
*O'chdi, gard o'ldi, gard o'ldi...*

**Sulton** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 43-b)
*...Kavsar soqiysidan sharob ichdilar,*
*Ichgan shohbozlara Sulton dadilar...*

**Sulton Vayis** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, avliyo nomi,

101-b, // Sulton Uvays,Sulton bobo; To‘liq nomi: Sulton Uvays Qoraynin Davlatyor Rahim. “Sulton Uvays” T.G‘ulom nash,1992-yil)

*...Pirim Sulton Uvays ul ibn G‘affor,*
*Rahm aylagil holi-zorima maning...*

**Sulton Tabriziy** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, avliyo nomi 118-b) *Siz borub Sulton Tabriziyni ziyorat qilib o‘lturung...*

**Sulton xubbi** (O-1 “Edigo” dostoni, avliyo nomi, 180-b)

*...Sizlar emish Hakim ota bulbuli,*
*Askar Mahmud, Sulton Hubbi Ervali...*

**Sulton Xubbi** ( O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 37-b)

*...Ko‘pdir bir Ollog‘a nolishim zorim,*
*Sulton Xubbi, bugun bo‘lgil dastgirim...*

**Sultonsho** (O-4 “Oshiq Najab” dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 73-b) *...qadim zamonda Yaman viloyatinda Sultonsho degan bir podsho bor erdi...*

**Suman** (O-1 “Royi Chin” dostoni, joy nomi, 46-b)

*...Ul kun sango ishq etdim,*
*Xunoba jigar yutdim,*
*Dargohinga yuz tutdim,*
*Rahm ayla Suman shohi...*

**Sumbulsoch beka** (G-2 “Sumbulsoch beka” dostoni, doston, kishi nomi, 314-b) *...U rabot Devsafidning makoni edi, o‘zi Sumbulsoch bekaga oshiq edi...*

**Sumsor**(**hoji**) (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi nomi, 329-b) *...Saydali sardorga qabatiga hoji Sumsor, Mahdiali jodugar va yettita sarbozni qalandar suratida olib...kelmak topshirildi...*

**Surxayil** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, kishi nomi, 251-b) *...Xunxorga borib Surxayil xolamni senga keltirib beray...*

**Suhrob** (G-2 “Hasanxon” dostoni, kishi nomi (Rustami dostonning o‘g‘li) 97-b) *...Rustam, Suhrob o‘tib ketgan, ey, loppi,*
*Endigilar hargiz unday bo‘lama...*

**So‘najon** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 295-b) *...Shahzodaning tushig‘a So‘najon degan bir parizod kirib, oshiqi beqaror bo‘ldi...*

**So‘najon** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 171-b // Sarvinoz 184-b)*...Tabriz shahrinda Shoh Mahmudning qizi So‘najonni keltirib, ikkisini bir yerda o‘tqazib, nikoh qilib fotiha berib ketdilar...*

**So‘fito‘rg‘ay** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, qush nomi,

72-b) ...*Shohsanam ul kecha yotti. Erta bilan turub, So'fi to'rg'ayga bir so'z dedi...*

**Taborak** (O-2"Oshiq Alband" dostoni, sur'a nomi, 184-b)

*...Saboqning boshidur sur'a Taborak,*
*So'naning gul yuzi bo'lg'ay muborak...*

**Tabriz** (G-1 "Qirq minglar"dostoni, joy nomi, 169-b)

*...Tabrizda ko'rinur undan nishona,*
*Kajang shoha kulib boqsa zamona...*

**Taka** (G-2 dostoni, joy va urug' nomi, 52-b)

*...Taka bilan Yovmitning o'rtasida Xo'jatov degan qirsimon tog'chaning etagida bir changigan bel bo'lib, bu yog'i Urganch, u yog'i Xunxorgacha...*

**Taka-Turkman** (G-1"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, urug' nomi, 17-b) *Aslim aytsam Taka-turkman bo'laman,*
*Band aylama parizodni yo'lini*

**Talli**(xon) (O-4 "Erhasan" dostoni, og'zaki variant, kishi nomi, 173-b //Tallixon, Bibitarli) …ey o'g'lum, Arzirum shahrindagi *Hasanshohning qizi Tallixon sening oshig'i beqaroringdur…*

**Tansuq** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 89-b)

*...qizlar orosinda Tansuq otli bir kaniz bor erdi...*

**Tarlixon** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, pari nomi, 143-b) // "Bibitarlixon", Tallixon. *...Tarlixon der: yorim yo'ymag'il mannan,*
*Olloh omonatin olmog'il mannan...*

**Tarlon** (G-1 "Yunus pari" dostoni, qush nomi, 59-b)

*...Tarlon bo'lib to'rt tarafga boqayin,*
*Siyo zulfin gardanima taqayin...*

**Taxmiz** (O-1 "Edigo" dostoni, pari nomi, 184-b)

*...Ko'hi Qofda pari Taxmiz,*
*Aning qizi bo'lurmiz biz...*

**Taxmuras** (O-1 "Royi Chin" dostoni, kishi nomi, 157-b)

*...Haqning arslonidur ul Shohimardon,*
*Bobomiz go'yo Taxmuras arslon...*

**Tobiston** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, joy nomi, 52-b)

*...Haq sani saqlasin, bayrama, to'y,*
*Tobiston, Tabriza, Iroqdan, Xoya...*

**Tojik** (G-2 "Qirq yigit bilan qirq qiz" dostoni, xalq nomi, 150-b)

*...Hech nima teng kelmas yurak dardiga,*

*Men oshnaman Tojik, Afg'on, Kurdiga...*

**Toymos** (G-1"Avaz uylangan" dostoni, kishi nomi, 100-b)

*...Toymos bekni hammasina bosh eting,*
*Yiqib qal'alarin, kantin ushoting...*

**Tolliboy** (G-2 "Chortoqli Chambil" dostoni, kishi nomi, 55-b)

*Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal,ey, qaysi birini aytay, bari zo'r birday...*

**Totar** (G-2 "Zulfizar" dostoni, xalq nomi, 213-b) *Tag'in bir to'laga kirsa, ichida totr, qalmoq, o'ris, churchut asir ayollar*

**Toshkent** (G-2 "Hasanxon" dostoni, joy nomi,102-b)

*...Joyim Samarqanddan nari,*
*O'sgan joyim Toshkent shahri...*

**Toshtemir** (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni, kishi nomi, 243-b) *Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G'avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo'shtemir, Toshtemir degan yel o'pka, tentak olishtoblari bor edi...*

**Tohir** (O-4 "Avaz gatirgan" dostoni, og'zaki variant, kishi nomi, 244-b)

*...Layli deyib Majnun cho'llarni kezdi,*
*Shirin deyib Farhod tog'larni qazdi*
*Zuhrajon Tohirdan umidin uzdi,*
*Varqa Gulshodidin ayrilmadimu?...*

**Tulimbiy** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 170-b // Tulimxo'ja,Tulim 173-b) *...amaldorlarning jamoasining ulug'i to'qson ikki to'p mang'itdan Tulimxo'ja degan erdi...*

**Tuni** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, daryo nomi, 84-b)

*...aqcha kanizlarini olib sayrg'a chiqdilar. Tuni daryosining yonig'a borib, Shohsanamning daryog'a qarab bir so'z aytg'oni...*

**Tur** (O-1 "Edigo" dostoni, tog' nomi, 220-b)

*...Tur tog'inda kezgan Muso,*
*Mayram o'g'li hazrat Iso...*

**Turkmaniston** (G-2 "Gulqizoy" dostoni, joy nomi, 152-b)

*...Qoshlarin ustiga o'sma yoqishi,*
*Turkmaniston nozlariga o'xshamas...*

**Turkman eli** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, joy nomi, 16-b)

*...Bir vaqtlar Turkman eli Urganchga qarar edi...*

**Turon** (G-2 "Shoqalandar" dostoni, joy nomi, 334-b)

*...Sendaylar kam o'tgan ro'yi jahonda,*
*Rustam Xurosonda, o'zing Turonda...*

**Tursuntosh** (G-2 “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostoni, kishi nomi, 110-b) *...qirq qiz ham aslahalarini kiya berdi. Kattasining oti Guldona, undan keyingisining oti Xoldona, undan keyingisining oti Tursuntosh, undan keyingisining oti Yalpoqbosh, kichkinasining oti Qalamqosh edi.*

**Temir qoziq** (G-2 “Zulfizar” dostoni, yulduz nomi, 208-b)
*...Biyobonni oralab,*
*Borar yo‘lin saralab,*
*Adashmay deb oqshomlar,*
*Temir qoziqni qoralab...*

**Tehron** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, joy nomi, 165-b) *...Ham Erondan, ham Tehrondan kelgan bor...*

**To‘kashoh** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 204-b, “Alpomish”da Tavka oyim ayol nomi) *...e podshoyim, mundin olti oylik yo‘lda bir shahar bor, podshosini To‘kashoh derlar...*

**To‘tigul** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi, 243-b) *...otamning qizi To‘tigulnikiga burilib, esonlik-tuvaligini so‘rab o‘tay...*

**To‘xtamish ko‘r** (G-2 “Oygulqizning vafoti” dostoni, dev nomi, 274-b) *...aylanib o‘tib Chingiston tog‘ida o‘tirgan To‘xtamish ko‘rning ustiga yetdi...*

**To‘xtamishxon** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 170-b) *...podshoning otig‘a To‘xtamishxon der edilar...*

**To‘qmoq baxshi** (G-2 “Xiromon dali” dostoni, kishi nomi, 389-b) *...falon yo‘rg‘ani minib borib, To‘qmoq baxshini, agar uyida bo‘lmasa, Cho‘qmoq baxshini olib keltir...*

**To‘qmoq sulton** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, kishi nomi, 186-b) *...Ammo uning To‘qmoq sulton dagan bir askarboshisi bor adiki...*

**To‘qqiz duqan** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, joy nomi, 143-b) *...To‘qqiz duqan to‘qqiz tosh yo‘l edi...*

**Uzro** (G-1 “Xandon botir” dostoni, kishi nomi (talmeh), 315-b; G-2 411-b)
*...Zebodur qaddi kamoli,*
*Uzrodek sumbati bordur...*

**Umar**[5] (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, chahoryorlardan biri, 355-b)
*...Abu bakr, Umar, Usmonu Haydar,*

[5] Irisov A. Chahoryorlar. –Toshkent: Fan, 1993. – B 32. (chahoryorlardan birining nomi. To’liq nomi Umar ibn al-Xattob)

*Ali – sheri xudo xizmatga tayyor...*

**Urganch** (O-1“Sayyod va Hamro” dostoni; O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, joy nomi, 270-b)

...Urganch podshosina Hasanxon der edilar ...Kunlardan bir kun nogoh Yusufbekning ot-ovozasi Urganch eliga yetdi..

**Usmon** (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, chahoryorlardan biri, 355-b)

*...Abu bakr, Umar, Usmon-u Haydar,*
*Ali – sheri xudo xizmatga tayyor...*

**Usmonli** (G-1 “Kampir” dostoni, joy nomi, 239-b)

*...Go‘ro‘g‘li Usmonliga chopovulga getganda man jilovdori bo‘lib borganman...*

**Usta Bodom** (G-1 “Xirmondali” dostoni, kishi nomi, 305-b)

*...Karamjonning otasi usta Bodomning uyina qarab yo‘lg‘a ravona bo‘ldilar...*

**Uch gumbaz** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, tog‘ nomi, 28-b)

*...Ravshanbek otni boshini Uch gumbaz dog‘ina karatib buravardi...*

**Uch yuz oltmish** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, avliyolar bilan bog‘liq joy nomi 27-b. oldingi Xorazm xududidagi joy, hozirgi Turkmanistondagi joy nomi)

*Uch yuz oltmish bir avliyo,*
*Bu g‘amlardan qutqar mani...*

**Farang** (G-2 “Hasanxon” dostoni, joy nomi, 92-b, // Farangiston, Fransiya.

*...Arabdan, Xunxordan, Rumdan, Farangdan,*
*Qo‘rqmas ular savlatidan Go‘ro‘g‘li...*

**Farangiston** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi“dostoni, joy nomi, 21-b)

*Eron, Iroq birla Rum, Frangiston,*
*Ohimni eshitib, armon ayladi...*

**Faridun** (G-2 “Zulfizar” dostoni, kishi nomi (talmeh), 206-b)

*...Jamshid, Faridunman Zolu,Rustamzar,*
*Yurtni olgan shoh Iskandar qolmadi...*

**Farxod** (G-1“Avazxon” dostoni, kishi nomi (talmeh), 432-b)

*...Malika Shirindir, Avazxon Farhod...*

**Farrux** (O-3 “Gul va Sanobar” dostoni, kishi nomi, 252-b)

*...Paridur kiygani ekan qirmizi,*
*Oti Lolaguldur, shoh Farrux qizi...*

**Farqis dev** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, dev nomi, 82-b)

*...Shu tog'ning o'ngirida yotgan Farqis dev odamzodning isini olib, chiqib kela berdi...*

**Fidoyaxon** (G-2 "Zulfizar" dostoni, kishi nomi, 220-b)
*...Agar ajalim yetib o'lib ketsam, o'g'lim Fidoyaxonni podsho ko'tararsan...*

**Fotima** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 189-b)
*...Kelib qo'lim oling yo Bibi Hadicha,*
*Yo Fotima-Zuhra, yo Bibi Oysha...*

**Fotimaxon** (G-2 "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni, kishi nomi, 411-b)
*...Suyushgan suydigi jannatning guli*
*...Fotima-Zuhrodan ayrilmadimi?..*

**Fuzuliy** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, shoir taxallusi, 309-b)
*...Xizr istayubon xirsa duchor o'ldi Fuzuliy...*

**Feruz** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, kishi nomi, 107-b) *...Ulug' zaifa tug'g'on o'g'ilning birini Feruz, birini Xurshid qo'ydilar...*

**Xalap** (G-1 "Qirq minglar" dostoni, joy nomi, 168-b)
*..Shirvondan, Shomoqdan yana Xalapdan,*
*Lashkar enib balli-balli galibdur...*

**Xalil** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, payg'ambar nomi, 51-b // Xalilullo, Ibrohim Halil)
*...Xalil kabi jondin kechib,*
*Hajr o'tina solmag'uncha...*

**Xandon botir** (G-1 "Arab tang'an" dostoni, kishi nomi, 123-b)
*Xandor botir kirsa-da, chiqsa-da, xo'nkildi-dunkuldi...*

**Xantla** (G-2 "Yosqila" dostoni, kishi nomi, 366-b)
*...Yosqilaning asl ismi Xantla bo'lib, arab tog'laridan birida tozi ergashtirib, ovchilik qilar ekan...*

**Xardo'z** (G-2 "Gulqizoy" dostoni, Go'ro'g'lining laqabi, 146-b)
*...ana endi Xardo'z Go'ro'g'liga borib aytinglar. Qo'lidan nima kelsa qilsin...*

**Xarosmon** kampir (O-4 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, og'zaki variant, kishi nomi, 22-b) *...Borib bir Xarosmon kampirning xarosini haydab ona-o'g'il bo'lib un chiqarib yuravardi…*

**Xibo** (O-1 "Royi Chin" dostoni, joy nomi, 136-b)
*...Jami Hindiston, ahli Chin-Mochin, Xibo, Xitoy, Xo'tanning shohlari ango tobe erdi...*

**Xiva** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 16-b)
*...Ul shaharlarning har birida bir xon bor erdi. Alardin eng ulug'ini Eralixon der erdilar, ul Xivaning hokimi erdi...*

**Xidir Ilyos** (G-1 "Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi" dostoni, payg‘ambar nomi, 27-b // "Xizr Ilyos", "Xo‘jayi Xidir". Ayrim manbalarda Xo‘jayi Xizir.

*...Himmat sizdan G‘ovsul G‘iyos,*
*Cho‘l egasi Xidir-Ilyos.*

**Xilmon** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 212-b)

*...Xilmon deyur, harna bo‘lsa ko‘rarsiz,*
*Cho‘l maydonda oshsiz-suvsiz o‘larsiz...*

**Xirmondali** (G-1 "Xiromondali" dostoni, kishi va doston nomi, 273-b // (Xiromondali,Xondalli Gulixiromon)

*...Uning bir qizi bo‘lgan. Odini Gulixiromon deb qo‘ygan...*

(G-2 "Xiromondali" dostoni, 370-b) *...qizning ismini Xiromon qo‘ydi... Xiromon dali o‘ziga uch yuz oltmish kanizak,...bir ajoyib chorbog‘ bino qildirdi...*

**Xiromon** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, kishi nomi, 300, 302-b // Sarvixiromon 302-b.

*...Zargar farzandiman otim Xiromon,*
*Hasratingda kuyar jismimdag‘i jon...* 300-b
*...Nogahon kezardim gulli gulshanda,*
*Sarvixiromonim ko‘rdim chamanda...* 302-b

**Xiromon** (O-2 "Miskin vaGulqand" dostoni, kishi nomi, Miskin Sharifning singlisi 210-b)

*...Man qolurman gulday so‘lub,*
*Xiromonni qon yig‘latib...*

**Xisrav** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, kishi nomi, 102-b)

*Misr viloyatinda bir podsho bor erdi. Oning otini Xisrav der erdilar...*

**Xitoy** (G-2 "Hasanxon" dostoni, joy nomi, 97-b)

*...Rumda, Farangda, Xitoy elida,*
*Turkman cho‘llarida, Badbaxt belida...*

**Xo** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, joy nomi, 52-b)

*...Haq sani saqlasin, bayrama, to‘ya,*
*Tobiston, Tabriza, Iroqdan, Xoya...*

**Xoldona** (G-2 "Qirq yigit bilan qirq qiz" dostoni, kishi nomi, 110-b)

*...qirq qiz ham aslahalarini kiya berdi. Kattasining oti Guldona, undan keyingisining oti Xoldona, undan keyingisining oti Tursuntosh, undan keyingisining oti Yalpoqbosh, kichkinasining oti Qalamqosh edi.*

**Xoldor** (G-2 "Chortoqli Chambil" dostoni, kishi nomi, 54-b)

*...Kunlardan bir kun Xoldor degan yigit Go'ro'g'libek bilan gaplashib qoldi...*

**Xoldorbek** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, kishi nomi, 170-b)

*...Otgan o'qi to'qqiz fildan o'tardi,*
*Xosiyatli Xoldorbekdan ko'rganman...*

**Xoljuvonoy** (G-2 "Go'ro'g'lining bolaligi" dostoni, kishi nomi, 42-b)

*...Ahmadbek sardor ...xotini Xoljuvonga olib kelgan...*

**Xon Avaz** (G-1 "Arab tang'an" dostoni, kishi nomi, 143-b, Avazxoning yana bir aytilishi).

*...Xon Avazim qoldi bog'ning gulinda,*
*Parizodim yig'lar Chandibelinda...*

**Xonqa** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 16-b // asli: Xonaqoh)

*...yana biriga Elbarsxon der erdilar, ul Xonqaning hokimi erdi...*

**Xorazm** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, joy nomi, 25-b) *Xorazmda Ibni Hojib,*
*Rahm ayla holima maning...*

**Xorun** (O-4 "Erhasan" dostoni, og'zaki variant, kishi nomi, 215-b)

*...Hasanshohning xazinasi tugul, Xorunni moli ham saning aytgan narsalaringa yetmas...*

**Xorshon** (G-2 "Avaz o'g'lonning Rumga qochishi" dostoni, kishi nomi, 253-b // Xorshonshoh

*...Xorshon podsho oqshom uxlab yotib, tush ko'rib qoldi...*

**Xud** (G-2 "Sarvinoz" dostoni, dengiz nomi, 200-b)

*...Go'ro'g'li sulton shu yurganicha yurib, Xud dengiziga kelib qoldi...*

**Xunkarsho** (G-1 "Arab tang'an" dostoni, kishi nomi, 124-b // Xunxorshoh, Xunxor; *...Bularning bari Xunkarshoning sarpul oyog'lari*;

*...Su vaqtlarda Xunxorshoh dagan podshoning od qozonib dumli-dushni dog'itib, elga egalik atib durg'on vaqtlari adi...* 22-b.

**Xuroson** (G-2 "Hasan ko'lbar" dostoni, joy nomi, 114-b)

*...Undan keyin bechora Hasan ko'lbar Xurosonga Harishoh oldiga bordi...*

**Xurshid** (O-3 "Gul va Sanobar" dostoni, kishi nomi, 231-b)

*...Chin shahrinda Xurshidshoh degan bir podsho bor erdi...*

X**urshid** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, kishi nomi, 107-b)

*...Ulug' zaifa tug'g'on o'g'ilning birini Feruz, birini Xurshid qo'ydilar...*

**Xurshidshoh** (O-2 “Shahriyor” dostoni, kishi nomi, 405-b)

*...va Xurshid shohning saroyina bordi, ko‘rdikim tamomi dev-u parilar uxlab yoturlar...*

**Xo‘blar Xo‘bi** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, karomatli shaxs nomi (Erxubbi) 27-b)

*...Xayrul bashar Xo‘blar Xo‘bi,*
*Qodir Ollohning mahbubi...*

**Xo‘ja** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, urug‘ nomi 445-b)

*Na Xo‘jadir, na Saiddir, na xondir,*
*Bir kun barisini yutar Go‘ro‘g‘li...*

**Xo‘ja Ahmad** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi va avliyo // Ahmad Yassaviy

...Turkistonda yotgan pirim Xo‘ja Ahmad,
Sadag‘ang bo‘layin Pahlavon Mahmud... 215-b
...Xudoning do‘sti Muhammad, Turkistonda Xo‘ja Ahmad... 208-b

**Xo‘ja Ahmad** (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 39-b, bu yerda Oshiq Ahmad ma’nosida)

*...Ahmadni o‘limdan etdingiz xalos,*
*Xo‘ja Ahmad sizdan ko‘p ko‘rdi ixlos...*

**Xo‘ja bog‘bon** (O-4 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, og‘zaki variant, kishi nomi, 16-b)

*...Shohsanamning Xo‘ja bog‘bon degan bir bog‘boni bor erdi...*

**Xo‘ja dog‘i (Xo‘jatov)** (G-1 “Avazning Vayongonga ketishi” dostoni, tog‘ nomi, 207-b; G-2, 52-b)

*Xo‘ja tog‘larning qorisan,*
*Qirmizi guldan orisan,*
*Go‘ro‘g‘lining shunqorisan,*
*Tanimasmu olam sani...* 207-b

**Xo‘ja G‘oyib** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 177-b)

*...Bu yerda Xo‘ja G‘oyib degan kishi yo‘lning kunbotarinda bir quyi soldirib erdi...*

**Xo‘pnishon pari** (var: Xo‘pnishon) (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, pari nomi, 108-b)

*...o‘zi o‘n sakkizga chiqqan, otina Xo‘pnishon pari derlar...*

**Xo‘tan** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, joy nomi,264-b)

*...Ovozang olamning barin tutibdur,*
*Xitoy, Xo‘tandin ham nari o‘tibdur...*

**Xo‘tan** (O-1 “Royi Chin” dostoni, joy nomi, 136-b )

*...Jami Hindiston, ahli Chin-Mochin, Xibo, Xitoy, Xo‘tanning shohlari ango tobe erdi...*

**O‘ja** (G-1 “Kampir” dostoni, tog‘ nomi, 251, 248-b, // Xo‘ja dog‘i

*...Mudomo boshinda dumon,*
*O‘ja dog‘lar joyindami?...*

**O‘zbakiston** (O-1 “Edigo “dostoni, joy nomi, 243-b)

*...Ey bibijon O‘zbakiston yurtidin,*
*Bizning ela ajab o‘g‘lon kelibdur...*

**O‘zbek** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, xalq nomi, 189-b)

*...Saroyda o‘zbek, tojik, arman savdogarlari ko‘p edi*

**O‘rus** (G-2 “Hasanxon” dostoni, yurt va millat nomi, 102-b)

*...Bulg‘or, O‘ris, No‘g‘aylikdan,*
*Mang‘ishlovlik, Saroyliqdan,*
*Uch oylik yo‘l Oltoylikdan,*
*Kelgan odamlari bo‘lar...*

**O‘tagan biy** (O -1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 204-b)

*...O‘tagan biy degan bir biy bor erdi...*

**Chovdir** (O-1 “Edigo” dostoni, joy va urug‘ nomi, 170-b)

*...ul podshoning ayyomida qirq ming uyli Qo‘ng‘irot, qirq ming uyli Qipchoq, qirq ming uyli Mang‘it, qirq ming uyli Uyg‘ur, qirq ming uyli Nayman, qirq ming uyli Qalfoq, qirq ming uyli Nukus qirq ming uyli Qang‘li, qirq ming uyli Xitoy, qirq ming uyli Chovdir bor erdi...*

**Chambil** (Chordog‘li chandibel, Chambilbel, Chamlibel, Chandibel, Chortoqli Chambil, Changlibel) (G-1,G-2 joy nomi, 71, 102, 274, 17, 52, ;52-b) *...Chamlibelda bo‘lsin to‘ylar...;...Bizlar Chordolg‘i Chandibel viloyatinnan, takali turkman elinnan keldik...;*

*...Chamlibel viloyatinda Jig‘olibek degan bek o‘tdi...*

*...Chambilbel viloyatinda do‘ragan Go‘ro‘g‘li degan bir yigit*

**Chamidxon** (G-2 “Zulfizar” dostoni, kishi nomi (jodugar), 202-b)

*...Hashtarxon mamlakatining podshohi Chamidxon degan bir jodugar bo‘lib, singlisi Zebish ikkovi bir ustoddan chiqqan edi...*

**Chiltan** (qirqtan) (G-1, afsonaviy kuchga ega obraz nomi, 27-b // G-2da “Chilton”,”Chihltan” kabi variantlarda ham uchraydi.

*...Haftan, Setan birla Chiltan,*
*Bu g‘amlardan qutqar mani...*

**Chiltan** (O-1 “Malikai Dilorom” dostoni, g‘or nomi, 334-b)

*...ul chashmaning boshinda bir g‘or bor erdi, aning otini Chiltan g‘ori der edilar...*

**Chingiston** (G-2 “Hasan ko‘lbar” dostoni, joy nomi, 114-b)
*...Hasan ko‘lbarni Chingiston podshosi quvalab yubordi...*

**Chini Mochin** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, joy nomi, 243-b, aslida Chin alohida joy Mochin alohida. Ammo matnlarda ko‘pincha yonma-yon ishlatiladi)
*...Ko‘zingni o‘xshatdim olg‘ir lochina,*
*Har bir xoling deyar Chini-Mochina...*

**Chinnixon** (O-4 “Oshiq Mahmud” dostoni, og‘zaki variant, kishi nomi, 115-b) *...otiga Chinnixon deb ot berar edilar, turkman tilida yo‘rg‘on deydi…*

**Choryor** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, 4ta martabali shaxs, 27-b, bu nomning “to‘rt choryor” tazida qo‘llanishida pleonazm (ortiqchalik) hodisasi ro‘y bergan).
*...O‘n ikki imom, to‘rt Choryor,*
*Bu g‘amlardan qutqar mani...*

**Chorjo‘y** (O-4 “Oshiq G‘arib va Hilola pari” dostoni, kitobiy variant, joy nomi, 69-b // Chahorjo‘y)
*...Bir yoni Gurlan, Vazir, Urganch-u Xivani kezib,*
*Chorjo‘y ham Qorako‘l, shahri Buxoroni kezib...*

**Chortoq** (G-2 “Chortoqli Chambil” dostoni, bino nomi, 58-b)
*...shu peshayvonni Chortoq deb qo‘ydi. Sunday qilib, Cortoqli Chambil obodonlashib borar edi...*

**Chortut** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, joy nomi, 230-b) *...tog‘amni bog‘lab, Chortutga olib boringlar...*

**Chohi moron** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, zindon nomi, 307-b)
*...Podshoning bir zindoni bor erdi, sakson gaz, otina Chohimoron der edilar...*

**Churchut** (G-2 “Zulfizar” dostoni, xalq nomi, 213-b)
*...tag‘in bir to‘laga kirsa, ichida totor, qalmoq, o‘ris, churchut asir ayollar...*

**Cho‘qmoq baxshi** (G-2 “Xiromon dali” dostoni, kishi nomi, 389-b)
*...falon yo‘rg‘ani minib borib, To‘qmoq baxshini, agar uyida bo‘lmasa, Cho‘qmoq baxshini olib keltir...*

**Shabgir** (O-4 “Erhasan” dostoni, og‘zaki var, kishi nomi, 193-b, “shab” forschada “tun”, “gir”–“olmoq”.
*...darvozada Shabgir degan bir qul turgan ekan...*

**Shabiston** (O-3 “Gul va Sanobar” dostoni, joy nomi, 232-b)
*...Uch yuz yillik yo‘ldur maning makonim,*
*Bilsang shahri Shabistondin bo‘lurman...*

**Shaydullo** (G-2 “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostoni, kishi nomi, 108-b // “Shaydullo qalandar”

*...Shaydullo qalandar o‘zini Go‘ro‘g‘lining ostida ko‘rdi...*

**Shayton** (G-2 “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostoni, la’natlangan farishta nomi 171-b)

*...Ko‘nglingda bo‘lmasin vos-vos gumoni,*
*Shayton vahm solar qo‘rqma Go‘ro‘g‘li...*

**Shayxi Kabir** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi sifati, 183-b, bu yerda Shayx Najmiddin Kubro nazarda tutilgan.

*Tig‘ ko‘tardi Shayxi Kabir,*
*Alar maning yo‘ldoshimdur...*

**Shayx Jalil** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, avliyo kishi nomi, 180-b)

*...Arz aylaram Shayx Jalil,*
*Yo‘l bering tog‘lar, yo‘l bering...*yoki: (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, avliyo nomi, 216-b)

*...Sadag‘ang bo‘layin yo Shayxi Jalil,*
*Rahm etako‘r holi-zorima maning...*

**Shayx Mansur** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, kishi nomi, 27-b)

*...Shayx Mansur, Mullo Rumiy,*
*Bu g‘amlardan qutqar mani...*

**Shayx Otoyi** (O-4 “Oshiq Mahmud” dostoni, og‘zaki variant, kishi nomi, 113-b, shevada: Shixotoy)

*...Bizlarning yurtimizda Shayx Otoyi degan bir baxshi o‘tgan...*

**Shayx Sharof eshon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 27-b)

*...Yusufbek Alixo‘ja eshonga, Ahmadbek Shayx Sharof eshonga qo‘l berdi...*

**Shayxulislom** (G-1 “Bozirgon” dostoni, diniy mansab nomi, 392-b)

*...Shayxulislom-u, sarkardasi, umarosi-yu fuqarosi bilan Seyistona qarab galavardi...*

**Shayxul Latif** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi va avliyo, 208-b ) *...Pirim erur Shayxul Latif,*
*Yolg‘izim sango topshurdim....*

**Shayx ul Muxtor Vali** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, avliyo nomi, 215-b // Muxtor -215-b.

*...Qadam bosib uydan chiqdim mastona,*
*Shayx ul Muxtor Vali ulug‘ ostona*

**Shams** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, osmon jismi nomi (quyosh), 260-b)

*...O‘zi barno, xulqi oli,*

*Shamsu Qamardir jamoli...*
**Shamsiqamar** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 139-b)
*...Ganji Qorabog‘da bir podsho bor erdi, otig‘a Shamsiqamar podsho der erdilar...*
**Shamsun** (jon, pari) (O-2 “Shahriyor“dostoni, 377, 378-b, pari nomi)
*...Topibon Shamsunjonni,*
*Mevali bo‘stona galdim...*377-b
*...Derlar Shamsun yoring bo‘lsin,*
*Kiygan liboslaring gulgun...*377-b
*...Shamsun pari ham behush bo‘lib yiqildi...*378-b
**Shamshod** (O-2 “Xiromon pari” dostoni, yurt va daraxt nomi, 301-b)
*...Bu husnu jamoling aqlimni olg‘on,*
*Tur ketali bizning yurta Shamshoda...* 300-b
*...Bu soqol taroqi Shamshod yog‘ochidin bo‘lur, yurti Shamshodda erkan...*301-b
**Sharmon biy** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 205-b)
*...Obir mahram aydi: “Ermon biy borsin“, yana biri aydi: “Sharmon biy borsin, yana biri aydi: “Oylabiy borsin”...*
**Shahribonu** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, kishi nomi, 301-b)
*...So‘najonning bir kanizi bor erdi. Otig‘a Shahribonu der edilar...*
**Shahriyori olam** (O-2 “Shahriyor” dostoni, 357-b, kishi nomi)
*...Og‘asining odi Shahsuvori olam, o‘g‘lining odini Shahriyori olam bo‘lsin deb duo qildilar...*
**Shahrizar** (O-2 “Shahriyor” dostoni, joy nomi, 381-b, // Qal’ayi Zarrin. “sariq shahar” degani.
*...Shahrizarni o‘zim yurtlarin ko‘rsam,*
*Olib borib bog‘im yoninda qo‘ysam...*381-b
*...Ul sani qal’ayi Zarringa olib borsin...* 382-b.
*...Man ketarman Sahrizara,*
*Man kelguncha omonda bo‘l...* 383-b
*...Shahriyor Zarrin shahrining darvozasina yetishdi...* 384-b
**Shahsuvori olam** (O-2 “Shahriyor” dostoni, 357-b, kishi nomi)
*...Og‘asining oti Shahsuvori olam, o‘g‘lining odini Shahriyori olam bo‘lsin deb duo qildilar...*
**Sha’bon ibn Shohruh** (O-1 “Hurliqo va Hamro” dostoni, kishi nomi, 112-b)
*...Eram bog‘inda Sha’bon ibn Shohruhning qizi Hurliqoni xudoyi taolo shu yigita qismat qilg‘ondur ...*
**Shirvon** (G-1 “Qirq minglar” 168-b; O-4 “Xirmondali” dostoni, kitobiy variant, joy nomi, 166-b)

*...Shirvondan, Shomoqdan yana Xalapdan,*
*Lashkar enib balli-balli galibdur...*168-b.
*...Xush qol, emdi Safar mahram,*
*Man shahri Shirvona ketam*..166-b.

**Shirin** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, kishi nomi (talmeh), 432-b)
*...Malika Shirindur, Avazxon Farhod,*
*Oshiqlarga besh kun davron ko‘rindi...*

**Shis** (O-2 “Shahriyor” dostoni, payg‘ambar nomi, 390-b)
*...Ruhi pokingga tavajju’ ayladim Shis nabi,*
*Yig‘latibon ketdi mani cho‘li biyobonlar sari...*

**Shish** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, Odam atoning farzandi, 31-b) *...Odamu Havvo ona bahs ayladi farzand uchun,*
*Ul sababdin do‘ragan Shish anbiyodan o‘rgilay...*

**Shovali** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, kishi nomi, 232-b) *...Nishopur qal’asida Chamlibeldan bandilik dan qochib galgan Shovali dagan bir yigit bor adi...*

**Shovot** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, joy nomi, 16-b, asli: Shohobod)
*...Yana biriga Orolxon der erdilar, ul Shovotning hokimi erdi...*

**Shodmon** (mergan) (G-2 “Hasanxon” dostoni, kishi nomi, 92-b)
*...Men eshitdim Shodmon, Asom ketibdi,*
*U hikmatli yoyga talab etibdi...*

**Shozargar** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, kishi nomi, 338-b, asli nomi Hasanxon)
*...Shozargar deb nomim olamga mashhur,*
*Ko‘p kun bo‘ldi manzilgohim shundadir...*

**Shom** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, joy nomi, 175-b; G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, 258-b)
*...Ot solib kezgan har yonda,*
*Iroqda, Shomda, Bolqonda...*

**Shomisqol** (G-2 “Balogardon” dostoni, kishi nomi, 281-b // Misqol pari.)
*...Har kun erta tushar edim salomga,*
*Shomisqol pariday qoshi qalamga...*

**Shomomo** (G-1 “Kampir” dostoni, kishi nomi, 210-b)
*...Kampirning odina Shomomo makkor dab od baradovin adilar...*

**Shomoq** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, joy nomi, 168-b. // Semox//Shamoq// Shamoha//Shemax//Shemaxa// Shomoq)
*...Sirvondan, Somoqdan yana Xalapdan,*

*Lashkar enib balli-balli galibdur...*

**Shomurza** (O-4 “Avaz gatirgan” dostoni, og‘zaki variant, kishi nomi, 229-b, // Shohmirza 296-b)

*...Shomurza der: Avazjona keldingmu?*
*So‘zla – ho, g‘o‘ch yigit nerdan kelarsan...*

**Shoniyoz** (G-2 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 141-b)

*...Hozircha oldimda shu yolg‘izim bor,*
*Shoniyoz qoldi jon otasin ko‘rmayin...*

**Shosh** (G-2 “Hasanxon” dostoni, joy nomi 102-b) *Urganchdan, Samarqanddan, Shoshdan,*
*Buxorodan, Avg‘ondan, Jo‘shdan,*
*Chambil qarab qizilboshdan,*
*Kelar karvonlari bo‘lar...*

**Shoqalandar** (G-1 “Kampir” dostoni, Nishopur qalandarlaridan 221-b, Go‘ro‘g‘li ham shu nomni oladi)ю *...Shunda Shoqalandar Go‘ro‘g‘liga qarab aytdiki, ey Ravshan qalandar, ammo saning ovozing zo‘r akan.* yoki: (G-2 “Shoqalandar” dostoni, doston va kishi nomi, 326-b)

*...Shoqalandar Shaydullo deb yo‘l tortar,*
*Boshiga taqdirning savdosin ortar...*

**Shog‘ol** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, hayvon nomi, zoonim, 23-b) *...Ho‘ Jig‘olibek, zakot bermagan turkman toyifasining boshchisi suvdan chiqqan shog‘oldin bo‘lib, mani aldimda so‘mpayib, nishatip duribsan...*

S**hohabbosxon** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 12-b, // Shoh Abbos, Abbosshoh)

*...Ul shaharning podshosini Shohabbosxon der edilar..* **Shohvazir** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, joy nomi, 26-b) *...Shohabbos Shohsanamg‘a Shohvazir degan joyda ko‘shk yasab, qirq kaniz birlan Shohsanamni o‘shanda qo‘yubtur...*

**Shohvalad** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, turkmancha variantda “Shaveled”, 103-b; Aslida bu nom sun’iy. Shoh valad – shohning avlodi degan ma’nolardan kelib chiqqan)

*...Shoh Abbosxon Shohsanamni Shohvalad deganga berur bo‘ldi...*

**Shohdorxon** (G-2 “Zulfizar” dostoni, kishi nomi, 205-b)

*...Obro‘y berib minib otning beliga,*
*Talab qildi Shohdorxonning eliga...*

**Shohjahon** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, kishi nomi 82-b)

*...Hozir Iram bog‘ida Shohjahon degan podshosi bor...*

**Shohimardon** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, payg‘ambar nomi ma’nosida qo‘llanilgan 38-b)

*...Go‘ro‘g‘li aytar: yo Jabbor,*
*Shohimardon, bo‘l madadkor...*

**Shohi Sulaymon** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, payg‘ambar nomi 91-b, turkmancha variantda “dev-pariga podshoh bo‘lgan” deb yozilgan)

*...Dunyoni bir ko‘zda ko‘rgan,*
*Oqil bo‘lib yurtni so‘rg‘on,*
*Dev sarini dodin bargan,*
*Shohi Sulaymon qolmadi...*

**Shohi Hisravi** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi, 216-b)

*...Bu dunyoda o‘tgan Shohi Hisravi,*
*Rahm eta ko‘r holi-zorima mani...*

**Shoh Mahmud** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 171-b)

*Tabriz shahrinda Shoh Mahmudning qizi So‘najonni keltirib, ikkisini bir yerda o‘tqazib, nikoh qilib fotiha berib ketdilar...*

**Shoh Mashrab** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi va taxallusi, 201-b // Mashrab)

*...Ikki qalandar bor o‘zlari shaydo,*
*Shohi Mashrab bu ishlarni boshladi...*

**Shohnazar** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 13-b)

*...vazirning o‘g‘lini otini Shohnazar qo‘ydilar*

**Shohsanam** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi 13-b, // Sanam 16-b; Sanamjon 20-b)

*...Shohsanam birla Shohnazarni enagaga berdilar...*

**Shohsuvor** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 151-b)

*...Birining otig‘a Yo‘limboy, yana birining otig‘a Elomon, yana birining otig‘a Shohsuvor der edilar.*

**Shumtuyoq** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi laqabi, 170-b, asli oti Kenjaboy ko‘sa 170-b;)

*...Uyg‘ur jamoasidin bir boy bor erdi, otig‘a Shumtuyoq der edilar...*

**Shemox** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, joy nomi, 50-b)

*...Sen yendi bul yerni tark aylab, Shemox shahrig‘a bormasang bo‘lmas...*

**Sheri dar’a** (G-1, 156-b; O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi sifati, Hazrati Ali nazarda tutilgan, 183-b)

*Bahovuddin mehri kulol,*
*Sheri darg‘a yo‘ldoshimdur...*

**Sheri Xudo** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, Alining sifati, 138-b)
*...Hazrati Ali – Sheri Xudo ham meningday ish pitirganmasdi...*
**Sheroz** (O-2 “Asil va Karam” dostoni, joy nomi, 257-b, Asiljonning yurti)
*...Otam Qoramalik asli Sherozli,*
*Otimiz Asilxon xabar ol, yuri...*
**O‘ja** (G-1 “Kampir” dostoni, tog‘ nomi, 248, 251-b; Ayrim variantlarda *“Xo‘ja tog‘”shaklida ham qo‘llanilishi kuzatiladi.*
*...Go‘ro‘g‘li der omon-omon,*
*Sog‘inchimni aylay bayon,*
*Mudomo boshinda dumon,*
*O‘ja dog‘lar joyindami.*
**Qaymos** (O-2 “Shahriyor” dostoni, kishi nomi, 394-b, bu nom erkak kishi nomi, lekin Anjum pari o‘zini shunday tanishtiradi)
*...Maning otim Qaymos turur...*
**Qays** (O-1 “Royi Chin” dostoni, kishi nomi, 163-b, // Majnun
*...Otim Qays erdi, Majnun ot qo‘ydim…deb, qiz erkanin bildirmadi...*
**Qaysar** (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi laqabi, 91-b, Qaysari Rum ma’nosida – talmeh.)
*...Tomoshangga kelur Rum ila Qaysar,*
*Zulfing chin-chin o‘lub har yona o‘sar...*
**Qalamqosh** (G-2 “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostoni, kishi nomi, 110-b)
*...qirq qiz ham aslahalarini kiya berdi. Kattasining oti Guldona, undan keyingisining oti Xoldona, undan keyingisining oti Tursuntosh, undan keyingisining oti Yalpoqbosh, kichkinasining oti Qalamqosh edi.*
**Qalandar** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, kishi nomi, 187-b) // Go‘ro‘g‘li
*...Qalandar so‘zlar so‘zning sozini,*
*Chin ko‘ngilman do‘stga etib rozini...*
**Qaldirg‘och** (G-2 “Bozirgon” dostoni, kishi nomi, 403-b)
*...Ular yo‘l yurib, yo‘l yursa ham, mo‘l yurib Zobiliston yurtiga yetib, so‘roqlab Bozirgon arabning hovlisini topib, bari yig‘lashib, Qaldirg‘ochning oldiga kirishdi...*
**Qaldirg‘och** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 61-b)
*...Anda Yusufbekning Qaldirg‘och oyim degan singlisi bor erdi...*
**Qalmiq** (O-1 “Edigo” dostoni, joy nomi, 204-b)
*...mundin olti oylik yo‘lda bir Qalmiq shahri bor turur...*
**Qalmoq** (G-2 “Zulfizar” dostoni, xalq nomi, 213-b)
*...tag‘in bir to‘laga kirsa, ichida totor, qalmoq, o‘ris, churchut asir ayollar...*

**Qalfoq** (O-1 “Edigo” dostoni, joy va urug‘ nomi, 70-b)

*...ul podshoning ayyomida qirq ming uyli Qo‘ng‘irot, qirq ming uyli Qipchoq, qirq ming uyli Mang‘it, qirq ming uyli Uyg‘ur, qirq ming uyli Nayman, qirq ming uyli Qalfoq, qirq ming uyli Nukus, qirq ming uyli Qang‘li, qirq ming uyli Xitoy, qirq ming uyli Chovdir bor erdi...*

**Qamar** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, kosmonim, 260-b) *...O‘zi barno, xulqi oli,*

*Shamsu Qamardir jamoli...*

**Qambar** (G-1 “Arab tang‘an” dostoni, kishi nomi, 149-b)

*...ana Merom, Qambarlar-da biz ham boramiz deb, otlarini iyarladi...*

**Qambar** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, kishi nomi, 225-b)

*...Yod aylagil ul Rasuli Sarvarni,*
*Yonidin ayirmamish bobo Qambarni...*

**Qandahor** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, joy nomi, 190-b)

*...Yo‘lda qirqtacha tuyani yetaklab, bir qandahorlik tuyachi Go‘ro‘g‘li sultonning oldiga chiqib qolib....unga qarab bir so‘z dedi..*

**Qaroko‘z** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 78-b)

*...necha muddatlar oradin o‘tdi. Banogoh Hamza mirshabning Qaroko‘z degan bir qizi bor erdi...*

**Qashqar** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, joy nomi, 114-b // “Qashqar Qaysar”); (G-2 joy nomi 190-b);

*...Qirg‘iz kelur Namangondin,*
*Qashqar Qaysar degan yerdin...114-b.*

**Qayumars** (O-2 “Shahriyor” dostoni, kishi nomi, 360-b, aslida Kayumars bo‘lishi lozim. Kayoniylar sulolasiga mansub shaxs)

*...Shahsuvor derlar otima,*
*Qayumars derlar zotima...*

**Qaqnus** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, o‘tda yonmas afsonaviy qush nomi, 39-b)

*...Qaqnus kabi ishq o‘tina yonmisham,*
*Kel emdi rahm ayla qula sevdigim...*

**Qahhor** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, olloh sifati, 214-b)

*...Bir oti egamning G‘affor,*
*Yana bir otidur Qahhor..*

**Qa’riya**(jon) (O-1 “Royi Chin” dostoni, pari-ayol nomi, 137-b)

*...Aning bir qizi bor turur, otini Qa’riya nozanin derlar...*

**Qibla** (G-2 “Bozirgon” dostoni, tomon nomi, 399-b)

*...Qibla yoqda Qirim degan darami,*

*Odam degan chetlab keta berami...*

**Qiyomshoh** (O-2 "Shahriyor" dostoni, kishi nomi, 355-b)

*...qadim zamonda o'tgan Qiyomshohning avlodidin...*

**Qizilbosh** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, etnonim, 17-b)

*...Hasrat o'ti urdi ich-u tashima,*
*Qizilboshga bandi bo'ldim, naylayin.*

**Qiziljar** (G-2 "Chortoqli Chambil" dostoni, joy nomi, 58-b)

*...Rayhon arab qochib ketdi bachchag'ar,*
*Uni quvlab Qiziljardan oshirdim...*

**Qiziloyoq** (G-2 "Qirq yigit bilan qirq qiz" dostoni, kishi nomi, 104-b)

*...Go'ro'g'li turkman eliga, Qiziloyoq cho'liga, Chambil beliga xon bo'ldi...*

**Qizilolma** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, joy n, 9-b. // Olma diyor 15-b)

*...ammo yana bir kaming bor. Qizilolma shaharida Muhammadxon podshoning qizi Sayodxonni ko'rdim, bunda sani ko'rdim… Chiqorg'il ko'nguldan Olma diyorin, Hech topmassan kelib g'arib mozorin…*

**Qiyrot** (O-4 "Oshiq G'arib va Hilola pari" dostoni, kitobiy variant, ot nomi, 293-b, // G'irot)

*...ul o'g'lonning ixlosin ko'rib, ko'tarib Qiyrotning sirtig'a midirib, qal'aning tashqarisidin borib, qorimg'a Qiyrotni tutdi. Qirot qorimdan to'rt gaz o'tib tushdi.*

**Qil ko'prik** (G-2 "Shoqalandar" dostoni, ko'prik nomi, 329-b // Pulsirot) *...Barakalla, farosatu fikringga,*
*Qil ko'prikdan qilni topgan Go'ro'g'li...*

**Qipchoq** (O-1 "Edigo" dostoni, joy va urug' nomi, 70-b)

*...ul podshoning ayyomida qirq ming uyli Qo'ng'irot, qirq ming uyli Qipchoq, qirq ming uyli Mang'it, qirq ming uyli Uyg'ur, qirq ming uyli Nayman, qirq ming uyli Qalfoq, qirq ming uyli Nukus, qirq ming uyli Qang'li, qirq ming uyli Xitoy, qirq ming uyli Chovdir bor erdi...*

**Qirimdara** (G-2 "Shoqalandar" dostoni, joy nomi, 338-b)

*...Shunda Shozargar so'z boshlab, mehmonga gap berib o'tiribdi: "Meniki asli Qirimdaradan narida....", – deb turdi...*

**Qirma** (G-2 "Chortoqli Chambil" dostoni, kishi nomi, 55-b)

*Bularning ismlari: Safarboy, Dalliboy, Solliboy, Tolliboy, Serma, Qirma, Mirtik, Sertik, Mutal, Butal, ey, qaysi birini aytay, bari zo'r birday...*

**Qirnoq** (O-2 “Shahriyor” dostoni, kishi nomi, 354-b)
*...Qirnoq aytur, netay jonim,*
*To‘kildi tanda darmonim...*

**Qirqlar** (G-1 “Avazning Vayongonga ketishi” dostoni, Go‘ro‘g‘li guruhi nomi, 200-b)
...Chamlibelda vatan tutdi,
Qirqlar to‘porina tushdim...

**Qobil** (O-1 “Hurliqo va Hamro” dostoni, kishi nomi, 102-b, Odam atoning farzandi)
*...Qobil o‘lturdi tosh bilan,*
*Hobil ham o‘tdi o‘g‘ilsiz*

**Qovus** (G-2 “Shoqalandar” dostoni, oy nomi, 337-b, // Qavs)
*...Qovus kirsa, osmon shovlar,*
*Bulutlarni shamol quvlar...*

**Qodir mavlon** (G-2 “Avazxon” dostoni, Olloh sifati, 122-b)
*...Go‘ro‘g‘li qolmasin hayron,*
*Qo‘lim tutgil Qodir mavlon...*

**Qozoq qal’asi** (O-2, joy nomi, 95, 96-b)
*...Muni Shirvonga olib borguncha o‘zim olsam bo‘lmasmu? – deb, Qozoq qal’asiga olib ketti...*(95-b)
*...Emdi mani qabul qilg‘il, sani Qozoq shahrig‘a olib keldim...*(96-b)

**Qora aka** (G-2 “Yunus bilan Misqol” dostoni, kishi nomi, 79-b, // “Qora bobo”)
*...Magar bu dardingni davosini Qora akamdan so‘rasam, bilsa ham ajab emas”, – dedi Sari bobo...*

**Qora alam buva** (O-2 “Miskin va Gulqand” dostoni, avliyo nomi, 223-b)
*...Madad bering o‘ttiz uch ming sahoba,*
*Madad bering pirim Qora alam buva...*

**Qora budoq** (O-1 “Sayyod va Hamro” dostoni, kishi nomi, 9-b)
*...Qora budoq degan bir savdogar bor erdi.*

**Qora dali** (O-4 “Avaz gatirgan” dostoni, og‘zaki variant, kuy nomi, 233-b)
*...Go‘ro‘g‘li dutorni istab-sog‘ingan amasmi, “Qora dali” kuyini chalib boshladi...*

**Qoradev** (G-1 “Tuhmat tashlag‘an” dostoni, dev nomi, 262-b; G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” 258-b)
*...Qora dev, qochg‘il yo‘limdan,*
*Qo‘lda sadoqlarim mening...*

**Qorajon** karvonboshi (G-1 “Xirmondali” dostoni, kishi nomi, 305-b)
*...Qorajon karvon degan bir karvonboshisiga yo‘liqdi...*
**Qorako‘l** (O-4 “Oshiq G‘arib va Hilola pari”, joy nomi, 69-b)
...Bir yoni Gurlan, Vazir, Urganch-u Xivani kezib,
Chorjo‘y ham Qorako‘l, shahri Buxoroni kezib...
**Qoramalik** (O-2 “Asil va Karam” dostoni, kishi nomi, shoh, 257-b, Asiljonning otasi)
*...Otam Qoramalik asli Sherozli,*
*Otimiz Asilxon xabar ol, yuri...*
**Qoratulpor** (G-2 “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, ot nomi, 259-b)*...Kun peshin bo‘lgan pillada Qoradev Qoratulporini minib, chor-atrofni qop-qora tuman qilib, osmonu zaminni titratib, ko‘prikka kelib qoldi...*
**Qoraxon barzangi** (G-1 “Bozirgon” dostoni, kishi nomi, 368-b)
*...Qoraxon barzangi degan bir yomon yovim bor, dadi...*
**Qoromon** (O-4 “Erhasan” dostoni, og‘zaki variant, kishi nomi, 195-b)
*...ot-aravalarga oziq-ovqatlarni yuklab, bu qo‘shinga Qoromon degan sarkardani bosh qilib, ayti...*
**Qosim (vazir)** (O-1 “Hurliqo va Hamro” dostoni, kishi nomi, 102-b)
*...podshoning bir vaziri bor erdi, aning otini Qosim vazir der erdilar...*
**Quyosh** (G-2 “Sarvinoz” dostoni, osmon jismi nomi, 198-b)
*...Oy bilan Quyoshga bo‘lib parvozing,*
*Osmonda havolab uchmoqda nozing...*
**Qulxo‘ja** (G-1 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 399-b)
*...Qulxo‘jadan ruxsat tilar, or bo‘lma,*
*Begim, sandin ruxsatimni tilarman...*
**Qumursa** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi, 243-b)
...Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G‘avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo‘shtemir, Toshtemir degan yel o‘pka, tentak *olishtoblari bor edi...*
**Quraysh** (O-1 “Malikai Zavriyo” dostoni, ilon nomi, 267-b)
*...Do‘zax ichinda Quraysh otlig‘ ilondin qo‘rqmasmusen...*
**Qurudum** (G-2 “Ro‘zaxon” dostoni, joy nomi, 355-b)
...Buldurab kelasan ko‘zim oldiga,
*Kish-ho, kish-ho, Qurudumning chivini...*
**Qur’on** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, muqaddas kitob nomi, 43-b, // Kalomullo 66-b)

*...ey o‘g‘lim bu Qur’ondan, imondan ko‘p gaplading...*

**Qushgo‘zi** (G-1 “Xirmondali” dostoni, o‘simlik nomi, 294-b)

*...yo ino shu qirning oryonida qushgo‘zi, yontoq ko‘p...*

**Qo‘ng‘irboy** (G-2 “Avazxon” dostoni, kishi nomi, 123-b)

*...U turkmanga ketayotganda Qo‘ng‘irboy degan bir ukasi bor edi...*

**Qo‘ng‘irot** (O-1 “Edigo” dostoni, joy nomi, 170-b)

*...Qo‘ng‘irot degan shaharda bir podsho bor erdikim, ziyoda ulug‘ podsho erdi...*

**Qo‘shdarband** (G-1 “Bozirgon” dostoni, joy nomi, 370-b)

*...Qo‘shdarband degan dog‘ning g‘orina Bozirgon o‘tadigan yo‘lning urini borib, qo‘sh tashlab yotavardi...*

**Qo‘shtemir** (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi, 243-b)

*Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G‘avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo‘shtemir, Toshtemir degan yel o‘pka, tentak olishtoblari bor edi...*

**Qo‘qon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, joy nomi,113-b)

*Lashkarim kelar har yondin,*
*Shomi sharif Andijondin,*
*...Andijonu Marg‘ilondin,*
*Qirq ming uyli Qo‘qon kelur...*(113-b)

**Eymir** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, joy nomi, 92-b)

*...Arzimni eshiting turnalar shohi,*
*Bor Eymir elidin Bo‘zo‘g‘lon kelsun...*

**Elbarsxon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 16-b)

*...yana biriga Elbarsxon der erdilar,ul Xonqaning hokimi erdi...*

**Elomon** (O-2 “Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 151-b)

*...Birining otig‘a Yo‘limboy, yana birining otig‘a Elomon, yana birining otig‘a Shohsuvor der edilar...*

**Emreli** (G-1 “Qirq minglar” dostoni, joy va urug‘ nomi, 174-b)

*...Emreli yurtni sardori,*
*Safo o‘g‘li Chaqon kelsin...*

**Erali** (boy) (G-2 “Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi” dostoni, kishi nomi, 236-b)*...Bundan bir yil ilgari bir Eraliboy degan boyning tuyasiga qo‘tir tegib, echkisiga o‘pka tegib, qirilib ketib, tuya va echkilarining suyagi Chortutda uyulib yotar edi...*

**Eralixon** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 10-b)

*...Ul shaharlarning har birida bir xon bor erdi. Alardin eng ulug‘ini Eralixon der erdilar...*

**Eram bog'i** (G-1 "Yunus pari" dostoni, bog' nomi, 68-b // Bog'i Eram)
...Og'a Yunus maning odim, Eram bog'i ko'ngil shodim...
**Ermon biy** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 205-b)
*...Obir mahram aydi: "Ermon biy borsin ", yana biri aydi: "SHarmon biy borsin", yana biri aydi: "Oylabiy borsin"...*
**Eron** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, joy nomi, 21-b)
*...Eron, Iroq birla Rum,Farangiston,*
*Ohimni eshitib, armon ayladi...*
**Ersari** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, urug' nomi, 16-b)
*...Undan keyin Taka, Yovmit, Ersari, Ko'klang turkmanlarining oqsoqollari bir joyga yig'ilib...*
**Er Xizir** (G-2 "Go'ro'g'lining bolaligi" dostoni, kishi nomi, (Xizirning nisbati) 48-b)
*...Bu yer Er Xizirning tog'i bo'ladi,*
*Kim yiqsa shu otni yutib oladi...*
**Erqiljim** (G-2 "Xirmon dali" dostoni, joy nomi, 371-b)
*"...Uyi Erqiljim qishlog'ida",-dedilar.*
**Erhasan** (G-1 "Go'ro'g'lining Darbandga ketishi" dostoni, kishi nomi, 438-b) *...Erhasanlar bir to'p yigitlar bilan bir yonqa o'vrinib chiqdi...*
**Eshmat** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 181-b)
*...Anda qizlar aydilar: bizlar mulla Eshmatni topib keltirurmiz...*
**Eshtemir** (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni, kishi nomi 243-b) *...Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G'avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo'shtemir, Toshtemir degan yel o'pka, tentak olishtoblari bor edi...*
**Yulduz** (G-1 "Qirq minglar" dostoni, tog' nomi, 179-b)
...Go'ro'g'li qirq yigiti bilan Yulduz dog'ini tagina galayotirib *G'irotina go'zzi tushdi...*
**Yunus** (O-1 "Royi Chin" dostoni, payg'ambar nomi 141-b )
*...Lut kabi, Yoqub, Shiis, Hazrati Yahyo pirim,*
*Yunus kalimullo, Muso sango topshurdim yolg'izim....*
**Yunus pari** (Og'a Yunus pari, Og'a yunus) (G-1 "Yunus pari" dostoni, pari nomi 57-b) *...Yunus pari bilan bosh qo'shganining tarixi shunnan iborat...*
**Yusuf** (G-2 "Avazxon" dostoni, payg'ambar nomi, 144-b)
*...Avazxonning ko'zi misoli olmos,*
*Yusufdan boshqasi undan o'tolmas...*

**Yusufbek** (O-3 “Yusuf va Ahmad” dostoni, kishi nomi, 10-b)

...Shukr aylagil ziyod etdi davlating,
Sening o‘g‘ling oti Yusufbek bo‘lsin…

**Yusuf Kutvor** (O-1 “Edigo” dostoni, kishi nomi, 249-b)

*...Ersa To‘kashoh Yusuf Kutvor birlan Olmaskay mahramini o‘n ming lashkarg‘a bosh qilib, Adiganing yonig‘a qo‘shib, xayr qildi...*

**Yusuf shoh** (G-1 “Avaz uylangan” dostoni, kishi nomi, 112-b, // Yusufsho;124-b

*...Yusufshohning yurtinnan Buldur qassobning o‘g‘li Avazxonni keltirganman...*

**Yazid shoh** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni, kishi nomi, 450-b)

*...Qadding bukulibdur misli yoy kabi,*
*Ko‘ngling baland tutma Yazid shoh kabi...*

**Yalpoqbosh** (G-2 “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostoni, kishi nomi, 110-b)

*...qirq qiz ham aslahalarini kiya berdi. Kattasining oti Guldona, undan keyingisining oti Xoldona, undan keyingisining oti Tursuntosh, undan keyingisining oti Yalpoqbosh, kichkinasining oti Qalamqosh edi.*

**Yaman(viloyati)** (O-2 “Shahriyor” dostoni, joy nomi, 343-b)

*...qadim zamonda Yaman viloyatinda bir podsho bor erdi…*

**Yasmuq momo** (O-2“Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 41-b) *...G‘aribni eltub Yasmuq momog‘a topshurg‘il...*

**Ya’qub** (O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, payg‘ambar nomi, 100-b, // Yoqub , hazrati Yoqub)

*Yusufning otasi hazrati Ya’qub,*
*Rahm aylagil holi-zorima maning...*

**Havvo** (G-1 “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni, Momo Havvo, 27-b, Odam atoning rafiqasi)

*....Otam – Odam, onam – Havvo...*

**Havzi kavsar** (O-2, jannatdagi ilohiy hovuz nomi, 86-b. Asli “Kavsar” qismi atoqli ot bo‘lib, yuqoridagi shaklda keng qo‘llangan. Ba’zan “buloq” ma’nosida ham ishlatiladi...

*...Hajr dashtida qolibman tashnalab ey do‘stlar,*
*Havzi kavsar soqiyi muxtordin ayrilgali...*

**Havoli qir** (G-1 “Avazning Vayongonga ketishi” dostoni, ot nomi, 207-b)

*..Havoli qir otini do‘g‘rilivardi...*

**Hazar** (G-2 “Rayhon arab” dostoni, Orol dengizining qadimgi nomi, 64-b)

*...Qirq gaz baland uchib kechsak Hazardan,*

*Rayhon anda lol bo'p qolib o'tolmas...*

**Hazorasp** ( O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, joy nomi, 27-b)

*...Eralixon Yusufbekni Xorazm eliga bek qildi, Ahmadbekni Hazorasp shahrig'a bek qildi...*

**Hazrati Muso** (Muso) (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, payg'ambar nomi, 100-b)

*...Haqning bir rasuli Hazrati Muso,*
*Oy nuridan bo'lg'an Hazrati Iso ...*

**Hazrati Odam** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, (Odam ato) payg'ambar nomi, 72-b)

*...Otamiz Hazrati Odam, G'aribim senga topshurdim...*

**Hazrati Polvon** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, avliyo shaxs nomi, 215, 208-b // Polvon pir; Puryovali; Piryorvali; Pahlavon Mahmud 215-b)

*...Yo pirim Hazrati Polvon, Yolg'izim sango topshurdim...*

**Haybar** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, joy nomi, 225-b)

*...Hiyla bilan olgan shahri Haybarni,*
*Yetishako'r Shohimardon yo Ali...*

**Haydar** (G-2 "Ro'zaxon" dostoni, kishi nomi, 355-b)

*...Abu Bakr, Umar, Usmon-u Haydar,*
*Ali sheri xudo xizmatga tayyor...*

**Haydari Karror** (O-2 "Xiromon pari" dostoni, Hazrat Alining sifati, 337-b) *...Xudoning sheridur Haydari Karror,*
*Alardin bashorat qiling azizim...*

**Hakim ota** (O-1 "Edigo" dostoni, avliyo nomi, 179-b)

...yo'lg'a ravona bo'ldilar. Qazodin bularning yo'li Hakim ota alayhirrahmaning ustidan tushdi...

**Halab** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, joy nomi, 40-b, // Halab Shirvon 69-b) (aslida alohida nomlar)

*...Halabda qoldi vatanim,*
*Gumondir emdi ketanim Yor*
*ila suhbat etanim,*
*Qadimdagi chog'lar qoldi...*
*...Emdi sen Halab shahrig'a ketsang tuzuk bo'lg'ay...*69-b,
*Aqcha aydi: sizlar Halab Shirvon borsangizlar...*

**Halima** (G-2 "Xirmon dali" dostoni, Muhammad s.a.v.ning doyasi nomi 382-b) *...Bir tomchi suv insonning xamir moyasi,*
*Halimadir haq rasulning doyasi...*

**Halifai Jahongir** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 172-b)

*...yo bo'lmasa Halifai Jahongirning qizini olib berayin, otini So'na qo'yi sevar yor qilsang bo'lmimi...*

**Hamdam vazir** (G-1 "Avazxon" dostoni, kishi nomi, 414-b)

*...Dali Mehtar, Hamdam vazir kelmadi...*

**Hamro** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 160-b)

*...Guliasror aydi: Hurliqo bilan Huriza'faron Hamrog'a oshiq bo'ldi...*

**Hamro** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, kishi nomi, 9-b, // Oshiq Hamro 10-b. Bu nom Hurliqo va Hamro dostonida ham bor)

*...Oshiq Ahmadning o'g'liga – Hamro, Oshiq Muhammadning qizig'a Salbiniyoz deb nom berdilar...*

**Hanqo** (O-3 "Yusuf va Ahmad" dostoni, g'or nomi, 152-b)

*...yetti yildan beri Hanqo g'orida xalqlarga ko'rinmay, ko'r bo'lub yig'lab yotibdur...*

**Hari** (G-2 "Sarvinoz" dostoni, joy nomi, 191-b, uning shohi Harishoh)

*...Buni ko'rib Haridan, Urganchdan kelgan o'zbeklar ham : "Voysilqoraning yo'liga", – deb...Go'ro'g'li sultonga beraverdi...*

**Harishoh** (G-2 "Hasan ko'lbar" dostoni, kishi nomi, 114-b)

*...Undan keyin bechora Hasan ko'lbar Xurosonga Harishoh oldiga bordi....*

**Hasan** (O-1 "Malikai Dilorom" dostoni, kishi nomi, avliyo, 326-b)

*...Alining farzandi yo imom Hasan,*
*Payg'ambarning sevar avlodi sensan...*

**Hasanbek** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 16-b) *...Qizilboshlarning podshosi Xunxorshoh Gajdumbek bilan Hasanbekni tekshirib...*

**Hasan ko'lbar** (G-2 "Hasan ko'lbar" dostoni, kishi va doston nomi, 114-b) *...Chingiston viloyatinda Hasan bo'lg'or, Hasan ko'lbar degan ikki akali-ukalilar bor edi...*

**Hasan bo'lg'or** (G-2 "Hasan ko'lbar" dostoni, kishi nomi, 114-b) *...Chingiston viloyatinda Hasan bo'lg'or, Hasan ko'lbar degan ikki akali-ukalilar bor edi...*

**Hasan Oshiq** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi 120-b) *...Halab Shirvonda bir bobo Hasan Oshiq degan bor erdi...*

**Hasanxon** (G-2 "Hasanxon" dostoni, kishi nomi, 99-b)

*...Shunday suluv, qirq kokilli Hasanxon,*
*Yangi kirgan o'zi o'n ikki yoshga...*

**Hasan chopson** (G-2 "Qirq yigit bilan qirq qiz" dostoni, kishi nomi,

109-b) *...Shunda Go'ro'g'li: "Endi sening oting Shaydullo bo'lmasin, Hasan chopson bo'lsin...", -dedi...*

**Hasan shoir** (O-4 "Avazning keltirilishi" dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 299-b) *...onda kaniz aydi: Yusufshohning baxshisi turur, odig'a Hasan shoir derlar...*

**Hasanshoh** (O-4 "Erhasan" dostoni, og'zaki variant, kishi nomi, 197-b) *...Ertasi tong saharda Hasanshoh qirq ming lashkar bilan Qoromonning yotg'on yerina yetib keldi...*

**Hasan-Husan** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 101,105-b)

*Hasan birla Husan shohidu shodmon,*
*Hamrohimi bo'libdur qorong'i zindon,*
*...Ki pirlardan Ali sheri xudo bor,*
*Hasan birla Husayin karbalo bor...*

**Hafdarxon** (G-2 "Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi" dostoni, kishi nomi, 171-b)

*...Xunxor zolim asli katta podsho emasmi, o'ziga qarashli o'nta podshosidan qo'shin to'plab, Rayhon arab, Rum, Gurjiston, Hafdarxon, Hashdarxon, Saray podsholariga: "bir Go'ro'g'li degan yomon ofat chiqibdi. Shuni zo'rayib ketmay daf qilmoq kerak....", -deb darak qildi...*

**Haftan** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, "7 tan" afsonaviy kuchga ega obraz, 27-b)

*...Haftan, Setan birla Chiltan,*
*Bu g'amlardan qutqar mani...*

**Hashtarxon** (G-2 "Hasan ko'lbar" dostoni, kishi nomi, 114-b)

*...Undan keyin Hasan ko'lbar Hashtarxon podshosiga kelib, xizmat qilishini aytib arz qildi...*

**Hashtiruh dev** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, dev nomi, 121-b )

*....Hurliqo aydi, ey, Hashtiruh dev, Hamroni Siymin bog'iga olib bor...*

**Haq** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, Ollohning sifati, 49-b) *Haqdan o'zga kimga aytay dodimni,*
*Hech kim bilmas siynamdagi o'timni...*

**Hilol(a) pari** (O-4 "Oshiq G'arib va Hilola pari" dostoni, kitobiy variant, kishi nomi, 47-b)

*...podshoning bir qizi bor edi. Otini Hilola pari der erdilar...*

**Hiloloy** (G-2 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, kishi nomi, 19-b)

*...Ana endi shuytib qizilboshlar Ravshanbekni qul bozoriga olib bora bersin, bir-ikki og'iz so'zni Hiloloydan eshiting...*

**Hindiston** (O-1 "Royi Chin" dostoni, joy nomi, 136-b) *...Jami Hindiston, ahli Chin-Mochin, Xibo, Xitoy, Xo'tanning shohlari ango tobe erdi...*

**Hirot** (O-1 "Malikai Zavriyo" dostoni, joy nomi, 263-b)
*...to'rt shaharaning farmoninda erdi: Turkiston, Iroqiston, Zulumot, Hirot tobelari edi...*

**Hobil** (O-1 "Hurliqo va Hamro" dostoni, kishi nomi, 102-b, Odam atoning farzandi)
*...Qobil o'lturdi tosh bilan,*
*Hobil ham o'tdi o'g'ilsiz...*

**Hovdak** (G-2 "Go'ro'g'lining bolaligi" dostoni, ko'l nomi, 42,146-b)
*...Hovdak ko'lning so'nasi bor, g'ozi bor,*
*Sozandaning alvon xilda nozi bor...*

**Hojar** (O-1 "Edigo" dostoni, kishi nomi, 188-b)
*...Qo'lim tutgil Bibisora yo Hojar,*
*Najot bering yomon darda uchradim...*

**Hojot** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, olloh sifati, 239, 225-b)
*...Barchani yaratgan qozi ul Hojot,*
*Mushkulim oson et qo'yma ozora...*(239-b)
*...San bilursan holimni ul Hojot,*
*Barchaning tilagin ayla mustajob...*(225-b)

**Hotam** (G-1 "Arab tang'an" dostoni, "Kampir" dostoni, saxiylikda nom taratgan shaxs nomi, 156,263-b)
*...O'g'lim, bugun Hotam sensan,*
*Og'a-ini, otam sensan...*

**Hubbil Maston** (G-2, jodugar nomi, 326-b, // "Hubbilxon"-342-b)
*...oxir ham Mamadalibekka: "Taqsir bu ishni Hubbil maston bajarar",-deyishdilar...*

**Huriza'faron** (O-2, O-1, "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 160-b)
*...Guliasror aydi: Hurliqo bilan Huriza'faron Hamrog'a oshiq bo'ldi...;...Bulbuligo'yoning ovozini Huriza'faron eshitdi...*

**Hurliqo** (O-2 "Oshiq Alband" dostoni, kishi nomi, 160-b) *...Guliasror aydi: Hurliqo bilan Huriza'faron Hamrog'a oshiq bo'ldi...;*

**Husain vazir** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 12-b)*...podshoh bilan Husain vazir ovga chiqtilar...*

**G'avron** (G-2 "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni, kishi nomi

243-b) *...Qirq yigitlarning Marim, Mavron, G'avron, Davron, Simursa, Qumursa, Eshtemir, Qo'shtemir, Toshtemir degan yel o'pka, tentak olishtoblari bor edi...*

**G'azovot** (O-3 "Yusuf va Ahmad' dostoni, joy nomi, 16-b, asli: G'oziy obod) *...Yana biriga Oyxon der edilar, ul G'azovotning hokimi erdi...*

**G'ammos** (O-1 "Sayyod va Hamro" dostoni, kishi nomi, 52, 55-b, var: G'ammoz cho'ri)
*...Sayodxonning bir G'ammos qirnog'i bor*
*erdi; G'ammos cho'ri borib Sayodxona aydi..*

**G'arib** (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, aslida laqabi yoki taxallusi 13-b, var: G'aribjon, Miskin G'arib 123-b)
*...yetimlig'idin Shohnazarning oti G'arib qoldi...*

**G'affor** (O-2 "Miskin va Gulqand" dostoni, olloh sifatlaridan, 214-b)
*...Bir oti egamning G'affor,*
*Yana bir otidur Qahhor...*

**G'irko'k** (G-2 "Go'ro'g'lining bolaligi" dostoni, ot nomi, 47-b)
*...ko'ylakni qalandarlarning qo'lidan ola solib, abil-g'ubil kiya solib, ko'ylakning yoqasidan boshini chiqara solib qarasa , G'irko'k oti yo'q, qalandarlar ham yo'q...*

**G'irot** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, ot nomi, 38-b)
*...Otam sanga bir so'z aytsam,*
*Arazdan otladi G'irot...*

**G'irtoy** (G-1 "Kampir" dostoni, ot nomi, 244-b)
*...Go'ro'g'li mindi G'irtoya,*
*O'qini ildirdi yoya...*

**G'ovsul-G'iyos** (G-1 "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni, diniy martabaga ega shaxs nomi, 27-b)
*...Himmat sizdan, G'ovsul-G'iyos,*
*Cho'l egasi Xidir Ilyos...*

**G'ulom** (O-2 "Shahriyor" dostoni, 356-b, kishi nomi)
*...G'ulom dersizlar otima,*
*Quloq soling faryodima...*

**G'ulomjon** (O-3 "Hurliqo va Hamro" dostoni, kishi nomi, 262-b)
*...to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz daqiqada bir o'g'il bo'ldi, otini G'ulomjon qo'ydi...*

## SHARTLI QISQARTMALAR IZOHI

**G-1** – Go'ro'g'li. Xorazm nashriyoti - 2004. Mas'ul muharrir prof. S.R.Ro'zimboyev. Nashrga tayyorlovchilar: S.S.Ro'zimboyev, X.S.Ro'zimboyev, G.O.Eshjonova.

**G-2** – Go'ro'g'li. Toshkent-2006. Nashrga tayyorlovchilar: To'ra Mirzo va Zubayda Husainova. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li.

**O-1** – Oshiqnoma. Urganch -2006. Mas'ul muharrir prof. S.R.Ro'zimboyev. Nashrga tayyorlovchilar: S.R.Ro'zimboyev, G.O.Eshjonova, S.S.Ro'zimboyev, 1-kitob. Xorazm nashriyoti. 2006.

**O-2** – Oshiqnoma. Urganch -2006. Mas'ul muharrir prof. S.R.Ro'zimboyev. Nashrga tayyorlovchilar: S.R.Ro'zimboyev, G.O.Eshjonova, S.S.Ro'zimboyev, 2-kitob. Xorazm nashriyoti. 2006.

**O-3** – Oshiqnoma. Urganch -2008. Mas'ul muharrir prof. S.R.Ro'zimboyev. Nashrga tayyorlovchilar: S.R.Ro'zimboyev, A.Ahmedov, S.S.Ro'zimboyev, 3-kitob. Xorazm nashriyoti. 2008.

**O-4** – Oshiqnoma. Urganch -2009. Mas'ul muharrir prof. S.R.Ro'zimboyev. Nashrga tayyorlovchilar: S.R.Ro'zimboyev, X.S.Ro'zimboyev, N.Matyozova, N.Raimova 4-kitob. Xorazm nashriyoti. 2009.

Qog'oz bichimi: 60×84 $^1/_{16}$.

Times New Roman garniturasida terildi.
Shartli bosma tabog'i: 5,5.
Buyurtma № 114 Adadi: 100 nusxa.

«Adabiyot uchqunlari» MChJ nashriyotida bosmaga tayyorlandi va chop etildi. Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 28–uy.